

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI  
MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'shyozma huquqida  
UDK\_379.851

XODJIYEVA GAVXAR RUSLAN QIZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ZIYORAT  
TURIZMINI RIVOJLANISH SHART-SHAROITLARI

Mutaxassislik: 71010401 – Turizm (ziyorat turizmi)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar

(DSc). Prof., Norchayev A.N.

TERMIZ - 2023

**Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2023-yil 7-martdagি №\_18 sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan.**

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti "Turizm va mexmonxona xo'jaligi" kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

**Dissertatsiya manzilining QR-kodi:**



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2) raqam bilan ro'yxatga olingan.

Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko'chasi 43-uy.)

**Ilmiy rahbar:**


(DSc). Prof., A.N. Norchayev

**Kafedra mudiri:**

dots. O.D. Rajapov

**Magistratura bo'limi boshlig'i:**

PhD. A.B. Narbayev



	<b>MUNDARIJA</b>	<b>Bet</b>
<b>KIRISH</b>		8
<b>I-BOB.</b>	<b>ZIYORAT TURIZMI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI</b>	13
1.1.	Ziyorat turizmi va uni tashkil etish asoslari	13
1.2.	Ziyorat turizmi rivojlanishining tarixi va bosqichlari	22
1.3.	Ziyorat turizmini rivojlantirishda xalqaro tajribalarni o'rghanish. Birinchi bob bo'yicha xulosa	30 38
<b>II-BOB.</b>	<b>O'ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJLANISHI HOLATINING IQTISODIY TAHLILI</b>	41
2.1	Respublikamizda turizm rivojlanishining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili	41
2.2	Respublikamizda turistik marshrutlarga kiritilgan ziyoratgohlar va ularning holati	46
2.3	Respublikamizdagi ziyorat ob'ektlari infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar Ikkinchi bob bo'yicha xulosa	49 55
<b>III-BOB.</b>	<b>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI</b>	57
3.1.	Ziyorat turizmini rivojlantirishda ijtimoyi-iqtisodiy tashkiliy-mexanizmlarini takomillashtirish	57
3.2.	Ziyorat ob'ektlari bo'yicha turistik marshrutlarni ishlab chiqish metodikasi	63
3.3.	Ziyorat turizmining 2025 yilgacha bo'lgan rivojlanishi prognozi Uchinchi bob bo'yicha xulosa	69 76
	<b>XULOSA VA TAKLIFLAR</b>	78
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.</b>	80
	<b>ILOVALAR</b>	84

## KIRISH

### **Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va unung dolzarbliji.**

So'nggi yillarda yurtimizda turizmga davlat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri sifatida e'tibor berilmoqda. Iqtisodiyotning noishlab chiqarish sohasi bo'lmish turizmdan tushgan mablag' jahondagi ayrim davlatlar daromadining salmoqli qismini tashkil etishi barchaga ma'lum. O'zbekistonda turizmning barcha yo'nalishlari qatori ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Natijada mamlakatimizga kelayotgan sayyohlar soni sezilarli darajada oshishiga erishildi. Ayniqsa, oxirgi uch yil mobaynida yurtimizda musulmon mamlakatlari va arab sayyohlari oqimi yuqori darajada oshdi. Bu o'rinda Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlaridagi tabarruk qadamjolar ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim.

"Ziyorat turizmi" davlatimizni xalqaro maydonda, islom olamida va qolaversa butun dunyoga yanada keng tanilishiga xizmat qiluvchi va iqtisodiyotning eng daromadli tarmog'idir<sup>1</sup>

Tahlillarga ko'ra, 2022 yilning aprel oyida 269,2 ming nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda O'zbekistonga sayohat qilgan. Bu natija o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 181,4 ming nafarga yoki 3,1 baravarga oshgan<sup>2</sup>.

O'zbekiston dunyoga qadimiy va ekzotik shaharlari bilan ziyorat turizmi infratuzilmasini barpo etish, sayyohlar uchun barcha kerakli shart-sharoitlarni yaratish, ziyorat turizmi brendini ishlab chiqish bo'yicha yetarli salohiyatga ega mamlakat hisoblanadi. O'zbekistondagi ko'plab madaniy yodgorliklarning YUNESKO tomonidan butunjahon madaniy meroslari sifatida ro'yxatga olingani diqqatga sazovordir. Samarqanddagi Shohizinda, Amir Temur maqbaralari, Imom Moturidiy, Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi, Ulug'bek madrasasi, Sherdor madrasasi, Tillokori va Bibixonim masjidlari, Surxondaryodagi Imom Termiziyl,

---

<sup>1</sup> "Xalq so'zi" gazetasi, 2021 yil 9 fevral, №20

<sup>2</sup> <https://darakchi.uz/uz/146526>, <https://sof.uz/post/ozbekistonga-aprel-oyida-nechta-turist-kelgan>.

Xakim At Termiziy, Sulton Saodat, Zulkifl maqbarasi va boshqa shu kabi qadamjolarda ziyoratchilar uchun barcha imkoniyat va shart-sharoitlar mavjud.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev 2020 yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ziyorat turizmini jadal rivojlantirish zarurliginin ta'kidlab, yurtimizda 8 ming 200 dan ziyod madaniy meros ob'ekti mavjud bo'lib, turizm marshrutlariga ularning atigi 500 tasi kiritilganligini bildirgan edi<sup>1</sup>.

Respublikamizda hozirgi kunda moddiy-madaniy meros ob'ektlari mavjud bo'lib, ularning orasida ziyorat qilinishi mumkin bo'lgan joylar soni ma'lum qismini tashkil etadi. Shu boisdan Respublikamizda hali turistik marshrutlarga kiritilishi lozim bo'lgan ziyoratgohlar ko'p. Bilamizki, jahonda turizmning tan olingan 3 ta xalqaro turizm, milliy turizm, ichki turizm guruhi mavjud bo'lib, uning tematikasi jihatdan bir qancha turlari tarixiy obidalar va tarixni o'rganishga qaratilgan turizm, ziyorat turizmi, etnografik turizm, ekologik turizm, ta'lim olish, sport va boshqa dam olish bilan bog'liq turizmni tashkil etadi.<sup>2</sup>

**Tadqiqot ob'ekti va predmeti** Mamlakatimizdagi ziyoratgohlar tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Tadqiqot predmeti sifatida ziyorat turizmini rivojlantirish va ziyoratgohlardagi turistlarga xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirishga qaratilgan munosabatlarga asoslangan.

**Tadqiqot maqsadi va vazifalari.** Tadqiqotning maqsadi mamlakatimizda shu jumladan, viloyatimizda ziyorat turizmini rivojlantirishda mavjud muammolarni aniqlash va ularga ilmiy asoslangan takliflar bildirish.

Dissertatsiyasining tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, unga quydagи vazifalar belgilangan:

- ziyorat turizmi va uni tashkil etish asoslarini o'rganish;
- ziyorat turizmi rivojlanishining tarixi va bosqichlarini aniqlash;
- ziyorat turizmini rivojlantirishda xalqaro tajribalarni o'rganish;
- respublikamizda turizm rivojlanishining iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish;

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <https://president.uz/ru/lists/view/3324> [24.01.2020].

<sup>2</sup> Пардаев М.К., Атабаев Р., Пардаев Б.Р. Туризм соҳасини ривожлантириш имкониятлари. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2017. – Б. 6-7.

-respublikamizda turistik marshrutlarga kiritilgan ziyoratgohlar va ularning holatini takomillashtirish;

-respublikamizdagи ziyorat ob'ektlari infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan, dasturlar va chora-tadbirlarni o'rganish;

-ziyorat turizmini rivojlantirishda ijtimoyi-iqtisodiy tashkiliy-mexanizmlarini takomillashtirish xususiyatlarini aniqlash;

-ziyorat ob'ektlari bo'yicha turistik marshrutlarni ishlab chiqish metodikasining iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish;

-ziyorat turizmining 2025 yilgacha bo'lgan rivojlanishi proqnozilarini tahlil qilish.

### **Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Respublikamizda ziyorat turizmi resurslari joylashgan hududlarda turizm ob'ektlarini tashkil qilib yangi ish o'rnlari yaratish, mahalliy aholi daromadlarini oshirish va shu orqali kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish bo'yicha takliflar asoslangan;

Respublikamiz ziyorat ob'ektlaridan samarali foydalanib, u yerda norasmiy ishlayotgan fuqarolarning bandligini legallashtirish orqali ularda ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan to'liq foydalanish imkoniyatini yaratish;

Respublikada turizm bozorining turli segmentlariga yo'naltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish, ularning raqobatbardoshligini yanada oshirish, maqbul va qulay ichki va xalqaro ziyorat turizmi muhitini yaratish, transport yo'nalishlarini kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish, turizm mahsulotlarini keng targ'ib qilish, shuningdek, mamlakatimizning sayohat va dam olish uchun xavfsiz manzil sifatidagi imijini mustahkamlashyaratish bo'yicha amaliy takliflar ilmiy asoslangan;

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.** Respublikamiz resurslaridan foydalanishning iqtisodiy, samaradorlik yo'llaridan foydalanishda amaliy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan, hududlardagi turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi muassasalar faoliyatini takomillashtirishda xizmatlar bozorini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy

mexanizmlari, takomillashtirilgan. Yangi O‘zbekistonni rivojlantrish strategiyasining ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha 2022-2026 yillarda Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muayyan darajada xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar tahlili.** Ziyorat turizmi bo‘yicha takomillashning nazariy-metodologik masalalari, Kabushkin N.L, Ilyenkova N.D, Kotler F, Bowen J., Makenz J, Shpakovskiy V.O, Chugunova N.M, Kirilchuk I.V kabi xorijlik olimlarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan<sup>1</sup>.

MDH mamlakatlari olimlari, M.B.Birjakov, B.S.Bogolyubov, V.P.Orlovskiya, A.Drovvich, N.I.Kabushkin, V.A.Kvartalnov, B.S.Senin, T.T.Xristov, A.D.Chudnovskiy, B.G.Fedsiov, V.V.Xrabovchenkovlar o‘z ilmiy ishlarida turizm sohasini rivochlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratgan<sup>2</sup>. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan S.S.G‘ulomov, N.X.Jumaev, Q.X.Abdurahmanov, N.T.To‘xliev, M.Q.Pardaev, T.Tashmuratov, A.N.Narchaev, M.M.Muhammedov, D.X.Asanova, B.N.Navro‘z-zoda, O.M.Pardaev, A.M.Abduvohidov, M.T.Alimova, A.A.Eshtaev, B.H.To‘raev, O.H.Xamidov, B.Sh.Safarov, M.T.Alieva, N.E.Ibadullaev, N.S.Ibragimov, B.Yu.Mirbabaev, S.S.Ro‘ziev, N.E.Ibadullaev Z.N.To’rayevlarning ilmiy izlanishlarida ziyorat turizmni rivojlantirish hamda boshqarish jihatlari ko’rib chiqilgan<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма. 2-е изд.Мн.: Новое знание, 2001.432с., Ильенкова Н. Д Спрос: анализ и управление. М.: Финансы и статистика, 1997.160., Kotler F, Bowen J., Makenz J. Marketing. Hospitality. Tourism: Textbook for universities. М.: UNITI, 2003.—1063р., Shpakovskiy V.O, Chugunova N.M, Kirilchuk I.V Организация и проведения рекламных мероприятий посредством BTL-коммуникаций: Учебное пособие. М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К»2008.-128с

<sup>2</sup> Храбовченко. В.В. “Экологический туризм учеб метод пособне. М. Финансы и статистика 2014 й. 208.Биржаков.М.Б. Введение в туризм. СПБ, Издательский Торговый дом «Герда» 2018, 576 с, Боголюбов В., Орловская В.П. «Экономика туризма» -М.Издательский центр «Академия» 2015-151 с., Дроввич. А..П. «Маркетинговые исследования в туризме», учебное пособие –СПБ; Питер-2018-384 с; Кабушкин. Н.И. «Менеджмент туризма» -Минск Новое знание 2012.-407 с; Квартальнов. В.А. Туризм; учебник –М; Финансы и статистика 2013 й. 320 с, Сенинью Б.С. Организация международного туризма. –М; Финансы и статистика 2014 й. 379 с, Христов Т.Т. Религиозный туризм; учеб пособ.3-е изд. испр.-М. Издательский центр «Академия» 2017 -288 с. Чудновский. А.Д. Управлений индустрией туризма России в современных условиях; учебное пособие. –Ростов н Д; Феникс, 2018.-503 с

<sup>3</sup> Z.N. Turayev Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan DISSYERTASIYASI –Tashkent-2022.Gulyamov S.S., Jumaev N.X., Raxmanov D.A. Toshxodjaev M.M. Ijtimoiy sohada investitsiyalarning samaradorligi. Monografiya. – Т.: IQTISODIYOT, 2019. –203 б.; Abduraxmonov K.X. Menejment turizma: Uchebnoe posobie. – Т.: Filial FGBOU VPO «REU im. G.V. Plexanova» v g. Tashkente, 2013.; Tuxliev N., Abdullaeva T. Menedjment i organizatsiya biznesa v turizme Uzbekistana. – Т.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. -2021. -367 с.; Pardaev M.Q., Atabaev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. - Samarqand: SamISI, 2016. -137 б.; Tashmuratov T., Agzamov S. Marketing mejdunarodnogo turizma - Т.: 2008.; Pardaev A.X., Norchaev A.N., Rabbimov E.N. Ziyorat turizm. -O‘quv qo‘llanma. – Т.: TDIU, 2011. -84 б Narchaev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari DSc. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

**Tadqiqotda qo'llanilgan metodikasining tavsifi.** Magistrlik dissertatsiya ishida analiz va sintez, induktsiya va deduktsiya, tizimli mantiqiy yondashuv, iqtisodiy va statistik tahlil usullaridan foydalalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Ko'zda tutilgan takliflar va amaliy tavsiyalardan ziyyarat turizm xizmatlar bozorini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarda, hududlardagi turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi muassasalar faoliyatini takomillashtirishda, shuningdek, 2022-2026 yillarda Yangi O'zbekiston rivojlanish strategiyasining ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muayyan darajada xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Ish tuzilmasining tasnifi:** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 99 betdan iborat.

---

dissertatsiya. T.: TDIU, 2021 - 246 b. Muxammedov va boshqalar Xizmat ko'rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslar. – S.: Zarafshon 2017. -299 b.; Asanova D.X. Modeli formirovaniya turistskogo klastera za rubejom. //Servis, 2013. - №1. - S: 4-9; N.Navruz-zoda B., Ibragimov N.S., Navruz-zoda Z.B., Navruz-zoda Sh.B. Turistik hudud raqobatbardoshligi. Monografiya. Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdonha nashriyoti, 2017 -156 b.; Pardaev O.M. Menejment. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2019. -248 b.; Abduvohidov A.M. Turizmda elektron biznes. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU. Iqtisodiyot, 2020. -189 b.; Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida). DSc. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -S.: SamISI, 2017. -265 b.; Eshtaev A.A. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'i misolida). DSc. dissertatsiya avtoreferati – Samarqand. 2019. Turaev B.X. Razvitie organizatsionno-ekonomicheskix mexanizmov funkcionirovaniya regionalnogo turizma: -dok. diss. avtoref., 2011.– 38 s.; Xamidov O.X. Vyibor konkurentnoy strategii predpriyatiy na rynke turisticheskix uslug Uzbekistana: kand. diss. avtoref, 2016. -22 s.; Safarov B.Sh. Milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – S.: SamISI, 2016. -254 b.; M.T. Alieva. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari: iqt. fan. dok. diss. avtoref. – S.: SamISI, 2019. -77 b; Ibadullaev N.E. Turistik resurslardan foydalanan samaradorligini oshirish imkoniyatlari (Samarqand viloyati misolida). – iqt. fan. nom. diss. avtoref. – Samarqand, 2010. Ibragimov N.S. O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda destinatsion menejment konsepsiyasini qo'llash. – iqt. fan. nom. diss. avtoref, 2008. -23 b; Mirbabaev B.Yu. O'zbekiston turizmida marketing va uning globallashuv sharoitida takomillashuvi. – iqt. fan. nom. diss. avtoref. 2008.-23 b; Ro'ziev S.S. O'zbekiston madaniy turizm bozori va uning istiqbollari. – iqt. fan. nom. diss. avtoref. 2009. -21 b. Pardaev M.Q., Atabaev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. -Samarqand: SamISI, 2016. -137

# **I-BOB ZIYORAT TURIZMI RIVOJLANISHINING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI**

## **1.1. Ziyorat turizmi va uni tashkil etish asoslari**

So'nggi yillarda butun dunyoda turizm rivojlanib, uning tarmoqlari kengayib borayotgani barchaga birdek ma'lum. Turizmnинг keng tarqalayotgan "ziyorat turizmi" turi oxirgi yillarda ko'pchilik insonlarda qiziqish paydo qilmoqda. Ziyorat turizmi deganda turli dinga e'tiqod qiluvchilarining o'z dinidagi muqaddas joylariga ziyoratga borishlarini tushunish mumkin. Ziyorat qilinadigan muqaddas joylar qancha ziyoratbop, toza-ozoda, shinam va qulay sharoitlarga ega bo'lsa, ziyoratchilar oqimini shuncha ko'payishi va bu bilan katta iqtisodiy yutuqlarga erishishi mumkin.

Islom dinida musulmonlar uchun haj, umra va ziyorat tushunchalari mavjud bo'lib, ular o'ziga xos jihatlari bilan farqlanadi. Jumladan, haj va umra diniy moliyaviy ibodat bo'lib, ularni aniq, belgilangan tartibga rioya etgan holda amalga oshirish talab etiladi. Shu sababli haj va umra turizm yoki ziyorat tushunchasi bilan hamda turizm ob'ekti maskanlarini ziyorat qilish bilan tenglashtirilmaydi. Haj ma'lum geografik doirada, ya'ni Saudiya Arabistonini Podsholigidagi Makka va Madinada bo'lgan hududda amalga oshiriladigan ibodatga oid faoliyatdir.

Haj – yo'lga qodir, balog'atga etgan, sog'lom, borib kelishga oilasida ortiqcha mablag'i etarli bo'lgan, yo'lida xavf-xatar bo'lмаган, ayol bo'lsa mahrami bo'lgan musulmonlar uchun farz bo'lgan ibodat bo'lib, zulhijja oyining 9-10 kunlarida (hijriy yilning oxirgi oyida) amalga oshiriladi. Umra esa butun yil davomida bajarilishi mumkin bo'lgan diniy ziyoratdir. Bu ham musulmonlar uchun xos bo'lgan ibodat amali bo'lib, umra ziyorati deyiladi. Sababi mazkur umra amali vaqtida musulmonlar Madina va Makka shaharlarini ziyorat qilib, o'z ibodatlarini bajarib olishadi. Umra ziyorati davomida Mino, Muzdalifa va Arafot vodiylarida qolib ibodatlar amalga oshirilmaydi qurbanlik so'yilmaydi. Shu o'rinda ziyorat va ziyorat turizmi tushunchalarining mazmun-mohiyati lug'aviy va istilohiy ma'nosi xususida to'xtalamiz. Ziyorat tushunchasi haqida O'zbekiston

Milliy Entsiklopediyasida keltirilishcha, muqaddas joylarga, mozor va qabristonlarga borib muayyan rasm-rusumlarni bajarib kelish, deb ta’riflangan<sup>1</sup>.

Islom aqidasiga ko'ra, aziz-avliyolar qabrularini ziyorat qilgani borganda ularga atab qurbanlik qilish, ularning ruhlaridan yordam so'rash, hojatlarini ravo bo'lishi, farzand so'rab iltijo qilish va turli kasalliklariga shifo berishni so'rab duo qilish harom shirk amal sanaladi. “An-Naim” arabcha-o'zbekcha izohli lug'atda “Ziyorat” so'zi arab tilidan olingan bo'lib “ziyorat qilmoq”, “ko'rgani kelmoq” (bormoq)” va “tashrif buyurmoq” ma'nolarini bildi<sup>2</sup> ( 1.1.1-rasm).

Musulmonlarda “ziyorat”–bu payg'ambarlar, aziz avliyolar va mashhur allomalar qabrini hamda diniy muqaddas joylarni ziyorat qilish, ya'ni borib ko'rib, duo yoki ibodat qilishdir<sup>3</sup>. Istilohiy ma'nosi esa, Alloh aziz qilgan insonlarni va muqaddas qadamjolarni savob umidida borib ko'rishdir. Ziyorat – hurmat yoki rasmiyat yuzasidan keksa tabarruk kishilar, hurmatli zotlar huzuriga tashrif buyurib, ularning holidan xabar olish, ularni ko'ngillarini ko'tarib duolarini olish yaxshi kunlarda muborakbod etishdir.

**Ziyorat quyidagi ma'nolarni anglatadi:**

**Muqaddas joylarni ziyorat qilish:**

**Qabrlni ziyorat qilish:**

**Taniqli ulamolar (shaxslar), ustozlar va murshidlar xotirasi bilan bog'liq muqaddas qadamjo va jiyoratgohlarni ziyorat qilish.**

### **1.1.1-rasm. Ziyorat tushunchasi<sup>4</sup>**

<sup>1</sup>Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т., 2021. -Б 95.

<sup>2</sup> Ан-Найим. Арабча-ўзбекча лугат. Тузувчилар: О.Носиров, М.Юсупов ва бошк. Тошкент. 2013.Б.349.

<sup>3</sup> Ziyorat turizmi o'quv qo'llanma

<sup>4</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

Ziyorat – Islomning turistik asosi hisoblanadi va uni ikki guruhgaga ilohiy qadriyatlarga asoslanadigan diniy ziyorat va umumbashariy qadriyatlarga asoslanadigan dunyoviy ziyoratga bo'lishmiz mumkin.

Diniy ziyorat o'z navbatida islom, buddaviylik va xristianlik diniy e'tiqodlariga bo'linadi. Agar diniy ziyorat diniy muqaddas narsa va joylarga ibodat qilishni bildirsa, dunyoviy ziyorat tabiiy va hayotiy narsalar hamda muqaddas joylarga sajda qilish va ularni qadrlashda o'z ifodasini topadi<sup>1</sup>. Olimlar tomonidan turizmning mazkur turiga turli ta'riflar berilgan. Umuman olganda ushbu turizm turiga islom ta'limotida ham keng o'rinni berilgan.

Diniy turizm ziyorat qilish maqsadida sayohat sifatida hozirgi kunda juda yuqori talabga ega bo'lib, ommaviy tus olmoqda. Mustaqilligimiz sharofati bilan har yili ko'plab vatandoshlarimiz Makkai Madinaga haj va umra safarlarini amalga oshirmoqdalar. Dunyodagi ko'pgina odamlar Makka-yu Mukarrama, muqaddas yer bo'lgan Vatikan ibodatxonalarini va boshqa joylarni ziyorat qilish uchun sayohat qilishadi. O'zbekistonda bunday muqaddas ziyorat qiladigan joylarga Samarqand, Buxoro, Xorazm va boshqa viloyatlarimizda joylashgan tarixiy yodgorliklar misol bo'la oladi<sup>2</sup>.

2022 yil 27-29 iyun kunlari Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Islom hamkorlik tashkilotining XI sessiyasida Xiva 2024 yil "Islom dunyosining turizm poytaxti" deya e'lon qilindi<sup>3</sup>. (IHT) a'zolari O'zbekiston erishgan ushbu g'alabaning asosiy omili davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoev tomonidan turizm sohasida yuritilayotgan ochiqlik siyosati, viza rejimining soddalashtirilishi, madaniy merosni saqlash, tarixiy shaharlarni obodonlashtirish kabi ko'plab islohotlarni e'tirof etishdi. Ushbu yutuq O'zbekistonda ziyorat turizmi rivojiga davlat darajasida ko'rsatilayotgan e'tibor namunasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ziyorat turizmi zamonaviy turizm industriyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

<sup>1</sup> Б.Н.Навруз-Зода. Туристик худуд рақобатбардошлиги. Дурдана нашриёти. Бухоро-2017. Б.83

<sup>2</sup> И.С.Тухлиев, С.А.Абдухамидов. Туризм: назария ва амалиёт. Тошкент.2021. Б.65, И.Тухлиев, Ф.Х.Кудратов, М.Қ.Пардаев. Туризми режалаштириш. Тошкент. 2010. Б.25, И.С.Тухлиев ва бош. Ўзбекистон туристик-рекреацион салоҳиятини ривожлантиришда минтақавий геоахборот тизимини шакллантиришининг методологик асослари. Монография. Самарқанд.2021. Б32-33.

<sup>3</sup> <https://uzbektourism.uz/news/view?id=2261>

Soborlar, masjidlar, diniy muzeylar va ma'naviyat markazlari talab ortib borayotgan sayyohlik maskanlaridir. Din, tarix va madaniyat yodgorliklari ma'lum bir mintaqqa yoki shaharga tashrif buyurish uchun muhim turtki hisoblanadi. Diniy va ziyorat sayohatlarini, shuningdek, monastirlar, cherkovlar va boshqa diniy tashkilotlarda tashkil etiladigan ayrim ziyorat xizmatlarini tashkil etish uchun turistik firmalarni shakllantirish jarayoni butun dunyoda davom etmoqda. Xristianlar uchun ziyorat - ibodat qilish, mehnat qilish va monastir yoki ma'badni tiklash va rivojlantirish uchun xayr-ehson yig'ish maqsadida diniy ziyoratgohlarga tashrif buyurish. Muqaddas qabrga sajda qilish uchun Muqaddas erga sayohatlar ziyorat sifatida qabul qilingan.

Diniy qonunlarga ko'ra, ziyorat safari kamida 10 kun davom etishi kerak va ko'pincha diniy bayramlarga to'g'ri keladi. Katoliklar uchun Muqaddas yer Isroil, katolik ziyoratgohlari Italiya, Vatikan, Frantsiya, Portugaliya va G'arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlarida ham joylashgan. Yahudiylikni ziyorat qilish uchun muqaddas joylari Isroil, Ruminiya, Chexiya, Germaniya, Ispaniya va Ukrainada joylashgan. Shuningdek Samarcand shahridagi "Xo'ja Doniyol" ziyoratgohi bugungi kunda uchta xristian, islam va yahudiylik diniga e'tiqod qiluvchilarning ham ziyoratgohi hisoblanadi.

Musulmonlar uchun - sunniylar, Saudiya Arabistonidagi Makka va Madina muqaddas shaharlar hisoblanadi. Shialarning ziyoratgohlari birinchi navbatda Iroqning An-Najaf va Karbalo shaharlaridir. Buddistlarning asosiy ziyoratgohlari Hindiston, Xitoy va Tibetda joylashgan. Istilohiy ma'noda ziyorat bu: har xil diniy e'tiqoddagi kishilar muqaddas joylarga sig'inish uchun boradilar. Diniy amallarni amalga oshirishdan maqsad: ma'naviy komilikka erishish, taskin topish, ma'naviy yoki jismoniy poklanish, farzlarni bajarish, gunohlardan forig' bo'lish va xo'dojo'ylik. Ziyoratchilik xristianlik, buddiylik va boshqalarga bo'linadi<sup>1</sup>. Diniy sayohatni amalga oshirishning eng muhim omillaridan biri bu diniy va davlat bayramlari nishonlanadigan vaqt oralig'idir. Diniy sayohatlarni tashkil

---

<sup>1</sup> X.М.Маматкулов. Хизмат кўрсатиши соҳасига оид атамалар ва иборалар изохли луғати. Тошкент.2010. Б.87.

etishga har tomonlama tayyorgarlik ko'rish uchun sayohat kompaniyasi rahbariyati nuqtai nazaridan vaqt oralig'ini tahlil qilish zarur.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning “O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”<sup>1</sup> gi farmoni va uning ijrosini ta'minlash maqsadida respublikaga turistlar oqimini ko'paytirish, kirish turizmini milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylantirish, mamlakatning madaniy-tarixiy merosi va tabiiy boyliklarini keng targ'ib qilishga qaratilgan “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaror qabul qilindi. Jahonda 1,9 milliardda<sup>2</sup> ortiq musulmonlar bo'lib, dunyoning deyarli barcha mintaqasida yashaydi. Jumladan Indoneziyada (273,5 mln), Malayziyada (32,37 mln), Pokistonda (220,9 mln) musulmonlarga ega davlatlarni O'zbekistonga jalb etish bo'yicha so'ngi yillarda bir qancha chora-tadbirlar va dasturlar qabul qilindi. Bu dasturlarni bajarishda quyidagi ishlarni amalga oshirish belgilanangan.

- musulmon mamlakatlarda xususan, Turkiya, Misr, Saudiya, Kuvayt, Qatar, Pokiston, Hindiston, Malayziya va Indoneziyada O'zbekistonning turistik ayniqsa, ziyorat turistik salohiyatini ko'rsatuvchi taqdimotlar namoyish etish;

- musulmon mamlakatlarning ko'zga ko'ringan diniy ulamolarini O'zbekistonga taklif etib, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva va Termiz shaharlariga bepul sayohatlar uyushtirish, ularga O'zbekistonni ko'proq tanitish;

- musulmon mamlakatlarga imtiyozli charter reyslarni amalga oshirish;

- haj va umra safarlari oldidan O'zbekistonning muqaddas qadamjolari Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy va Shohi zinda majmularini ziyorat qilishni tashkil etish;

- islom olamidagi mashhur universitet va dorulfunun o'quv dargohlari o'rtasida talabalar almashinuvini yo'lga qo'yish.

---

<sup>1</sup> Lex.uz. Ўзбекистон Республикаси Президентининг О'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida” Фармони, 03.02.2018 йилдаги ПФ-5326-сон

<sup>2</sup> <https://ru.wikipedia.org>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 fevraldag'i "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>1</sup>gi qaror esa hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, fuqarolarni mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiiy boyliklari bilan tanishtirish maqsadiga yo'naltirilgan. Ushbu qarorga muvofiq "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" ichki turizmni rivojlantirish dasturini amalga oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasining tasdiqlanishiga kelgusida sohaga oid muammolarni bartaraf etish va turizmni yanada rivojlantirishda, davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ko'lamini kengaytirishda muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Turistik faoliyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va fikriy jihatdan juda ko'plab foydalari bor. Misol uchun, sayohat qilish insonlarning fikr va hissuyg'ularini kuchliroq ishlatalishiga, solishtirishiga, turli-tumanliklar haqida fikr yuritishiga sabab bo'ladi. Hayotning ma'no-mazmun dinamikalarini ko'proq savol-javob qilishiga olib boradi. Mana shunday ma'no doirasidan kelib chiqib o'rta asrlarning yirik sayyoohlardan Lubenau Reinhold inson sayohatlar bilan dindorroq bo'lishini, Tangrining luftlarini va ne'matlarini yaxshiroq payqashini XVII asrning boshlarida aytib o'tgan<sup>2</sup>. Demak turizm boshqa sohalar kabi din bilan ham keng aloqadagi soha hisoblanadi.

Islom dinining asosiy manbalari Qur'oni karim va hadislarda sayohat bilan bog'liq tushunchalarning bo'lishi islomning turizm bilan yaqin aloqasini ko'rsatadi. Turizm voqeasi to'g'ridan-to'g'ri sayohat bilan bog'liq mashg'ulotdir. Biroq din tavsiya qilgan sayohatlar dam olish, ko'ngil ochish maqsadida emas, balki biror maqsadga qaratilgan holda amalga oshiriluvchi maъnoli sayohatlardir. Vaholangki, turistik sayohatlar har vaqt shu ma'noda amalga oshmaydi. Turizm – jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/3551112/> Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" Карори, 07.02.2018 йилдаги ПҚ-3514-сон.

<sup>2</sup> Reinhold Lubenau, Reinhold Lubenau Seyahatnamesi, I-II Cilt, Türkîs Noyan таржимаси, Китар нашриёти, Истанбул, 2012. Б.618-620.

amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) dir<sup>1</sup>. Qur'oni karim insonlarning koinotga, tarixga va tarix qoldirgan merosga ibrat ko'zi bilan qarashini doimiy ravishda uqtiradi. Insonlarni ajdodlari insoniyat tajriba qilgan hayotdan ortda nima qoldirganliklariga ibrat bilan qarashlari uchun sayohat qilishga chaqiradi. Bu oyatlarning maqsadi insonlarga sayohatlar orqali qo'lga kiritadigan bilim va oladigan ibrati bilan Allohning qudrati nimalarga molik ekanini ko'rsatishdir.

Qur'on mo'minlarning vasflarini sanash chog'ida boshqa xususiyatlar bilan bir qatorda sayohat qilishni ham sanab o'tadi: "Tavba qilgan, ibodat qilgan, hamd aytgan, sayohat qilgan, ruku qilgan, sajda qilgan<sup>2</sup>, yaxshilikka buyurib yomonlikdan qaytargan va Allohning chegaralarini qo'rigan insonlardir. O'sha mo'minlarga xushxabar bering<sup>3</sup>. Quronni karimning turli oyatlarida o'tmishtga ibrat nazari bilan qarash, o'tmishtdan dars olish uchun yer yuzini kezish tavsiya qilinadi<sup>4</sup>. Darhaqiqat tarixga ibrat nazari bilan qaralganida inson o'z kichikligini, ojizligini, kifoyasizligini, dunyoga hech kimga yor emasligini va Yaratuvchining mutlaq va ulug'ligini ko'radi<sup>5</sup>.

Muhammad (s.a.v.) ning payg'ambarlikdan oldingi sayohatlari diqqatga sazovordir. Bolalik davridan boshlab Madina, Toif, Suriya, keyinroq Habashiston, Yaman, Sharqiy Arabiston sayohatlari Payg'ambar (a.s.) ning risolatdan oldin harakatli va dinamik hayot yashaganliklarining dalili sifatida ko'zga tashlanadi. Zotan Payg'ambar (a.s.) ning sayohat va safarni tashviqot qiluvchi hadislari ham turg'un, bir maromdag'i hayot tushinchasini inkor etadi. Darhaqiqat Payg'ambar (a.s.) "sayohat qiling – sog'lom bo'lasiz"<sup>6</sup> deya marhamat qilib sayohat va salomatlik orasidagi munosabatga, shuningdek "sayohat qiling – sog'lom bo'ling,

<sup>1</sup> Маматқулов Х.М., Бектемиров А.Б., Тухлиев И.С., Норчаев А.Н. Халқаро туризм. Дарслик. Самарқанд.2007. Б.5

<sup>2</sup> "(Аллоҳ ійўлида) саёҳат қилгандар" кўринишида таржима қилинган "السَّلَكُونْ" сўзи "рӯза тутганлар" деб ҳам таржима қилиниши мумкин.

<sup>3</sup> Куръони карим. Тавба, 112-оят.

<sup>4</sup> Кап. 3/137; 6/11; 12/109; 16/36; 27/69; 30/42; 47/10.

<sup>5</sup> Kadir H. Din, "Islam and Tourism", Annals of Tourism Research, Vol. 16, 1989, pp. B.542,553,563.

<sup>6</sup> Байҳақий, Абу Бақр Аҳмад ибн Ҳусайн ибн Алий, ас-Сунанул-Кубро, Ҳайдаробод, 1344, VII/102; Бадриддин Айний, Абу Муҳаммад Маҳмуд ибн Аҳмад, Умдатул-корий шарху Саҳихил-Бухорий, Дару ихият-туросил-арабий, Байрут, X/139.


kasb qilib rizqlaning”<sup>1</sup> so'zi bilan sayohat va iqtisod orasidagi munosabatga e'tiborni tortganlar. Bu hadislar sayohat qilishning insonlarga yangi fursatlar va imkonlar taqdim eta olishini ko'rsatadi. Bu imkonlar sog'liq, tijorat, ta'lim kabi mavzularda bo'lishi mumkin. Islomning sayohatga ko'p qadr bergani va bevosita hayotning bir bo'lagiga aylantirmoqchi bo'lgani yuqorida keltirilgan oyat va hadislardan ro'y-rost anglashiladi.

Islom dinida yo'lovchiga yaratilgan qulayliklar va imtiyozlar safarni osonlashtiradi. Kishi safarda va boradigan joyida uzoq muddat qolmaydigan bo'lsa namozlarini qasr qilishi mumkin. Ba'zi olimlarga ko'ra namozlarini jam ham qilishi mukin, ro'zasini qazoga qoldirishi mumkin. Bularning barchasi bir muslimnonning safar hayotini osonlashtiruvchi omillardir. Turkiyalik olim Hikmet Ko'chyigit sayohat va ziyorat voqeasini ko'proq ibrat olish, sog'liq, qarindosh, yor-do'st ziyoratlari, turli seminar va sempozium, ko'rgazmalar va musobaqalar uchun qilinishi mumkinligini aytadi. Ko'chyigit Qur'on turizmning voz kechib bo'lmas deb hisoblangan yo'llar va qo'noqlashbekatlari (Saba, 18-19 oyatlar), yo'lovchilarga moddiy va ma'naviy yordam berilishi (Tavba, 60-oyat), tarixiy asarlarning muhofazasi (Mo'min, 82-oyat), tabiat muhofazasi (Ankabut, 20-oyat) kabi xususlar haqida to'xtalganini ta'kidlaydi.

Islomning qisqa muddatda dunyoda keng yerlarga ko'chishini ta'minlagan omillardan bittasi ham sahoba, tobe'iy va keyingi olimlarning sayohat va hijratlaridir. Bu ham xilma-xil dinlarga va madaniyatlarga o'z qadriyatlarini tashish, ham ulardan yangi narsalar o'rganishni o'zi bilan olib kelgan. Madaniy ta'sirlanishlar va ma'lumot almashinuvining bitta sababi ham ana shu uchrashuvlar va sayohatlardir. Musulmon olimlarning ilm olish yo'lidagi -ayniqsa hadis sohasida- sayohatlari (rihlalar) ularning eng ma'lumlaridir. Ko'plab muslimon olimlarining tavallud topgan va vafot etgan joyining boshqa-boshqa bo'lishi shu harakatlilikning qanchalik keng tus olganini ko'rsatadi. Buyuk muhaddis Imom Buxoriy bobomiz ham 16 yoshida ona yurti Buxorodan Makka

<sup>1</sup> Кар. Табарий, Абул-Қосим Сулаймон ибн Аҳмад, ал-Муъжамул-авсат (Абу Муоз Торик ибн Абдуллоҳ, Абул-Фазл Абдулмуҳсин таҳқиқи), Кохира, 1995, VII/245. ал-Байҳакий, ас-Сунанул-кубро, VII/102.

shahriga safarga chiqib umrining oxirida Buxoroga qaytgan (1.1.2-rasm). Hadis jamlash yo'lida 13900 km masofani bosib o'tgan.



### 1.1.2-rasm. Imom Buxoriyning ilmy safarlar xaritasi<sup>1</sup>

Tasavvufiy adabiyotlarda safar, sayohat tushinchalari ham ma'naviy ma'noda sayru sulukni, ham moddiy ma'noda kezishni ifodalaydi va tasavvufiy adabiyotlarda bod-bod o'rganilgan mavzu sifatida joy olga.

Ahli Sunnatning mazhab imomlaridan imom Shofe'iy (vaf. 820) ning ushbu fikrlari sayohat voqeasi kishining fikr va xatti-harakatlariga ijobiy ta'sirini juda chiroyli xulosa qiladi: “Aql va adab sohiblari bir joyda o'tirib qolgan holda rohat qila olmaydilar”, “Sayohat qil, ortda qoldirgan narsalaring o'rniغا yangi va go'zal narsalar topasan”, “Mashaqqatga chida, chunki hayotning mazasi tortilgan charchoqlardadir”, “Turg'unlik suvning hidlanishiga sabab bo'lganini ko'rdim”, “Suv oqsa go'zal bo'ladi, oqmasa go'zalligini yo'qotadi”, “Arslon o'rnini tark etmasdan ovini qo'lga krita olmaydi”, “O'q yoyidan chiqmasdan nishonni topa olmaydi”, “Quyosh doim o'z yo'lida qolsa arabu ajam barcha undan zerikadi”, “Oltin koni o'z o'rnida qolib ketsa tuproq hisoblanadi”, “Xushbo'y ud daraxti o'z o'rnida qolib ketsa o'tindir”<sup>2</sup>. Islom tarixida musulmonlar umumiyl ravishda -

<sup>1</sup>. Ömer Özkan, “Tasavvufi Mesnevilerde Sıklıkla İşlenen Bir Motif: Sefer/Seyahat”/A

<sup>2</sup> Мухаммад Идрис Шофеъий, Дайванул-имами Шафиъий (Имил Бади Яъкуб таҳқиқи), Дарул-китабил-арабий, 3-нашр, Байрут-Ливан, 1996, 53-бет; Mustafa Çag'rici, “İslamda Seyahat ve Konukluk”, İnanç Turizm Günleri -III-, Şubat нашириёти, Истанбул, 2007, 48-бет.

xususan haj, umra-, ilm olish, til o'rganish, savdo-sotiq sababli va shu maqsadalarda sayohat qilishgan. Islomning kezib ko'rish, ma'lumotga ega bo'lish, ibrat olish va ilohiy qudratni tanish maqsadida amalga oshirishini xohlagan sayohatlardan boshqa to'g'ridan-to'g'ri ibodat qamroviga olgan sayohatlari ham bor<sup>1</sup>. Haj va umra buning eng jonli misollaridir. Tana salomatligi o'rnida bo'lgan va iqtisodiy kuchi bo'lgan mo'minlarning umrlari davomida eng kamida bir marta hajga borishlari Quronni karimda farz qilingan, umra qilishlari davomli tavsiya qilingan.

Haj va umra ibodati Islom olamida guvohi bo'linadigan eng jonli va eng ulkan diniy turizmning tashkiliy ishidir. Islom tarixi bo'yicha muslimmonlar orasida dolzarbligini doimiy saqlab qolgan haj va umra ibodat bo'lishi bir qatorda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatlari ham bo'lgan diniy turizmidir. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, turizm xususan, ziyorat turizmi tushunchasi xalqimiz ongidan keng o'rinni olmoqda. Olimlarimiz tomonidan turizmning ushbu turiga turli ta'riflar berilib uning ma'no-mazmuni ochib berildi. Shu sababdan turizm va uning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan ziyorat turizmini rivojlantirish va uni jahon miqyosiga olib chiqish maqsadida Prezidentimizning tegishli farmon va qarorlari e'lon qilinmoqda.

Shu asosda ziyorat turizmini rivojlantirish, xorijiy tajribani o'rganish maqsadida turli xalqaro tadbirlar, ilmiy seminar va konferentsiyalar tashkil etilmoqda. Xorijiy mamlakatlarning turistik tashkilotlari bilan keng qamrovli hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilmoqda. Turizmning keng tarqalayotgan "ziyorat turizmi" turi oxirgi yillarda ko'pchilik insonlarda qiziqish paydo qilmoqda. Bu esa o'z navbatida O'zbekistonga, xususan, viloyatimizdagi ziyorat turizmi ob'jevtlariga ziyorat qilish uchun kelayotgan ziyoratchilar sonining sezilarli darajada oshishiga olib keldi.

## **1.2. Ziyorat turizmining rivojlanishining tarixiy bosqichlari**

---

<sup>1</sup> Куръони карим. Бақара, 196-оят.

Ziyorat turizmi - turli din vakillarining ziyorat maqsadidagi sayohatlari majmuidir. An'anaga ko'ra, u diniy maqsadli sayohatlarga taalluqlidir, lekin ziyoratchi uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan dunyoviy sayohatga ham tegishli bo'lishi mumkin. Ziyorat turizmi ahamiyatini ikki xususiyatga ko'ra asoslash mumkin: ziyorat turizmi ziyoratgoh uchun qanchalik muhim ahamiyat kasb etadi. Ziyoratchilar uchun ziyorat turizmi qanchalik muhim? Ziyorat ko'plab insonlar uchun qiyin paytlarda ruhiy ozuqa olish imkoniyati hamdir. Insonlar diniy ma'rifatni his qilish uchun ma'lum manzillarga sayohat qilishadi. Ko'pincha uzoq va ba'zan qiyin bo'lgan sayohat insonlar uchun fikr yuritish imkoniyatdir.

Ziyoratlar din bilan munosabatlarni chuqurlashtirishning bir usuli bo'lishi mumkin. Bu, albatta, e'tiqodga qanchalik sadoqatli ekanligini ko'rsatishning bir usuli va bu dinning o'zi haqida ko'proq bilish imkoniyatidir. Sayohat shakli sifatida ziyorat odamlarga muqaddas joylarni ziyorat qilish imkoniyatini beradi. Diniy maqsadlarda sayohat qiluvchi sayohatchi - muqaddas joylar va diniy markazlarni ziyorat qilish uchun olti oydan ortiq bo'limgan muddatga doimiy yashash mamlakatidan tashqariga chiqadigan shaxs tushuniladi. Diniy turizm deganda, odatdagi muhitdan tashqarida bo'lgan muqaddas joylar va diniy markazlarga sayohat qiluvchi sayohatchilarga xizmat ko'rsatish va ularning ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq faoliyat tushunilishi kerak.

Diniy turizm ikki asosiy turga bo'linadi:

- ziyorat turizmi;
- ekskursiya va ma'rifiy yo'nalishdagi diniy turizm.

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha har yili 200 mln.dan ortiq kishilar aynan ziyorat maqsadida jahondagi turli ziyoratgohlar va o'zлari uchun muqaddas hisoblangan maskanlarga borib, diniy sayohatlarni amalga oshirmoqda. Statistik ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, yiliga 150 mln xristianlar, 45 mln musulmonlar, 40 mln. buddistlar va sintoiistlar, 30 mln induistlar diniy ziyorat maqsadida sayohat qiladilar. Diniy ziyorat o'rta asrlarga kelib, Salib yurishi shaklida o'ziga xos ommaviy xarakter kasb etdi. U musulmonlar qarshi kurash bayrog'i ostida, xristianlarning muqaddas joylarini ulardan ozod qilish shiori

ostida o'tkazilgan. Ziyorat harakatlari XV – XVI asrlarda ancha faollashdi. Muqaddas yer (Quddus)ga borayotganlarning ko'pchiligi o'z maqsadlari va qiziqishlarini diniy ziyorat bilan niqoblashgan.

Ziyoratgohlarning keng va xilma-xil geografiyasini o'rganish uchun rayonlashtirishdan foydalaniadi. Jahonda ziyoratning bir qancha makro hududi mavjud: Yevropa, Shimoliy Amerika xristianlik va boshqa ko'p sonli dinlar bilan mustahkam o'rinnegalagan. Lotin Amerikasi, xristianlik va an'anaviy dinlar bilan bog'langan. G'arbiy va Sharqiy Afrika davlatlarida, islom dini, alohida xristianlik va an'anaviy dinlar mavjud. Shimoliy Afrika davlatlari islom dini qabul qilgan. Sharqiy –Osiyo davlatlarida, islom, buddizm, xristianlik va hinduzim dinlari keng tarqalgan. O'rta Osiyo davlatlarida, islom dini keng yoyilgan. G'arbiy Osiyo davlatlarida, islom va xristianlik, iudizm dinlari keng yoyilgan. Janubiy Osiyoda iudizm va buddizm keng tarqalgan. Shuningdek, xristianlik, jaynizm, sikxizm va islom dinlari keng tarqalgan.

Har bir makrohudud eng avvalo ziyoratning jahon markazlari bilan mashhur. Ular e'tiqodchilarning xalqaro oqimini qabul, qiladilar va ko'pincha diniy ixtisoslashtirishning ma'muriy, sanoat, madaniy va turistik markazlari funksiyalari bilan qo'shilib ketadi. Bundan tashqari, makrohududlarda milliy va mahalliy ahamiyatga ega diniy sig'inish obektlari mavjud. Quddus shahri-jahonning eng yirik diniy markazlaridan biri hisoblanadi. Quddus uch din e'tiqodchilari islom, xristianlik, iudizm uchun muqaddas markaz hamdir. Bu makromintaqalar mavjud diniy ziyoratgohlar salohiyatidan kelib chiqqan holda ajratilgan.

Ular ichida eng muhim mintaqa Yevropada Vatikan, G'arbiy Osiyoda Saudiya Arabistonidagi Makka va Madina va Quddus shaharlari hisoblanadi. O'rta Osiyda esa O'zbekistonning qadimiy Buxoro va Samarcand, Toshkent, Termiz, Xiva va boshqa shaharlarida diniy turistik resurslar mavjud. Ziyoratlar, odatda, turli dinlarning taniqli namoyandalarining qadamjolariga tashrif buyurishni aks ettiradi. Tashrif buyuriladigan joy muqaddas bo'lganligi sababli, ko'pchilik bu yerda ibodat qilish ibodatning ijobat bo'lish ehtimoli ko'proq

ekanligini anglatadi. Ba'zi ziyoratgohlar va joylar o'zlarining daromadlari uchun butunlay turizmning ushbu ta'sirchan kuchiga tayanadilar. Bu, o'z navbatida, atrofdagi hududlarga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Sayyohlar mehmonxona va restoranlarni ijara oladi. Gid (yo'l boshlovchi)lar, qo'lda esdalik sovg'alarini yasaydiganlar, fotosuratchilar va boshqalar uchun ish o'rirlari yaratiladi.

Biroq, taniqli olim Vukonichning so'zlariga ko'ra, diniy sayohatning iqtisodiy jihatlari din-turizm atamasiga nisbatan eng kam o'rganilgan mavzu bo'lib, tadqiqotchilarni faqat bitta muqaddas joy ko'rib chiqilayotganda qiziqtiradi. Diniy ziyorat ziyoratchilar tashrif buyuradigan hududlarda iqtisodiy generator vazifasini bajarib kelgan, chunki xizmatlar ularning ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqilgan. Bu bugungi kunda ham xuddi shunday. Chunki ko'p joylarda diniy joylar asosiy turistik diqqatga sazovor joylar bo'lib, ba'zan Santyago-de-Kompostela, Medjugorje, Lourdes va Makka kabilarni o'z ichiga oladi.

Darhaqiqat, turizm nafaqat iqtisodiy rivojlanish hamda yalpi ichki mahsulot hajmining ortishi, balki aholi bandligini ta'minlash, turmush darajasi va sifatini oshirish, yurt farovonligi va taraqqiyoti yuksalishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, har 30 nafar sayyoҳ mamlakat turizmi sohasida bitta, unga turdosh tizimlarda esa ikkita yangi ish o'rnini yaratishga turtki beradi. Ko'pgina mamlakatlar va aholi punktlarida turizm qiyin ahvolda bo'lgan iqtisodiyotni jonlantirish yoki qutqarish yo'lli sifatida ko'rildi, ayniqsa hozirgi turizm prognozlari, yuqorida aytib o'tilganidek, yaqin kelajakda diniy turizm kuchayishini ko'rsatadi. Ziyorat turizmi haqida o'zbek islomshunos olimi B.M. Bobojonov, Markaziy Osiyoda ziyorat ob'ektlarining eng keng tarqalgan turi, bu – “muqaddas qadamjolar” hisoblanishini aytib o'tgan. Surxondaryo viloyatlari tarixiy obyektlarini me'morchilik, arxitektura nuqtai nazaridan o'rgangan olim I. Azimovning tadqiqotida ko'zga tashlanadi.

Tasavvuf namoyondalarining qadamjolari va ziyoratgohlari to'g'risida A. Mamanazarov, B. Sattorov, Poslavskaya.O, S. Jo'rayeva ham ziyorat turizmi tarixiga atroflicha to'xtalib o'tgan. O'zbekiston hududida ziyoratgohlar

masalasini o'rganishda ziyoratgoh nomi bilan bog'liq shaxsni personifikatsiya (avliyo, pir, said, xo'ja) maqomi va darajasini tadqiq qilish ham muhim sanaladi. T. Dadabayev, E. Karimov tadqiqotlarida ham ziyorat masalasining turli jihatlari yuzasidan fikr-mulohazalar keltirilgan. Jumladan, D. Abramson va E. Karimov hammuallifligida yozilgan maqolada, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida ziyoratning ahamiyati, turli davrlarda unga bo'lgan munosabat tahlil qilinadi. Va bu shunchaki sayohat emas, bu o'zligingni anglash uchun imkoniyat, ruhiy poklanishga umid, duo va istaklar ijobatini tilash, iymonga eltuvchi yo'l.

Ziyorat bu – o'tgan avliyolar orqali Qodir Tangriga murojaat qilish, ongi va ruhini tinchlantirish, muqaddaslik haqiqatini anglash, yolg'izlik va poklanish yo'lidan o'tish. Markaziy Osiyoda buni Ziyorat deb atashadi, bu muqaddas joylarga tashrif buyurishni anglatadi. O'zbekiston har doim ko'plab madaniyatlar va sivilizatsiyalarning kesishish markazi bo'lib kelgan, bu yerda turli dinlar targ'ib qilingan, shuning uchun ham islom, ham buddizm va xristian dinlariga tegishli noyob yodgorliklar saqlanib qolgan.

Darhaqiqat, O'zbekiston turistik resurslarning boyligi bilan ajralib turadi. O'zbekistonda diniy turizm, ya'ni aziz qadamjolarni ziyorat qilish maskanlari yetarlicha topiladi. Jumladan, Markaziy Osiyoda, qolaversa O'zbekistonda ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari ko'p. Ko'pgina avliyolarning dafn etilgan joylari va qabrlari qaytadan ta'mirlanib, asl holatiga keltirilmoqda. Ular qatoriga Bahoviddin Naqshbandiy, G'ijduvoniy, Imom al-Buxoriy, Mahtumi A'zam, Shohizinda, Motirudiy, Hakim at-Termizi, Zangiota kabi aziz avliyolar va imomlar maqbaralari musulmon ahlining beqiyos, go'zal ziyorat qiladigan va ma'naviy ruhlanadigan joylariga aylantirildi. Ayniqsa, Imom Al-Buxoriy majmuasini muhim ziyoratgohga aylantirish xalqaro ahamiyatga egadir. Chunki, bu ziyoratgoh musulmon olamida Makka va Madina shaharlaridan keyin eng muhim sajdagoh hisoblanadi.

Shu sababli ziyorat qilish uchun qulay shart - sharoit yaratish, ya'ni infratuzilmani shakllantirish bugungi kunning muhim masalasi hisolanadi. Bu yerda asosiy vazifa xorij mamlakatlar fuqarolarining ortiqcha qiyinchiliklarsiz

ziyorat qilib ketishlariga erishishimizdir. Mustaqallik yillarida diniy qadamjolarga davlat tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Buyuk ajdodlarimiz qo'nim topgan maskanlarni qayta tiklash, obodonlashtirish, ta'mirlashga jiddiy e'tibor bergenligi tufayli ziyoratgoh maskanlar 1.5 mld musulmon dunyosini o'ziga tortmoqda.

Hozirgi kunda ziyorat turizmini rivojlantirishni asosiy maqsad qilib olgan ekanmiz avvalo mamlakatimizda diniy turizmni hududiy tashkil etish va rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Xususan, Janubi – Sharqiy Osiyo va G'arbiy Osiyo mamlakatlari ziyoratchilarni jalb etish maqsadida jozibador infratuzilmalar ishlab chiqishimiz kerak. Buning uchun har bir viloyat, tuman va qishloqlardagi kishilar tomonidan muqaddas hisoblanib kelinayotgan ziyoratgohlarni aniqlash, umumlashtirish, respublika va viloyat diniy turistik kartalarini yaratish hamda ziyoratchilarga zarur sharoitlar yaratish, transport imkoniyatlarni o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Diniy ziyoratgohlar kam mablag' hisobiga katta daromad manbaiga aylanishi shubhasiz. Mamlakatimizning barcha viloyatlaridan o'nlab, yuzlab diniy qadamjolar mavjud.

Islom dunyosida katta xizmat qilagan, avliyo darajasiga ko'tarilgan siymolarimiz abadiy qo'nim topgan maskanlarini faqatgina mahalliy darajada, ya'ni tuman yoki viloyat miqiyosidagi bilamiz, xolos. Binobarin, bunday muqaddas ziyoratgohlarni respublika va xalqaro darajadagi diniy ziyoratgoh obektlariga aylantirish mumkin. Shu bilan birga, respublika hududidagi yirik ziyorat obyektlariga olib boruvchi yo'naliishli avtotransport qatnovi tizimini yo'lga qo'yish, hududdagi aholini boshqa hududga tashkillashtirilgan sayyohat qilishlari uchun transport qatnovlarini yo'lga quyilishi ta'minlanadi.

Bundan tashqari, mamlakatimizda joylashgan islom madaniyati va tarixi bilan bog'liq madaniy meros ob'ektlari Islom hamkorlik tashkilotining Islom madaniy merosi ro'yxatiga kiritish chorralari amalga oshiriladi. Ichki va tashqi sayyohlikni keng yo'lga qo'yish, respublikada turizm sohasini modernizatsiyalash, sohani barqaror rivojlantirish, turizm markazlari hisoblangan hududlarda turistik, maishiy va aloqa-axborot infratuzilmalarini rivojlantirish, mahalliy va xorijiy mehmonlarga xalqaro standartlarga muvofiq xizmatlar

ko'rsatishga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash joizki, bu boradagi belgilangan tadbirlarni amalga oshirish, yurtimizda turizm sohasini rivojlantirish birinchi navbatda dunyo hamjamiyatida O'zbekistonning mavqeini mustahkamlaydi, xorijiy investorlar uchun yangi imkoniyatlar va ishonchli hamkorlik eshiklarini ochadi, mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlari barqarorligiga, aholi daromadlari, bandligi va tadbirkorligi kabi ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga omil bo'lib, xizmatlar sohasining yana-da takomillashuviga sabab bo'ladi.

Hozirgi kunda tez suratlarda ommalashib borayotgan turizm sohasi hisoblangan ziyorat turizmini rivojlantirish mazkur sohada yuqori salohiyatga ega davlatlar uchun qulay imkoniyatdir. Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlardan va misollardan shunday xulosaga kelish mumkinki, mamlakatning har bir a'zosi, shu jumladan tashqi davlatlar ham amal qilishi kerak bo'lgan ziyorat turizmini barqaror rivojlantirish uchun muhim siyosat va strategiyalarni ishlab chiqish zarur. Bundan tashqari, xorijiy sayyoohlarni jalb qila oladigan infratuzilmani yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Barqaror rivojlanishni amalga oshirish uchun ham hukumat, ham mahalliy idoralar tomonidan muvofiqlashtirilishi kerak.

O'zbekiston har doim ko'plab madaniyatlar va sivilizatsiyalarning kesishish markazi bo'lib kelgan, bu yerda turli dinlar targ'ib qilingan, shuning uchun ham islom, ham buddizm va xristian dinlariga tegishli noyob yodgorliklar saqlanib qolgan. O'zbekiston hududida boshqa dinlar singari islom madaniyati va uning so'fiylik oqimiga oid ko'plab muqaddas joylar mavjud. Eng qimmatbaho yodgorliklar YUNESKOning Butunjahon merosi obyektlari sifatida tan olingan. Ular orasida Islom olamida Muborak Buxoro ma'nosini anglatuvchi Buxoroyi-Sharif deb nomlangan Buxoro shahri.

Ko'plab bebafo yodgorliklarga ega Samarqand shahri. Amir Temurning vatani hisoblanmish Shahrisabz shahri. Albatta, bu shaharlar qadimiy va boy tarixga ega bo'lib, butun hayoti davomida jiddiy o'zgarishlarga duch keldi. Mangulik, abadiylik g'oyasi ushbu shaharlar bilan bog'liqdir. Muhammad payg'ambarning tarjimai hollarida bir voqeа bor. Payg'ambar me'roj qiladi.

Uning samoviy oti bor edi va u o'sha otta osmonga ko'tariladi. Avval Quddusga, so'ngra Makkaga tashrif buyuradi. Makkaga qarab, quyosh nurlari butun dunyoni yoritayotganini ko'radi. Keyin u yer yuzida faqat ikkita nuqtani ko'radi, bu nurlar pastdan yuqoriga ko'tarildi. Bu nurlar Buxoro va Samarqand edi. Turizm qadimgi davrlarda paydo bo'lgan.

Qadim zamonlarda odamlar dunyoni o'rganish, turli diniy maqsadlar uchun yangi hududlarni kashf qilish uchun turli sayohatlarga borishgan. Albatta, odamlar kelganda, ularni biror joyga joylashtirish, ular uchun ovqat tashkil qilish kerak edi. Tabiiyki, mahalliy aholi yordamga keldi. O'sha paytda tavernalar, fohishaxonalar mashhur joylarga aylandi. Qadimda turizmnинг asosiy maqsadi savdo aloqalari va Olimpiya o'yinlari edi. Savdoning rivojlanishi bilan shahar va qishloqlar infratuzilmasi rivojlandi. Yo'llar, mehmonxonalar va tavernalar qurish kerak edi. O'sha kunlardagi eng mashhur tavernalar hashamat jihatidan mamlakatdagi eng boy odamlarning saroylaridan qolishmas edi.

Sharqda tuyalar sayohat qilgan. Sayohatchilar chodirlarda, karvonsaroylarda tunab qolishgan. To'g'ri, xizmatlar va texnik xizmat ko'rsatish darajasi Yevropaga qaraganda ancha yuqori edi. Bu, birinchi navbatda, sharqda savdoning Yevropaga qaraganda ancha rivojlanganligi bilan bog'liq. O'rta asrlarda turizmni rivojlantirish uchun eng kuchli turkini nasroniy va musulmon ziyoratgohlariga shoshilgan ziyoratchilar bergen.

Mamlakatlarning yosh aholisi har doim o'z vatanlarida kasbga kirishdan oldin Yevropada yashash uchun eng yaxshi joyni qidirgan. Yevropalik boylar Avstriya, Germaniya, Gretsiya va Italiya kurortlarida sayohat qilishni va dam olishni yaxshi ko'rardilar. Ommaviy turizm sanoatning rivojlanishiga turtki berdi. O'sha paytda odamlarga pullik ta'til berila boshlandi. Aytilganlardan tashqari, ommaviy turizm yo'l va transport rivojiga katta turtki berdi. Paroxod va parovoz kabi transport turi paydo bo'la boshladи. Birinchi yuqori haq to'lanadigan mehmonxonalar Shveytsariya va Germaniyada paydo bo'ldi va XX-asrning ikkinchi yarmida sayyoqlik agentliklari paydo bo'ldi.

Sayyohlik agentliklari Yevropa bo'ylab turistik sayohatlar uyshtirdilar va ularni iste'molchiga sotdilar. Shu bilan birga, Germaniya va SSSRda sport turizmi va ommaviy dam olish rivojlanmoqda. XX-asrning 40-yillardagi harbiy harakatlar Yevropa turizmining rivojlanishida o'z o'zgarishlarini amalga oshirdi. Rivojlanishning yangi bosqichi boshlandi. 1950-yillardan boshlab sayyohlik kompaniyalari "qo'ziqorin kabi o'sib bordi", mehmonxonalar va ko'ngilochar muassasalarning ommaviy qurilishi boshlandi. Asosan, yevropaliklar amerikalik sayyohga e'tibor qaratdilar va 70-yillardan boshlab Yevropada chiqish turizmi allaqachon rivojlandi. 1980-yillarda turizm odamlar uchun hayot tarziga aylana boshladi. Xizmat turlari kengayib, individual turlar, ekologik turizm turlari paydo bo'ladi.

### **1.3. Ziyorat turizmini rivojlantirishda xalqaro tajriba**

Bugungi kunda turizm iqtisodiyotni eng tez rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy omillardan bo'lib, u transport, oziq-ovqat, mehmonxona, savdo-sotiq, hunarmandchilik, qurilish va boshqa xizmat turlarini rivojlanishiga olib keladi. Bundan tashqari, mamlakat tashqi qiyofasini zamonaviylashtirishga, mehmonxona va restoran industriyasini rivojlantirishga hamda transport-kommunikatsiya tizimlari kabi tarmoqlar o'rtaсидаги aloqalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Turizmning global rivojlanishi dunyo mamlakatlarini yaqinlashtirib, ularning o'zaro munosabatlarini faollashtirishda eng ishonchli va eng mustahkam tizimdir. Turizm rivojlanishi deyarli barcha sohalarga ijobjiy ta'sir ko'rsatib, mamlakat iqtisodiyotining dinamik tarzda o'sishiga olib keladi. Shuningdek, sohaga kiritilayotgan sarmoya qisqa fursatda o'zini oqlashi, turistik kompaniyalar imkoniyatlari kengayishi hamda yuqori foyda olish mumkinligi sohaga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuning uchun, ko'pgina davlatlar va tadbirkorlar turizmni rivojlantirishga katta e'tibor bermoqdalar.

Turizmning an'anaviy yo'nalishlardan biri bo'lgan ziyorat turizmi hozirda katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, musulmon xalqlarning tez sur'atlarda

ko'payib borishi hamda ularning daromadlarining doimiy o'sib borayotganligi halol turizmning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shuning uchun ushbu sayohat yo'nalishlarini tashkil etishga nafaqat musulmon davlatlarida balki dunyoning turizm rivojlangan qator davlatlarida ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Saudiya Arabiston, Turkiya, Misr, Malayziya kabi musulmon mamlakatlarida halol turizmni ommalashtirish uchun keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, AQSh, Germaniya, Angliya, Frantsiya, Ispaniya va boshqa qator davlatlarida ham halol turizm standartlariga mos turlar jadal rivojlanib bormoqda.

Xalqaro turizm tajribasi Dubay misolidha ko'rishimiz mumkin:

1966 yilda neftning topilishi hozirgi Dubayning rivojlanishiga turtki berdi, biroq Shayx Rashid bin Said Al Maktum (1958 yildan 1990 yilgacha hukmdor) bir kun kelib Dubayda neft tugashini tushundi va undan uzoq davom etadigan iqtisodiyot qurishni boshladi. Shayx Rashidga xos bo'lgan iqtibos uning 1966-yilda topilgan va 1969-yilda ishlab chiqarila boshlagan Dubay nefti bir necha avloddan keyin tugab qolishi haqidagi xavotirini aks ettiradi. Shayx Rashid: "Mening bobom tuyada, otam tuyada, men mersedes, o'g'lim Land Rover, uning o'g'li Land Rover, o'g'li esa tuya minadi", degan. Shayx Rashid shaharning savdo tarixiga asoslanib, Dubay iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish kerakligini erta angladi va shu sababli Dubayni mintaqaning savdo va xizmat ko'rsatish markazi sifatida tashkil etishga kirishdi. 1979 yilga kelib, u butun Birlashgan Arab Amirliklari uchun mantiqiy yuk tashish markazi va dunyodagi eng yirik sun'iy portga aylangan Jebel Ali portini barpo etishda muvaffaqiyat qozondi. Shuningdek, u Dubay xalqaro aeroportini yangiladi va o'sha paytda Yaqin Sharqdagi eng baland bino bo'lgan Dubay Jahon savdo markazini qurdi. 1970-yillarning oxiriga kelib, Dubay iqtisodiyotini neftdan uzoqlashtirib, turizm kabi boshqa sohalarga diversifikatsiya qilish uchun zamin yaratildi.

1989 yilda Dubayni yuqori darajadagi bozor va nufuzli biznes sektorlari uchun hashamatli manzil sifatida targ'ib qilish uchun Dubay savdo va turizmni

rivojlantirish kengashi tashkil etildi. 1997 yil yanvar oyida u Turizm va tijorat marketingi departamenti (DTCM) bilan almashтирildи.

2013 yil may oyida Dubay hukumati 2020 yilga borib yiliga 20 million sayyohni jalg qilish va Dubayni xalqaro dam olish sayohatchilar hamda biznes sayohatchilar uchun birinchi tanlov joyiga aylantirishdan iborat asosiy maqsad bo‘lgan Dubay turizm strategiyasini 2020 yilga boshladi. 2018-yilda strategiya 2022-yilda 21-23 million va 2025-yilga kelib 23-25 million tashrif buyuruvchini jalg qilish bo‘yicha yangi maqsadlarni belgilash orqali kengaytirildi. 2013 va 2018 yillardagi asosiy maqsadlar COVID-19 pandemiyasi tufayli bajarilmadi.

Turizm industriyasini saqlab qolish zarurati Dubayning COVID-19 pandemiyasiga munosabatiga to’sqinlik qildi. COVID-19 bilan bir qatorda Dubayning turizm sektori ham amirlikdagi inson huquqlari holati va xususan, malika Latifa bint Muhammad Al Maktumga nisbatan munosabat haqida ko‘proq xalqaro xabardorlik tufayli zarar ko‘rdi.

2022-yil noyabr oyida Shayx Muhammad bin Rashid 2031-yilgacha bo‘lgan milliy turizm strategiyasini e’lon qildi. Strategiyadan maqsad qo‘sishimcha 100 milliard Dh turizm investitsiyalarini jalg qilish (shunday qilib turizm sektorining hissasi 2031-yilda DUBay yalpi ichki mahsulotining 450 milliard dollarini tashkil etadi) va undan 40 milliard dollar olishdir. 2031 yilda million mehmonxona mehmonlari. Strategiya mamlakatda turizm sektorini rivojlantirishni qo’llab-quvvatlashga qaratilgan 25 tashabbus va siyosatni o’z ichiga oladi.

Germaniya turizmi: Germaniya—dunyodagi eng ko‘p sayyoohlар tashrif buyuruvchi davlat bo‘lib, dunyoda sakkizinchи o‘rinni egallaydi. Yiliga o‘rtacha 407,26 kishini qabul qiladi. 2009-yilda chet ellik sayyoohlarning ko‘pchiligi Gollandiya, Buyuk Britaniya va Shvetsariyadan kelgan. Bundan tashqari, nemislarning 30 % dan ortig‘i ta’tilni o‘z mamlakatlarda o‘tkazadi. Buning natijasida mamlakatda ichki turizm ham ijobiy natija qayd etgan. Sayohat va turizm raqobatbardoshligi hisobotlariga ko‘ra, Germaniya 2017-yilgi hisobotda 136 mamlakat ichida 3-o‘rinni egalladi va dunyodagi eng xavfsiz sayohat yo‘nalishlaridan biri sifatida baholandi.

2012-yilda 30 dan ortiq mamlakatdan Germaniyaga millionlab xalqaro sayyoohlar kelib, xalqaro turizm daromadlari ko‘paydi. Mahalliy va xalqaro sayohat birlashib, 2 million ish o‘rni (jami bandlikning 4,8 %) yaratildi. Berlin dunyodagi yetakchi sayyoohlik markaziga aylandi. So‘rovlarga ko‘ra, sayyoohlarning Germaniyaga kelishining asosiy uchta sababi — nemis madaniyati, toza, musaffo ob-havo va nemis qishloqlariga sayohat edi. Turkiya turizm salohiyati. Turizm Turkiya iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, so‘nggi o‘n yilliklarda tobora muhim rol o‘ynamoqda. Unda ikki millionga yaqin kishi ishlaydi (510 ming bevosita, yana 1,5 millioni turdosh tarmoqlarda).

Mamlakat mashhur sayyoohlik yo‘nalishlari ro‘yxatida dunyoda oltinchi o‘rinni egallaydi.

Turkiyada ushbu xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish uchun barcha shartsharoitlar mavjud: uni to‘rtta dengiz (O‘rta yer dengizi, Egey, Marmara va Qora) yuvib turadi, sohilida subtropik O‘rta yer dengizi iqlimi (sohil chizig‘i uzunligi 7200 km, 355 ta plyaj mavjud); 700 ming o‘ringa mo‘ljallangan 2870 ta mehmonxona, termal buloqlar soni bo‘yicha Yevropada ikkinchi va dunyoda yettinchi o‘rinda turadi (1300 ta), ko‘plab diqqatga sazovor joylarga ega (qadimgi Yunoniston va Rim shaharlari, xarobalari, jumladanafsonaviy Troya, Vizantiya va Usmonli imperiyalari davridagi yodgorliklar).

Turkiya Misr bilan birga diqqatga sazovor joylardagi baxtsiz hodisalar soni bo‘yicha yetakchi hisoblanadi.

Turkiya va O’zbekiston turizm munosabatlari. Turkiya Tashqi ishlar vaziri Mevlut Chovusho’g‘li 6-mart kuni O’zbekistonga boshlagan safari asnosida Xiva, Urganch va Buxoroni borib ko‘rdi, ertasi kuni Samarqandda Turkiya bosh konsulligining ochilish marosimida ishtirok etdi. 9-mart kuni esa Toshkentda O’zbekiston Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov bilan uchrashib, ikki tomonlama aloqlarni yanada rivojlantirish masalalarini muhokoma qildi. Shu kuni turkiyalik vazirni O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qabul qildi.

O’zbekistonning avvalgi prezidenti Islom Karimov davrida turg’unlikka uchragan O’zbekiston – Turkiya munosabatlari Shavkat Mirziyoyev davriga kelib yaxshilana boshladi. O’zbekiston-Turkiya strategik hamkorlik kengashining birinchi majlisi 2020-yil Mirziyoyevning Turkiyaga safari davomida o’tkazilgan edi. Bu kengashning ikkinchi majlisiga hozirlik ko’rilib yotgani haqida xabarlar bor.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yildagi Oliy Majlisga Murojaatida “Turizmni rivojlantirish bo’yicha 2021 yilda ham izchil islohotlarni davom ettiramiz. Ayniqsa, ziyorat turizmi va ichki turizmni rivojlantirishga alohida e’tibor beriladi”<sup>1</sup>, deb ta’kidlashi islohotlarning yangi bosqichga chiqqanligini ko’rsatadi. Hukumatlar ichki turizmdan mahalliy qashshoqlikni bartaraf etishda, bandlikni va iqtisodiy o’sishni ta’minlashda, infratuzilmani modernizatsiyalashda va narx imtiyozlari orqali turizm daromadlarini oshirishda, mavsumiylikni manzilli boshqarishda, turistlarni jalb etishdagi tafovutlarni bartaraf etishda foydalanadi. Oxirgi yillarda, Surxondaryo viloyatida ichki turizmda ishtirok etuvchilar soni statistik ma’lumotlar bo’yicha o’sish tendensiyasiga ega bo’lsa, viloyatdagi turistik tashkilotlar tomonidan xizmat ko’rsatilganlar ulushi aksincha, pasayib borayotganligini ko’ramiz (1.3.1 jadval).

### 1.3.1 jadval

#### **Surxondaryo viloyatida ichki turizm rivojlanishining asosiy ko’rsatkichlari (2011-2022 yillar)<sup>2</sup>**

Yillar	Ichki turizm soni*) ming kishi	Xizmat ko’rsatilgan (joylashtirilgan) tashrif buyuruvchilar, kishi				
		Jami (ming kishi)	Turfirmalar	Mehmonxona va ShO’JV	Sanatoriya kurort muassasalar	Dam olish muassasalari va bazalari
2011	----	51,78	875	24109	2756	24045
2012	----	42,32	490	29470	3051	9307

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ички туризмни жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида” 2018 йил 7 февралдаги ПК-3514-сонли Қарори

<sup>2</sup> Surxondaryo viloyati hududiy Statistika boshqarmasi ma’lumotlari

2013	----	55,81	192	25126	5406	25113
2014	----	56,01	2670	17082	7249	29010
2015	----	73,77	1176	32916	6822	32875
2016	----	90,86	1327	39780	6924	42833
2017	5521,9	103,60	2073	46188	7473	47870
2018	6356,8	113,60	2593	47923	7087	55900
2019	6631,1	82,60	3062	57491	14086	57938
2020	6631,1	19,60	2160	12568	14074	7422
2021	6642,2	32,538	3960	23731		4619
2022	6642,2	40,53	4279	30570		6528

So'nggi besh yil ichida barcha global ish o'rinlarining 5 tadan bittasi aynan turizm sohasida yaratilgan. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, keyingi 10 yil ichida dunyo bo'yicha turizm sohasida 100 million qo'shimcha ish joylari yaratilishi kutilmoqda. Bu keyingi o'n yillikda har to'rtta yangi ish joyidan bittasi turizm sektori tomonidan yaratilishini anglatadi. Turizm sohasidagi ishlar ayniqsa ayollar, yoshlar va boshqa jamiyatning cheklangan qatlamlari bandligini oshirishga xizmat qiladi. Turizm iqtisodiyoti uchun juda muhim bo'lgan mamlakatlarda ish o'rinlarini yaratishda asosiy manba sifatida qaralmoqda.

Yuzaga kelgan COVID-19 pandemiyasi oqibatida turizm sohasi ham “2022-2021 yillarda 2020 yilga nisbatan 4 foizga o'sganligi, jahon turizmining bevosita yalpi mahsuloti 19 foizga oshib 1,9 trillion dollarga yetganligiga qaramasdan, COVID-19 pandemiyasidan oldingi davrga nisbatan 72 foizga pastligicha qolayotganligi”<sup>1</sup>

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “turizm industriyasini jadal rivojlantirish, yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish”<sup>2</sup> vazifasi qo'yilgan. Turizmni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish orqali jahondagi yirik mintaqalar yalpi hududiy

<sup>1</sup> [www.unwto.org/unwto-tourism-news-fitrur-edition-2022](http://www.unwto.org/unwto-tourism-news-fitrur-edition-2022)

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида» ги Фармони \\\www.lex.uz

mahsulotida turizm xizmatlarining ulushini oshirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatmoqda.

So'ngi yillarda, Respublikamizda, xususan viloyatlardagi mavjud ziyorat maskanlariga turizmni rivojlantirish orqali xorijlik turistlar oqimini ko'paytirish, ichki turizmga mahalliy aholini kengroq jalb qilish, turizm xizmatlari eksportini oshirish, yangi ish o'rinalarini yaratish, turistik resurslardan maqsadli foydalangan holda xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirimoqda. 2016 yilda ichki turizm safarlarining 1,9 foiziga turizm xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, 2020 yilda bu ko'rsatkich 0,3 foizni tashkil etgan.

Ohirgi yillarda Surxondaryo viloyatda, turizm infstrukturasini yaxshlash hisobiga xorijiy turistlarning ziyorat maqsadida tashrif buyuruvchilari soni yildan yilga ortib bormoqda, ayniqsa 2021 yilda tashrif buyuruvchilar soni keskin darajada oshgan<sup>1</sup> (1.3.2 jadval).

**1.3.2 jadval**  
**Surxondaryo viloyatida xalqaro turizmning asosiy ko'rsatkichlari**  
**(2010-2021 yillar)<sup>2</sup>**


Yillar	Xalqaro turizm tashriflari soni	Xizmat ko'rsatilgan (joylashtirilgan) tashrif buyuruvchilar, kishi			
		Jami (ming kishi)	Mehmonxona va ShO'JV	Sanatoriya kurort muassasalar	Dam olish muassasalari va bazalari
2010	6320	4964	4964		
2011	7410	5093	5093		
2012	9327	7792	7792		
2013	8389	4192	4162	36	
2014	9554	8701	8633	41	
2015	7465	7451	7363	46	
2016	8052	7408	7884	84	2
2017	9754	7585	7463	116	

<sup>1</sup> Surxondaryo viloyatida xalqaro turizmning asosiy ko'rsatkichlari

<sup>2</sup> Surxondaryo viloyati hududiy Statistika boshqarmasi ma'lumotlari-2022

2018	32050	21197	19893	184	
2019	119756	13297	13026	204	
2020	9242	6823	6822		
2021	190196	91 894	24254		7

Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurgan xorijiy turistlar touristik firmalar xizmatlaridan foydalanishmagan, ular faqat joylashtirish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar xizmatlaridan foydalanganligni ko'rshimiz mumkin. Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlariida 2010 yilda turoperatorlik va ekskursiya faoliyatini amalga oshiradigan tashkilotlar tomonidan 875 kishiga xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, 2021 yilda 4279 kishiga xizmat ko'rsatilganligini ko'rshimiz mumkin<sup>1</sup>.



### 1.3.1-rasm. Turizm daromadi bo'yicha eng tez o'sayotgan 20 ta mamlakat, 2017-2018 y, foizda<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Surxondaryo viloyatida xalqaro turizmnинг асосиyo ko'rsatkichlari (2010-2021 yillar)

<sup>2</sup> Манба: Travel & Tourism Economic Impact 2019. P.6.

Travel & Tourism Economic Impact (turizm xizmatlari statistika) si ma'lumotlariga ko'ra, jahonda ziyorat turizmi sohasida eng katta ulush Osiyo mamlakatlariga tegishli. 2020 yilda ularning jami xarajatlari \$29,6 milliardni tashkil etgan. Bunda eng faol sayyoohlar Indoneziya, Xitoy va Malayziya sayohlari sanaladi. Ularning xarajatlari musulmon mamlakatlari orasida turizm sohasidagi xarajatlarning umumiyligi hajmining 17 foizni tashkil etadi. Jahon bozorida ziyorat turizmining 80 foizi 19 ta mamlakatga to'g'ri keladi. Bu faqat musulmon mintaqalarinigina emas, balki qator turizm rivojlangan mamlakatlarni qamrab oladi. 2019 yilda ziyorat turizmi tufayli ushbu mamlakatlarning YaIM dagi turizmning ulushi 148 milliard dollarni, bu sohadagi aholining bandligi esa 4,7 million kishini tashkil etgani keltirilgan<sup>1</sup>.

Hozirgi kunda qadimiy obidalar, muqaddas ziyoratgohlar, tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan bir qatorda, betakror madaniyati va an'analari, xushmanzara tabiat hamda fayzli go'shalari bilan sayyoohlarni o'ziga jalb etayotgan O'zbekiston turizm industriyasini hamda infratuzilmasi yanada rivojlanmoqda.

Buni JAHON SAYOHALAR VA TURIZM KENGASHI (WTTC) tomonidan turizm sanoatining iqtisodiy natijalari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda O'zbekiston turizm sohasi jadal taraqqiy topayotgan besh davlatning biri sifatida qayd etilgani misolida yaqqol ko'rish mumkin. 2025 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlariga ko'ra, O'zbekistonga tashrif buyuradigan xorijiy sayyoohlarning sonini 2025 yilda 9 089,3 ming kishiga etkazish (2019 yilda 6 750 ming kishini tashkil etgan), turistik xizmatlar eksportinining hajmini 2019 yilgi 1 313 million AQSh dollardan 2025 yilda 2 232,8 million AQSh dollariga etkazish ko'zda tutilgan<sup>2</sup>.

### I bob bo'yicha xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, turizm xususan, ziyorat turizmi tushunchasi xalqimiz ongidan keng o'rinni olmoqda. Olimlarimiz tomonidan

---

<sup>1</sup> Travel & Tourism Economic Impact (turizm xizmatlari statistika)2020. b. 25

<sup>2</sup> Tourism in Uzbekistan-2018.

turizmning ushbu turiga turli ta’riflar berilib uning ma’no-mazmuni olib berildi. Shu sababdan turizm va uning muhim yo’nalishlaridan biri bo’lgan ziyorat turizmini rivojlantirish va uni jahon miqyosiga olib chiqish maqsadida Prezidentimizning tegishli farmon va qarorlari e’lon qilinmoqda. Shu asosda ziyorat turizmini rivojlantirish, xorijiy tajribani o’rganish maqsadida turli xalqaro tadbirlar, ilmiy seminar va konferentsiyalar tashkil etilmoqda.

Xorijiy mamlakatlarning turistik tashkilotlari bilan keng qamrovli hamkorlik aloqalari yo’lga qo'yilmoqda. Turizmning keng tarqalayotgan “ziyorat turizmi” turi oxirgi yillarda ko’pchilik insonlarda qiziqish paydo qilmoqda. Bu esa o’z navbatida O’zbekistonga, xususan, viloyatimizdagi ziyorat turizmi ob’ektlariga ziyorat qilish uchun kelayotgan ziyoratchilar sonining sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Har bir davlatning rivojlanish tarixiga nazar soladigan bo’lsak, albatta turizm bilan bog’liq bo’ladi. Har bir davlat o’z yurtini butun dunyoga tanitish uchun ham o’zining turizm sohasini yetarli ehtiyojlar bilan ta’minlaydi.

Turizmning qadimgi davrlardan buyon to hozirgacha rivojlanib kelayotganiga amin bo’ldik. Shunday ekan, biz qanday sohaga qiziqishimizdan qat’iy nazar turizm sohasi bilan o’zimizning hayotiy faoliyatimizni bog’lashimiz zarur. Oxirgi 3-4 yildan buyon turizm sohasiga qaratilayotgan e’tibor juda ham katta. Bu sohaga kirib kelgan inson hech qachon uni tark eta olmaydi. O’z rivoji uchun sarmoya kiritgan har bir davlat kelgusi yillarda rivojlangan davlatlar orasida eng yuqori darajani egallaydi. Biz ham o’z ajdodlarimizdan qolgan merosni butun dunyoga tanitishimiz lozim.

Bugungi kunda hukumat tomonidan turizm sohasini modernizatsiya qilish, davlatda transport va mehmonxona infrastrukturasini yaxshilash, hamda turizmda normativ huquqiy bazani mukammallashtirish sohalarida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Xalqimiz azaldan vatanimizdagi barcha ziyoratgohlarni aziz va muqaddas deb bilib kelishadi.

O’zbekistonda ziyorat qilinadigan joylarga sayyohatchilarni jalb qilish va turizmning bu turini rivojlantirish uchun malakatimiz yuqori salohiyatga ega. Mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirishda xalqimizdagi ushbu

ziyoratgohlarga bo'lgan hurmati va boshqa xususiyatlarini e'tiborga olishimiz va foydalanishimiz lozim. Shuning uchun ham ziyorat turizmini nafaqat ichki balki xalqaro darajada rivojlantirishda har bir viloyatlardagi va har bir tumanlardagi ziyoratgohlarning ro'yxatini, manzilini va ziyorat qilish xususiyatlari haqidagi axborot ma'lumotlarni puxta ishlab chiqishi talab qilinadi.

Shuningdek, tadqiqotchilar O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish va Quvayt, Qatar, Oman, Saudiya Arabiston, Indoneziya, Malayziya, Turkiya, Pokiston, Eron kabi davlatlardan musulmon xalqlarini O'zbekistonga jalg qilish bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar.

Ta'kidlash joizki, 2020-yilning 9-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida turizm va sport sohalarida amalga oshirilayotgan ishlar hamda kelgusi yildagi vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan videoelektor yig'ilishida ziyorat turizmini rivojlantirishga doir vazifalar belgilab berildi.

2021-yil 9-fevralda Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Unda qulay ichki va xalqaro ziyorat turizm muhitini yaratish, yurtimizning ziyorat turizm salohiyatini keng targ'ib qilish hamda mamlakatimizning sayohat va dam olish uchun xavfsiz manzil sifatidagi imijini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilingan.

Joriy yilda viloyatlar kesimida ziyoratgohlarning targ'iboti uchun jami 1,1 milliard so'm, xorijiy davlatlarda mamlakatimizning ziyorat turizm salohiyatini targ'ib qilish uchun 6 milliard so'm mablag' ajratildi. Shuningdek, qator yangi mahalliy va xorijiy yo'naliishlarda aviaparvozlar va temir yo'l qatnovlarini yo'lga qo'yish rejalashtirildi. Xalqaro turizm global turizm industriyasining eng muhim tarkibiy qismi va milliy valyuta daromadlarini olib keladigan tarmoq sifatida muhim qiziqish uyg'otmoqda.

Jahon iqtisodiyotining rivojlanishi, xalqaro savdoning kengayishi, transport, aloqa, to'lov vositalarining yaxshilanishi, iqtisodiy ehtiyojlar tufayli fuqarolarning kelishuvlari va sayohatlari soni va xilma-xilligi oshmoqda. Madaniyat, fan, ta'lim

darajasini ko'tarish nafaqat iqtisodiy, balki madaniy, siyosiy, sog'liqni saqlash va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan xalqaro sayohatlarning o'sishiga yordam beradi.

## **II bob. O'ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJLASHI HOLATINING IQTISODIY TAHLILI**

### **2.1. Respublikamizda turizm rivojlanishining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili**

Turizm qadim zamonlardan boshlab sayyoramiz xalqlari o'rtasida do'stlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilgan. Odamlar yangi o'lkalarni kashf etish, dunyoni ko'rish va bilish savdo-sotiqni rivojlantirish, madaniy va diplomatik aloqalarni o'rnatish maqsadida sayohatga chiqqanlar. Savdo karvonlari yo'llari kesishgan, madaniyatlar va sivilizatsiyalar tutashgan chorrahada joylashgani uchun Markaziy Osiyo mintaqasi bu jarayonda muhim o'rinni tutgan<sup>12</sup>.

Jahon turistik bozoriga xos bo'lgan dam olish va davolanish maskanlariga, dunyo miqyosidagi turli xil turistik ob'ektlarga ega O'zbekiston uchun betakror ahamiyat kasb etadi. Maydoni salkam yarim million kvadrat kilometrni tashkil etuvchi, okean va dengizlardan ancha yiroqda, materik ichkarisida joylashgan O'zbekistonda sayyohlik ob'ektlari qatorida dastavval rekreatsiya resurslari hamda qadimgi tarixiy obidalarga boy Farg'ona va Zarafshon vodiylari, Xorazm vohasi alohida o'rinni egallaydi.

Ushbu davolanish, dam olish maskanlari hamda ommaviy sayilgohlar joylashgan voha va vodiylarda yiliga bir necha o'n-yuz minglab mahalliy aholi hamda yaqin va uzoq xorijdan kelgan insonlar dam oladi, davolanadi, har xil sayyohlik turlari bilan shug'ullanadi. Qadimiy madaniyatlar beshigi bo'lgan, YUNESKO ning butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan, qadimgi davlatchilikning shakllanish va rivojlanish markazlari bo'lib kelgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz shaharlari mintaqada ziyyarat turizmning rivojlanishini ta'minlab kelmoqda.

Aynan ziyyarat turizmi bugungi kunda dunyoda tobora katta qiziqish uyg'otmoqda va butun sayyohlik sohasining eng muhim qadriyatlardan biriga

---

<sup>1</sup> Туризм: Назария ва амалиёт. М.Р.Болтабоев, И.С.Тухлиев, Б.Ш.Сафаров, С.А.Абдухамидов. Тошкент. Иккинчи нашр.2018. Б -46.

aylanmoqda. Dam olish, davolanish, har xil sayyohlik turlari, shu jumladan, ma'rifiy turizm bilan shug'ullanish maqsadida O'zbekistonga rasmiy tarzda kelayotganlar sayyoohlarning soni keyingi bir-ikki yil ichida jadal ko'payib bormoqda. Mamlakatimizga 2022 yilning yanvar-may oylari oralig'ida 668.6 ming nafar dunyoning 70 dan ortiq davlatidan sayyoohlар tashrif buyurdi<sup>1</sup>.

O'zbekistonning tarixi va madaniyati nihoyatda boy va turizm tarmog'inining rivojlanishi uchun yuqori salohiyatga ega. Hudud "Buyuk Ipak yo'li" da joylashganligi bois, tarixda savdo va madaniy aloqalar markazi sifatida dunyo mamlakatlari ichida shuhrat qozongan. Respublika hududida 4000 ga yaqin arxitektura yodgorliklari bo'lib, ularning ba'zilari 2500 yillik tarixga ega. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlardagi tarixiy obidalar dunyo tarixchilari va sayyoohlarning doimo diqqat markazida bo'lib kelgan. Bu shaharlar nafaqat o'zlarining yodgorliklari, masjidlari, madrasalari, maqbaralari bilan, balki bu hududlarda Buxoriy, Moturidiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Termiziyy, Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy, Bobur kabi buyuk allomalarimiz yashab ijod qilganligi bois ham mashhurdir.

O'tgan mustaqillik davri mobaynida O'zbekiston turizm industriyasida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi, mamlakatda turizmnинг rivojlanishi bilan bog'liq siyosiy qarashlar o'zgardi, turizmni rivojlantirish maqsadida 80 ga yaqin me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi va qabul qilindi. Turizmning barcha turlarini rivojlantirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslari ishlab chiqildi va hozirda takomillashtirilmoqda. Shuningdek, kichik turistik majmualarga xorijiy investitsiyalar jalb etilmoqda, yangi turistik yo'naliishlar ochilmoqda, tarmoqni rivojlantirish uchun malakali kadrlar tayyorlanmoqda, tarmoqni va xizmat ko'rsatishni jahon andazalariga mos bo'lishiga harakat qilinmoqda.

Yurtimizda turizm rivojlanishining asosiy omillaridan biri dinlar, millatlar, xalqlar o'rtasidagi tinchlik-totuvlik, bag'rikenglik, o'zaro mehr-oqibat va hamjihatlikning mavjudligidadir. Mamlakatimiz azaldan o'zining ajib va turfa tabiat, boy tarixi, me'moriy obidalari, buyuk allomalari bilan jahon mamlakatlari

---

<sup>1</sup> [www.unwto.org/unwto-tourism-news-fitr-edition-2022](http://www.unwto.org/unwto-tourism-news-fitr-edition-2022)

aholisini o'ziga jalb etib kelgan. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan turizm sohasida aloqalar o'rnatishi va rivojlanishi, yurtimizga turistlar oqimining kirib kelishini ko'paytirish, ularga xizmat ko'rsatish uchun barcha sharoitlarni yaratish, xizmat ko'rsatish sifati va madaniyatini oshirish, turistlar xavfsizligini ta'minlash, turistik industriyani tashkil qilish va rivojlantirish, soha bo'yicha kadrlar tayyorlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar takomillashib bormoqda.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoevning 2021 yil 9 fevralda “O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”<sup>1</sup> gi farmoni qabul qilindi. Unda turizm bozorining turli segmentlariga yo'naltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish, ularning raqobatbardoshligini yanada oshirish, maqbul va qulay ichki va xalqaro ziyorat turizmi muhitini yaratish, transport yo'nalishlarini kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish, turizm mahsulotlarini keng targ'ib qilish, shuningdek, mamlakatimizning sayohat va dam olish uchun xavfsiz manzil sifatidagi imijini mustahkamlashga yo'naltirilgan vazifalar belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagagi “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”<sup>2</sup> gi farmoniga muvofiq, O'zbekiston bo'ylab sayohat qilish uchun xarajatlarning bir qismini qaytarish tartibi joriy qilindi. Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda yurtimizda olib borilayotgan islohotlar natijasi o'laroq O'zbekiston “Jahon musulmon sayyoohlari indeksi” reytingida 10 pog'ona (32-o'rindan 22-o'ringa) ko'tarilib, Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlar o'rtasida

<sup>1</sup> Sh.Mirziyoevning 2021 yil 9 fevralda “O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” farmoni.

<sup>2</sup> Lex.uz. Ўзбекистон Республикаси Президентининг О'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida” Фармони, 03.02.2021 йилдаги ПФ-6155-сон.

musulmon sayyoohlarni jalg qilayotgan “Eng jozibador” hamda “Xavfsizlik va bag'rikenglik darajasi yuqori” bo'lgan 10 mamlakat qatoridan o'ren egalladi<sup>1</sup>.

Jahon sayyoohlilik tashkilotining ma'lum qilishicha, dunyo yalpi ichki mahsuloti hajmining 10 foizi, investitsiyalarning 11 foizdan ortig'i, xalqaro eksportning 7 foizi aynan turizm hissasiga to'g'ri keladi. Xalqaro turizm keltiradigan daromad 1995 yilda 373 milliard AQSh dollarni tashkil etgan bo'lsa, hozirda bu ko'rsatkich yiliga 1 trillion AQSh dollaridan oshib ketdi<sup>2</sup>.

Ayni paytda mazkur sohada 250 milliondan ortiq kishi mehnat qilayotgani esa uning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, respublikamizda xalqaro turizm bozorini rivojlantirish, uni jahon andozalari talabi asosida shakllantirish va shu orqali iqtisodiyotni yanada yuksaltirish imkoniyatlari juda ko'p. Xalqaro turizm bozorida, kuchli raqobat kurashi sharoitida ko'zlangan maqsadga erishish uchun eng avvalo aniq yo'nalish, doimiy ravishda izlanish, faoliyatni jahon andozalari darajasida tashkil etish talab qilinmoqda.

Shu o'rinda respublikamizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ichida eng ahamiyatlisi Prezidentimizning 2019 yil 5 -yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-sonli Farmoni asosida Turizmni rivojlantirish kontseptsiysi tasdiqlandi va 2019-2025 yillar uchun qilinishi kerak bo'lgan ishlarni o'z ichiga oladi<sup>3</sup>.

Ziyorat turizmi yo'nalishi orqali turistlar oqimini oshirish, shu jumladan Indoneziyadan doimiy aviaqatnovlarni ochish uchun aviakompaniyalarni jalg qilish masalalari, turistlar oqimini jalg qilish maqsadida parvozlarning strategik muhim yo'nalishlarini aniqlash vazifalari belgilangan. Mamlakatlar aeroportlarida yangi yo'nalishlarni yo'lga qo'yish maqsadida xorijiy tashuvchilar uchun

<sup>1</sup> <http://old.muslim.uz/index.php/english/yangiliklar-2016/uzbekistan/item/30477-zbekiston-zijoratchilarini-zhalb-etish-b-jicha-etakchi-davlatga-ajlanmo-da>

<sup>2</sup> "2018-2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 16 август 2017 йилдаги қарори.

<sup>3</sup> "Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга oid қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2019 йил 05 январь. ПФ-5611 сон.

moslashuvchan chegirma va preferensiylar tizimini ishlab chiqish, o‘zaro bog‘lovchi qatnovlarni, shu jumladan “mavsumdan tashqari” davrda tashkil etish orqali uzoq magistral yo‘nalishlarda yo‘lovchilar sonini ko‘paytirish, xorijiy va mahalliy aviakompaniyalar bilan muzokaralar o‘tkazish, shuningdek, ularning takliflarini ko‘rib chiqish va ularni aeroportlar bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlash, charter reyslarini kelishish mexanizmini soddalashtirish, mamlakatdagi ayrim aeroportlarda “Ochiq osmon” rejimini joriy etish maqsadida normativ-huquqiy bazani qayta ko‘rib chiqish ishlari amalga oshirilmoqda.

Turizm sohasining, O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2025 yilga borib, 2,3 foizdan 5 foizga, xorijlik sayyoohlar sonini esa 9-10 million nafarga, jumladan uzoq xorijiy mamlakatlardan keluvchi turistlar sonini 2 milliongacha oshirish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, turizm eksport hajmini 950 million AQSh dollaridan 2,2 milliard AQSh dollarigacha oshirish kutilmoqda. Joylashuv vositalari sonini 850 tadan 3000 tagacha chiqarish rejalashtirilgan. Turoperatorlar soni ham 980 tadan deyarli ikki baravarga oshishi ko‘zda tutilgan. 2019 yilning 1 fevralidan 45 davlat fuqarolari 30 kunlik muddatga O‘zbekistonga vizasiz kirishi mumkin bo‘ladi<sup>1</sup>.

Shu boisdan, 2-3 ish kunida beriladigan elektron vizalar bilan mamlakatga qisqa muddatga sayohat qilish imkonii berilgan mamlakatlar soni xam 76 taga etkazilgan. Shu paytgacha, fuqarolari O‘zbekistonga 30 kunga vizasiz sayohat qilishi mumkin bo‘lgan mamlakatlar soni 18 ta edi<sup>2</sup>.

Bundan tashqari, 76 mamlakat vatandoshlarga elektron viza olish imkonii xam beriladi. Istiqlol yillarida sayyoohlik sanoatini rivojlantirish, yurtimizga kelayotgan xorijlik sayyoohlar oqimini yanada ko‘paytirish yuzasidan ulkanishlar amalga oshirildi. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xizmat ko‘rsatish sifatini yanada yuksaltirish, malakali kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Eng muhimi, o‘tgan davr mobaynida sohani tartibga solish xamda uning huquqiy asoslarini mustahkamlash uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy baza yaratildi.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi statistika boshqarmasi 2019-2025 prognozi

<sup>2</sup><https://m.kun.uz/news/2019/01/05/1-fevraldan-yana-45-davlat-fuqarolari-ozbekistonga-vizasiz-kirishi-mumkin-boladi>

Ziyorat turizmi yo'nalishi. Respublikamizda milliy turizm mahsulotni rivojlantirishda juda muhim ahamiyatga ega. Diniy ziyoratchilarni joylashtirish va ularni boshqa ob'ektlar bilan ta'minlash odatda o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Biroq, turizm faoliyat sub'ektlari sifatida, ziyoratchilar xam mahalliy aholi uchun qo'shimcha daromad manbai hisoblanadi. Samarqand butun dunyoga mashhur bo'lib, dunyo xalqlari bu shaharlarimizni ko'rib ziyorat qilishni orzu qiladilar. Viloyatdagi diniy ziyoratgohlarimiz esa bevosita jahondagi mamlakatlarning musulmon xalqlarini diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etmoqda. Imam Buxoriy, Shohi zinda va Imam Moturidiy kabi viloyatlardagi diniy ziyoratgohlarimiz islom dunyosida alohida o'z o'rniغا ega.

O'zbekistonga tashrif buyuradigan xorij fuqarolarini maqsadlari bo'yicha taqsimlaydigan bo'lsak, ularning ko'rsatkichi bir-biridan katta farq qilishini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimizdagi turizm salohiyatni inobatga oladigan bo'lsak, Respublikada turizmning ko'plab turlarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini kuzatish mumkin. O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirishi davlat qo'mitasi tomonidan mamlakatimizga tashrif buyurgan fuqarolardan kelish maqsadi bo'yicha so'rovnoma o'tkazilgan. So'rovnoma o'tkazish jarayonida 72 ta davlatdan jami 5756 respondentlar ishtirok etgan. Tadqiqot natijalari BTT ekspertlari ishtirokida va Turizm statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar asosida umumlashtirilgan.

## **2.2. Respublikamizda turistik marshrutlarga kiritilgan ziyoratgohlar va ularning holati**

Hozirgi kunda xalqaro turizmning eng muhim tarmoqlaridan biri diniy ya'ni ziyoratchilik turizmi hisoblanadi. Ziyoratchilik turizmning shakllanish tarixi uzoq o'tmishta borib taqaladi. Ya'ni uning ilk bor vujudga kelishi antik davriga to'g'ri keladi. Ziyoratchilik turizmning asosiy paydo bo'lgan maskanlari qadimgi greklar va rimliklar vatani bo'lib hisoblanadi. Qadimda greklar va rimliklar ibodatxonalar va cherkovlar qurib, ularda sig'inishganlar. Ziyoratchilarning sayyohat qilishidan asosiy maqsadi aziz avliyo joylarga qadam ranjida qilishi, sig'inish chog'ida ruhiy jihatdan yengillashishi, ko'ngillarning poklanishi, og'ir kasalliklardan xolos

bo'lmoqligi, qilib quygan gunoh ishlarini ollohdan so'rab kechirishlarini, safar chog'ida safdoshlari bilan ma'naviy yaqinlikda bo'lishni orzu-umid qilishadilar. Ziyoratchi sayyoohlар safarga chiqishida o'z orzu umidlariga erishish, yaratganga shukronlar aytib uning izzat hurmatini bajo keltirishni o'z ko'ngillaridan o'tkazadilar.

Hozirgi kunga kelib dunyoda ziyoratchilik sayyoohligening 10 dan ortiq yirik markazlari mavjud bo'lib, ular yer sharining deyarli hamma qit'alarida joylashgandir.

Darhaqiqat, O'zbekiston turistik resurslarning boyligi bilan ajralib turadi. O'zbekistonda diniy turizm, ya'ni aziz qadamjolarni ziyorat qilish maskanlariga juda boy hisoblanadi. Jumladan, Markaziy Osiyoda, qolaversa jonajon O'zbekistonimizda ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari beqiyos ko'p.

Mustaqallik yillarida diniy qadamjolarga davlat tomonidan katta e'tibor qaratildi. Buyuk ajdodlarimiz qo'nim topgan maskanlarni qayta tiklanib, obodonlashtirish, ta'mirlashga jiddiy e'tibor bergenligi tufayli ziyoratgoh maskanlarga bugungi kunda 1.5 mldr musulmon dunyosini o'ziga tortmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda diniy turizmni hududiy tashkil etish va rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Janubi – Sharqiy Osiyo va G'arbiy Osiyo mamlakatlari ziyoratchilarni jalb etish maqsadida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevralda "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>1</sup> gi farmoni tadbirlar ishlab chiqishda asosiy normative xuquqiy hujjat bo'ldi.

Xususan maskur farmon bilan respublikamizda ziyorat turizmni geografiyasini kengaytirish, yirik moddiy madaniy meros obyektlarida ichki turizm oqimlarini shakllantirish, xorijiy mamlakatlarda O'zbekiston Respublikasining ziyorat turizmi salohiyatini manzilli targ'ib qilish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2021 yil 9 fevralda "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni.

diplomatik vakolatxonalarini rahbarlari zimmasiga, xorijiy mamlakatlarda ziyyarat turizmi salohiyatini keng targ'ib qilish, ulardan respublikaga aviareyslarni tashkil qilishga har tomonlama ko'maklashish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Ziyorat turizmi salohiyatini oshirish bo'yicha, xorijiy aviakompaniyalarning Indoneziya, Bangladesh va Malayziya mamlakatlaridan xorijiy turistlarning O'zbekiston Respublikasiga sayohatlarini tashkil etishga qaratilgan hamda "Umra" dasturi doirasidagi O'zbekiston Respublikasiga aviaparvozlari, qo'nish va uchish xavfsizligi qoidalaridan tashqari, to'sqiniksiz amalga oshirishlariga imtiyozlar joriy qilindi.

Ziyorat turizmni geografiyasini kengaytirib, yirik moddiy madaniy meros obyektlarida ichki turizm oqimlarini oshirish bo'yicha, Navro'z umumxalq bayrami, Mustaqillik kuni va Yangi yil bayrami hamda Amazon hayiti (Iyd al-Fitr) va Qurbon hayiti (Iyd al-Adha) diniy bayramlarini nishonlash davrida qo'shimcha va ko'chirish hisobiga ishlanmaydigan kunlar uch kundan kam bo'limgan muddatda, ota-onalar, qarindoshlar, qariyalar va ustozlar bilan birgalikda sayohat qilishni nazarda tutuvchi besh ish kunidan kam bo'limgan "oilaviy sayohat ta'tili" tizimi joriy qilinadi. Ichki va ziyyarat turizmini rivojlantirish doirasida Farg'ona-Urganch-Farg'ona, Termiz-Urganch-Termiz hamda Qarshi-Urganch-Qarshi aviareyslarini yo'lga qo'yildi. Andijon-Xiva-Andijon temir yo'l qatnovi sonini oshirildi. Termiz-Qarshi-Xiva, Xiva-Urganch-Nukus va Termiz-Qarshi-Samarqand yo'naliishlari bo'yicha doimiy temir yo'l qatnovini yo'lga qo'yish choralarini ko'rish tizimi loyihalari yuzasidan ishlar amalga oshirilmoqda.

Musulmon olamida ziyyarat qilish makonlari ham anchagina. Jumladan, Markaziy Osiyoda, qolaversa jonajon O'zbekistonimizda ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyyarat maskanlari beqiyos ko'p.

Ular qatoriga Janubiy Qozog'iston viloyati, Turkiston shahridagi Axmad Yassaviy maqbarasi; Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi Zangiota majmuasi; Toshkent shahridagi Shayx Xivanda Taxur maqbarasi, Qaldirg'och-biya maqbarasi, Yunusxon maqbarasi; Hazrati Imom majmuasi; Abubakr Muhammad

Kaffal Shashi maqbarasi; Shayx Zayniddin bobo maqbarasi; Samarqand viloyati Payariq tumani Xartang qishlog’idagi Imom Al-Buxoriy majmuasi; Oqdaryo tumani Dahbed qo’rg’onidagi Maxtumi A’zam maqbarasi; Samarqand shahridagi Shohi Zinda, Amir Temur, Ruhobod, Xo’ja Doniyor, Motrudiy, Murod avliyo, Xo’ja Axror Vali, Oq saroy, Cho’ponota maqbaralari; Buxoro shahridagi–Ismoil Samoniy, Chashmai Ayub, Sadriddin Buxarzi, Bohovuddin Naqshbandiy, Buyon Kulixon, Chor Bakr maqbaralari; Xorazm viloyatida Uch avliyo, Said Allovuddin maqbarasi; Qashqadaryo viloyatida–Jahongir, Dorus Saodat, Dorut Tilovat majmuasi, Ko’k gumbaz masjidi; Surxondaryo viloyatida - Hakim at-Termiziy majmuasi; Sulton Saodat ibodatxona yodgorligi, Fayoztepa ibodatxonasi; Jizzax viloyatida–Sadr Vaxs avliyo (Avliyoota) majmuasi; Farg’ona viloyatida Daxmon Shaxon go’rxonasi, Mozorixon maqbarasi kabilar ziyoratchi sayyohlarni o’ziga jalgan qilib keladigan maskanlar bo’lib hisoblanadi. Respublikamizga tashrif buyuradigan, xorijiy ziyoratchlar turistik marshrutlarga kiritilgan ziyoratgohlarning to’liq ma’lumotlarni 2.2.1–ilovada olishingiz mumkin.

### **2.3. Respublikamizdagи ziyorat ob’ektlari infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar**

Turizm o‘zining ko‘p qirrali tarkibi bilan jamiyat hayotining barcha sohalariga faol ta’sir o’tkazib kelmoqda. U iqtisodiyotning ko‘pgina jabhalarini rivojlantirishga imkon tug‘diradi. Jumladan, transport tarmoqlari, aloqa, yo‘l qurilishi, mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish korxonalari, kommunal xo‘jaligi, maishiy xizmat ko‘rsatish, servis sohasi, savdo tarmoqlari va bir vaqtning o‘zida o‘ziga xos dam olish, hordiq chiqarish, ko‘ngil- ochar maskanlar industriyasini tashkil etib, o‘z o‘rnida sayyohlarga sifatli xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bir qator sohalarni qamrab oladi.

Turizm, bugungi kunning eng muhim iqtisodiy sohalaridan biri sanaladi. Shu boisdan, dunyoning ko’plab davlatlari tomonidan ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga

oshirilib kelinmoqda. Bu borada, O’zbekiston ham turizm infrastrukturani yaratish bo’yicha katta salohiyatiga ega. O’zbekistonda turizm sohasini tubdan isloh qilish orqali sayyoqlik infratuzilmasi rivojlantirishni 2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasida asosiy vazifa qilib belgilangan.

“O’zbekiston bo’ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyoqlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish. To’siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilib. 2026 yilgacha turizm sohasida band bo’gan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish. Turizm va madaniy meros ob’ektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros ob’ektlaridan samarali foydalanish bo’yicha davlat dasturini qabul qilish. Samarqand shahrini “Turizm darvozasi”ga aylantirish orqali kelgusi besh yilda turizm xizmatlari hajmini kamida 10 baravarga oshirish<sup>1</sup>.

Turizm sohasida 40 ming kishi bandligini ta’minlash belgilangan bo’lsa. 2022 yilda Samarqand shahrida o’tkazilgan “SHanxay-hamkorlik tashkilotlari” xalqaro samitni o’tkazish orqali “Abadiy shahar” tarixiy majmuasini o’z ichiga olgan Samarqand turizm markazida zamonoviy turizm infratuzilmasi tashkil etildi.

Turizm iqtisodiy foya keltirishdan tashqari, aholining dunyoqarashini kengaytirish, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, dunyoning turli davlatlari va mintaqalari vakillari o’rtasida yaqin aloqalarni rivojlantirishda ham muhim rol o’ynaydi. Turizmni rivojlantirishning jahon amaliyoti shuni ko’rsatadiki, mazkur industriyani yuqori daromadli sohaga aylantirish uchun davlat va xususiy sektordagi barcha ishtirokchilarning sa’y-harakatlarini birlashtirish va mustahkamlash zarur.

Bunda, hukumatning roli – xalqaro, hukumat va xususiy sektor darajalarida turizm sohasidagi rivojlanish siyosatini muvofiqlashtirish va rejalashtirishni ta’minlashdan iborat. Shu nuqtai nazardan 2022 yil 26 aprel kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida turizm xizmatlari ko’lamini kengaytirish va infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari bo’yicha o’tkazilgan videoselektor yig’ilishida.

---

<sup>1</sup> 2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

Turizm industriyasini rivojlantirish, sohadagi xizmatlar ko'lamini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va imijini yaxshilashga qaratilgan masalalarga alohida urg'u berildi. Yig'ilishda jahonda koronavirus pandemiyasi paytida o'matilgan cheklovlar asta-sekin yumshayotgani, shu bois turizm industriyasi tiklanayotgani, xususan, 2022 yilning birinchi choragida O'zbekistonga 610 ming nafar sayyoh tashrif buyurgani, bu esa, o'tgan yilning shu davriga nisbatan ikki baravar ko'pligi qayd etildi.

Mamlakatning har bir hududida turizmni rivojlantirish bo'yicha yirik loyihamalga oshirish bo'yicha vazifalar belgilangan. Bunga, Namangandagi "Afsonalar vodiysi", Bo'stonliqdagi "Amirsoy" majmualarda yaratilgan infrastrukturalarni keltirib o'tdi. Mazkur majmualarga kuniga minglab xorijiy va mahalliy sayyoohlarning tashrif buyurishi tahsinga sazovorligin takidkab o'tdi. Prezident yig'ilish davomida "O'zbekiston turizm magistrali" bo'ylab, 31 ta tuman va shahar hududidan o'tuvchi yo'llar bo'yida avtoturargoh, kemping, avtoservis, ovqatlanish, yoqilg'i quyish kabi xizmatlarni qamrab olgan «Karvonsaroy»lar barpo etish taklifini ham berdi. Albatta, bu takliflarning amalga oshirilishi, yangi ish o'rnlari yaratilishi, aholi bandligi ta'minlanishi hamda turmush farovonligi oshishiga, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotida turizm industriyasi ulushining sezilarli ravishda ortishiga, sayyoohlар oqimining ko'payishiga xizmat qiladi.

Aytib o'tish joizki, ichki turizmnинг jadal rivojlanishida xususiy sektorning ham o'z o'rni bor. Hozirda ko'plab tadbirkor va hunarmandlar turizm sohasiga jalgilingan bo'lib, ular suvenir mahsulotlarini ishlab chiqarish, mehmonxona xo'jaligi, sayyoohlarga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanib kelishmoqda. Bu borada tadbirkorlarga davlat tomonidan ssudalar, subsidiyalar, kreditlar va boshqa turli imtiyozlarning taqdim etilayotgani e'tiborga loyiq. Yig'ilishda Prezident tomonidan ichki turizmni rivojlantirish hamda tadbirkorlarga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida qator imkoniyatlarning belgilab berilgani, so'zimizga yaqqol dalil bo'la oladi.

1 iyuldan boshlab, turizm qishloqlarida mehmon uylari, ovqatlanish va savdo shoxobchalari, ko'ngilochar joylar tashkil etgan tadbirkorlar uch yil davomida aylanmadan olinadigan soliq va ijtimoiy soliqni 1 foiz stavkada, mol-mulk, yer, suv soliqlarini hisoblangan summadan bor-yo'g'i 1 foizini to'laydi. Oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida bunday qishloqlarda mehmon uylari tashkil etishga 50 million so'mgacha, o'tov va eko-uylar majmuasiga 300 million so'mgacha, chodirli lagerlar qurishga 300 million so'mgacha kreditlar beriladi. Har yili turizm qishloqlarining 200 nafar yoshlari byudjet hisobidan Turizm texnikumlarida bepul o'qitiladi. Albatta, bundan ko'zlangan maqsad, turizm industriyasini jadal rivojlantirishda xususiy sektor ishtirokini yanada kengaytirish, ularga imtiyozlar taqdim etish, sohada kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, yangi sayyohlik mahsulotlari turini ko'paytirishdan iborat<sup>1</sup>.

Turizm sohasini yanada rivojlantirish uchun, avvalo, zarur infratuzilmani takomillashtirish lozim. Birinchisi, transport bo'lsa, ikkinchisi logistikadir. bugungi kunda Hukumat tomonidan transport xarajatlarini kamaytirish, sayyoohlarning aviaqatnovlarga bo'lgan talabini qondirish maqsadida xalqaro va mahalliy yo'naliшlarda loukosterlar faoliyatini samarali yo'lga qo'yish, zamonaviy tezyurar poyezdlarga chipta sotib olish mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan yig'ilishda Prezident Transport vazirligiga turizm sohasida transport infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha bir qator topshiriqlarni berdi. 1 iyuldan boshlab, "Ziyorat turizmi" dasturi doirasida xorijiy aviakompaniyalarga ko'rsatiladigan xizmatlarga 50 foizgacha chegirmalar joriy qilinishi, 1-oktyabrga qadar esa mahalliy aviaqatnovlarga mo'ljallangan yangi "Silk avia" kompaniyasi tashkil etilishi uzasidan topshiriqlar berildi.

Turizm rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotining kuchli katalizatori bo'lib, chet el valyutasi va sarmoyalar oqimini ta'minlaydi, unga yaqin sohalarning tez o'sishiga ko'mak beradi, aholi bandligi muammolarini hal etishda yordam beradi va mamlakatning dunyo hamjamiyatidagi

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2021 yil 9 fevralda "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6155-son farmoni.

obro'sini oshiradi. Boshqa sohalar bilan qiyoslaganda ancha kam sarf – harajat bilan turizm sohasida katta valyuta miqdori kelib tushishini ta'minlash mumkin.

Turizm sohasi taraqqiyotidagi hozirgi holat, uning istiqbolini belgilovchi ko'rsatkichlar tahlili turizm industriyasi faoliyatini shakllantirishning iqtisodiy, tashkiliy omillarini o'rganish, turizm xizmati sifatini ko'tarish, milliy turistik korxonalar, firmalar-ning raqobatbardoshligini ta'minlash hamda milliy turizm mahsulotiga xorijliklar talabini o'stirishga asos yaratadigan mukammal ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda turizm industriyasi va infrastrukturasi, shu jumladan, turistik xizmat sohasi umummamlakat miqyosida olib borilgan xususiyashtirish hamda bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tish jarayoni talablariga mos holda qayta isloq qilindi. Ammo bu sohada hanuz qator muammolar, hatto uning rivojiga g'ov bo'lib turgan "to'siqlar" ham mavjud. Mamlakatimiz turizm tizimi taraqqiyotining jadal rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib turgan omillardan biri turistik xizmatlar ko'rsatishning talab darajasida emaslidir. Bu esa, o'z navbatida, turizm industriyasining katta turistik resurslarga ega bo'lgan hududlarda sohani rivojlanish imkoniyatini chegaralab qo'yemoqda.

Bu esa, o'z navbatida, tabiiy va ijtimoiy resurslarni to'liq safarbar etishda o'ziga xos tizim hisoblanadi. Jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy va estetik ehtiyojlarni, madaniy qadriyatlarni saqlash va rivojlanishga, ekologiyaga nisbatan munosabatlarni tartibga keltirishga, biologik xilma-xillikni asrab-avaylashga, aholining hayot darajasi tubdan yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, mamlakatimizda turizmni rivojlanishga kompleks yondashish, zamonaviy sayyohlik infratuzilmasi ob'ektlarini shakllantirish, hududlardagi mavjud salohiyatdan to'liq va samarali foydalanish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ham bugungi kunning eng muhim dolzarb masalalaridan biriga aylantirilmoqda.

Turizm sohasida davlat siyosati istiqbolda hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks jadal rivojlanishda turizm sohasi yetakchilik qilishi, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yechish, ish o'rinalarini ko'paytirish, hududlar diversifikatsiyasi va rivojlanishini ta'minlash, aholining daromadlari, yashash

darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investisiyaviy jozibadorligi va imidjini yaxshilashga qaratilgan. 2018 yildan kirib kelayotgan xorijiy turistlar sonini ikki baravarga oshirishning muhim omillari sifatida viza rejimi, O’zbekistonda bo’lish qoidalari hamda tadbirkorlik faoliyatini olib borish tartibi soddalashtirilgani, turizm sohasida infratuzilmaning rivoj-lanishi va turizm salohiyatini targ’ib qilish choralari ko‘rilgani ko‘rsatish mumkin,

Qo’shimcha 9 ta davlatga vizasiz rejim joriy etilgani, fuqarolariga kirish vizalarini berishning soddalashtirilgan tartibi joriy etilgan davlatlar soni 12 tadan 50 taga ko’paygani; elektron kirish vizalarini rasmiylashtirish va taqdim etish tizimi ishga tushirilgan. Mamlakatimiz hududlari aholisi turmush tarzining o’ziga xosligini e’tiborga olgan holda, ba’zi noodatiy loyihalarni sinab ko’rish talab etiladi.

Masalan, turizm klasteri tushunchasiga kengroq urg’u berib, joylarda «klaster markazi» yaqinida besh yoki olti xonadondan iborat kichik posyolka bunyod etish va har taraflama ibratli, namunali oilalarni joylash-tirish lozim. Bundan ko’zlangan asosiy maqsad – chet ellik sayyoohlarni mahalliy aholiga yanada yaqinlashtirish, ya’ni, bir-necha kunlik mehmon-navozlik davomida milliy qadriyatlarimizga qiziqish uyg’otish va ushbu bebaho merosdan bahramand qilishdan iborat. Shu bilan birga, joylarning tabiiy go’zalligi, urfodatlari hamda an’analari bilan tanishtirishni mahalliy aholidan yaxshiroq uddalaydigan bironta mutaxassisni topish qiyin.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentning “2022–2024 yillarda O’zbekistonning ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”<sup>1</sup> gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida 2022 yilda turizm va madaniy meros ob’ektlari infratuzilmasini rivojlantirish bo’yicha loyihalar ro’yxati tasdiqlandi. 61 ta loyiha turizm ob’ektlarining muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash, madaniy meros obektlarini restavratsiya, konservatsiya qilish va obodonlashtirish hamda madaniy-ko’ngilochar infratuzilmalarni rivojlantirishga yo’naltirilgan.

---

<sup>1</sup>O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning «2022–2024 yillarda O’zbekistonning ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida» PQ-98-son qarori

2022 yilda ushbu maqsadlar uchun 262,8 mlrd so'm ajratiladi. Xususan: turizm xizmatlari sohasiga – 29,4 mlrd so'm; madaniy meros obektlarini rivojlantirish va obodonlashtirishga, – 117,3 mlrd so'm; muzeylarni ta'mirlash va rekanstruksiya qilishga – 43 mlrd so'm, turizm sohasidagi ta'lim muassasalarini moddiy texnik bazasini shakillantirishga – 73,1 mlrd so'm qiymatda mablag'lar ajratilgan<sup>1</sup>.

## **II-bob bo'yicha xulosa**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda O'zbekistonda ziyorat turizmini tashkil etish va rivojlantirish uchun hukumat darajasida barcha huquqiy asoslar mavjud. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlardagi tarixiy obidalar dunyo tarixchilari va sayyohlarining doimo diqqat markazida bo'lib kelgan. Bu shaharlar nafaqat o'zlarining yodgorliklari, masjidlari, madrasalari, maqbaralari bilan, balki bu hududlarda Buxoriy, Moturidiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Termiziyy, Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy, Bobur kabi buyuk allomalarimiz yashab ijod qilganligi bois ham mashhurdir. O'tgan mustaqillik davri mobaynida O'zbekiston turizm industriyasida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi, mamlakatda turizmning rivojlanishi bilan bog'liq siyosiy qarashlar o'zgardi, M.Boltaboev, I.Tuxliev, B.Safarov, S.Abduxamidov kabi olimlar ishlab chiqqan jadvalga ko'ra turizmni rivojlantirish maqsadida mustaqillikdan buyon 80 ga yaqin me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi va qabul qilindi. Qayd qilinganlardan quyidagi xulosalar hosil bo'ladi:

Turistik marshrut ishlab chiqishda agar marshrut ekoturizm, ovchilik turizmi, sarguzasht turizmi yoki g'orshunoslik va rekreatsiya turizmi mavzulari bo'yicha ishlab chiqilganda turistlarni "palatka usuli" da ovqatlantirishni tashkil qilish mumkin. Bu usulda turistlarni qiziqtirish uchun milliy ekzotika variantini ya'ni ko'chma qozon–tovoq usulida "tabiat bag'rida tabiiylik" sharoitida ovqat tayyorlashda taklif etish va ovqatlantirish.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning «2022–2024 yillarda O'zbekistonning ijtimoiy va ishlab chiqarish infrazuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-60-sonli farmoni

Hozirgi zamonaviy turizmda, ayniqsa xalqaro turistlarga mukammal rejali, dasturli turistik marshrutlarni ishlab chiqishimiz talab qilinmoqda. Umumiylar qilib olganda turistik marshrutlarni ishlab chiqish 3 usulda amalga oshiriladi. Bu usullarning barchasida turistik marshrutlar ishlab chiqish faqat bir tizim talablari asosida amalga oshiriladi. Aniqrog'i, turistik marshrutlar ishlab chiqish texnologiyasi bir usulda mavzulari turlarning talablariga rioya qiladi. Mavzuli usul. Turistik marshrutlarni ishlab chiqishda eng ko'p qo'llaniladigan usul mavzuli usul hisoblanadi.

Turizm sohasining rivojlanishini turizm infratuzilmasisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Turizm infratuzilmasi XIX asr oxirlarida hozirgi mamlakatlar iqtisodiyotida endigina shakllanayotgan edi. Hozirgi kunga kelib turizm tarmog'i dunyoning uchinchi ko'p daromad keltirayotgan sohasiga aylanganligi hech kimga sir emas. Bu sohani o'rganishni davr taqozosi desak bo'ladi. Bugungi kunda turizm industriyasi dinamik ravishda rivojlanayotgan xizmatlar xalqaro savdosi turi bo'lib kelmoqda.

Dunyo bo'yicha turizmnning ahamiyati doimiy ravishda o'sib kelmoqda. Bu turizmnning iqtisodiyotga bo'lgan bevosa ta'siri natijasidir. Bugungi kunga kelib turizm MDH davlatlarida rivojlanayotgan sohaga aylandi. Turistik faoliyatning hamma sohalar, davlat tarmoqlari saviyasi, turbiznes paydo bo'lishi, yangicha ishslash taklifining kengayishi va maxsuslashuvni chuqurlashtirish bo'yicha izlanishlar davom etmoqda. Foyda maqsadini ko'zlagan turizm tashkilotlari, marketing xizmatlari, mehmonxona, transport xizmatlari, oziq-ovqat xizmatlari, chakana savdo do'konlari va boshqa turli vositalar kabi bir-biridan farqli xizmatlar turizm infratuzilmasining bir bo'lagi hisoblansa, foydasining qanchasini turistlardan, qanchasini hamkorlik asosida olinganligiga bog'liqdir. Turizm infratuzilmasi, iqtisodiyotning agrosanoat kabi boshqa industriyalariga foyda keltiruvchi bir tarmoqdir. Ushbu xususiyati bilan turizm infratuzilmasi sarmoya va foyda keltiradigan tarmoq hisoblanadi.

**III-bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ZIYORAT**  
**TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI**

**3.1. Ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish**

Mamlakatimizni 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.


Unga ko'ra "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyoohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga etkazish. To'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish. 2026 yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga etkazish. Turizm va madaniy meros ob'ektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros ob'ektlaridan samarali foydalinish bo'yicha davlat dasturi qabul qilinib kelmoqda<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 18 iyuldagagi "Turizm to'g'risida"gi qonuniga muvofiq mamlakatimizda turizmni boshqarish va rejalashtirish organlari tizimi yaratilgan va faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ziyorat turizm xizmatlarga bo'lgan talabni iqtisodiy mexanizmlarini o'rghanish, talab va taklif o'rtaсидаги muvozanatni saqlash, turizm va uning barcha bosqichlarini rivojlantirishda komplekis yondoshuv talab qiladi.

Ziyorat turizm xizmatlarga bo'lgan talabni iqtisodiy mexanizmni ishlab chiqishda, milliy, mintaqaviy va mahalliy darajalardagi turistik resurslarga ajratilib turizmli rejalashtirish jarayonli bosqichlarida amalga oshirilishni turistik xizmatlarga bo'lgan talabni iqtisodiy mexanizmlari bosqichlarni har birini tavsiflaymiz (3.1.1-rasm).

---

<sup>1</sup> 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonlari, Lex.uz.



### **3.1.1-rasm. Ziyorat turizmni rejalashtirshning bosqichlari grafik rejasি<sup>1</sup>.**

1. Ziyorat turizmni rejalashtirish bosqichida, ziyorat yo'nalishlari va vazifalarini belgilab olish, turli ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga mos ravishda, turizmga minimal salbiy ta'sirlarni hisobga olgan holda turizmni rivojlantirish zaruriyati, imkoniyati va yo'llari baholashdan iborat bo'ladi.

2. Ziyorat turizm bo'yicha tadqiqotni tayyorlash bosqichida. Ziyorat turizmni rivojlantirishda, sohasidagi istiqbollar ochib berish, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy muammolar, shuningdek, eng muhim institutsional elementlar (tashkil qilish va boshqarish, qonunchilik va me'yoriy hujjatlar, investitsiyalarni jalb etish va h.k.) ko'rib chiqish. Rejani bajaruvchilarini tanlab olish, mahalliy hokimiyat organlari va jamoatchilikni jalb qilib, tadqiqot amalga oshiriladi.

3. Turizmni rejalashtirshning barcha elementlarini tadqiq etishda. Ziyorat turizmning barcha jihatlari (geografi joylashuvi, turistlarning tashrif buyurishiga imkoniyatlari mavjud va potensial diqqatga sazovor joylari, joylashtirish, transport, ovqatlanish vositalari va h.k.) bo'yicha miqdoriy va sifat omillari ko'rsatkichlarini aniqlash, mahalliy hokimiyat organlari va jamoatchilik vakillari bilan munozarali kengashlarni o'tkazishni taqoza qiladi.

<sup>1</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

4. Analiz va sintez bosqichida. Ziyorat turizmning rejalashtirilayotgan turining barcha tashkil etuvchilarini tadqiq qilish natijasida olingan axborotni sifat va son jihatidan qayta ishlash, shuningdek, ishlarning holatini yanada to‘liqroq tushunish uchun tahlilning turli komponentlari birlashtiriladi va integratsiya qilinadi. Turizm bozorining kon'yunkturasi va uni iqtisodiy ta'sirlar, turizmning institutsional elementlari va h.k.lar tahlil qilinadi.

Turizmni rivojlantirishning asosiy imkoniyatlari, unda muammolar va to‘sinqinlik qiluvchi omillar aniqlanadi, turistlik biznes sifatini pasaytiruvchi to‘sinqlarni bartaraf etish bo‘yicha zarur tavsiyalar ishlab chiqiladi. O‘xshash turistlik mahsulotlar va bozorlarga ega mavjud va ehtimol qilingan potensial raqobatchilarning faoliyati hisobga olinadi.

5. Siyosat va rejani ishlab chiqishda. Turizmni rivojlantirish siyosati va tegishli tizimiyl reja ishlab chiqiladi. Birinchi navbatda rivojlantirishning sarf-harajatlar va foyda muvozanatda bo‘ladigan muqobil variantlari ko‘rib chiqiladi. Bunda quyidagi mezonlar qo‘llaniladi: rivojlantirish masalalarini hal qilishning ehtimol tutilgan murakkabligi, iqtisodiy foydalarni optimallashtirish, ijobjiy ekologik va ijtimoiy-madaniy omillarni kuchaytirish, salbiylarining ta’sirini eng kam darajaga yetkazish, boshqa turistlik korxonalar bilan samarali raqobat qilish. Ko‘p variantli baholash asosida siyosatning so‘nggi yo‘nalishlari va reja tuzilishi aniqlab olinadi.

Rejalashtirishning ushbu bosqichida turizmni rivojlantirish va takomillashtirishning eng maqsadga muvofiq modellarini qabul qilish uchun mahalliy hoqimiyat organlari va boshqa manfaatdor tomonlar bilan mustahkam aloqa bog‘lash zarur.

6. Boshqa tavsiyalar. Ko‘p variantli modellar tuziladi va ularidan eng maqsadga muvofiqlari tanlab olinadi.

7. Rejani bajarish va nazorat qilish. Rejaning so‘nggi varianti haqqoniy va bajarish mumkin bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan rejani amalga oshirish modellari ishlab chiqiladi.

Rejani amalga oshirish bo‘yicha ishlar davomida uni bajarish muddatlari va bo‘limlari bo‘yicha nazorat qilinadi. Bu yo‘l qo‘yilgan chekinishlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish bo‘yicha tezkor choralar qabul qilishga imkon beradi.

Turizm sohasi eng murakkab kompleks tizimdan iborat bo‘lib, u o‘z ta’sir kuchi ostiga iqtisodiyoning turli tarmoqlarini jalb qiladi. Shu bilan birga ko‘pgina davlatlar turizm jamiyatning umumiy iqtisodiy rivojlanishi deb qarab kelmoqda.

Turizmga jamiyatni va iqtisodiyoni rivojlantiruvchi usul sifatida yondashish, uning aholi bandligini ta’minlovchi mukammal manba sifatida qaralmoqda. Shuningdek, daromadni ko‘paytirish va turli sabablarga ko‘ra tabiiy va madaniy yo‘qotishlarni tiklashga yordam beradi deb qaralmoqda. Shu sababli, ayni vaqtda turizm industriyasi rivojiga ega hamma davlatlar shunday qarorga kelishdiki, turizmni rejalashtirish ular taraqqiyoti rivojlanishining asosini tashkil etadi

2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm soxasini rivojlantirish Konsepsiyasida turizmni rivojlantirishning istiqboldagi maqsadi respublikaning, ziyoratgohlaridan maqsadli foydalanish milliy-madaniy tiklanishi, milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri sifatida turizmni rivojlantirish borasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va xo‘jalik masalalarini hal qilish deb belgilangan. Turizm sohasi oldida turgan asosiy vazifa – O‘zbekistonning tabiiy iqlimi, rekreatsion, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy madaniy salohiyatini hisobga olgan holda ichki va xalqaro turizm ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan yuqori rentabelli turistlik tarmoqni yaratishdan iborat. O‘zbekiston xalqaro ziyorat turizm bozoridan mustahkam o‘rin olishi, turistlar uchun yuqori darajadagi qulaylik yaratilishi, ularga xizmat ko‘rsatishning barcha turlari bo‘yicha standart tizimi, xavfsizligini ta’minlash kafolatlari yuzaga keltirilishi taminlaydi..

Turizm to‘g‘risidagi qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlaridan kelib chiqqan holda O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishda turizmning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

- davlat manfaatlari va O‘zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari, xalqaro turistlik amaliyot me’yorlarini hisobga olgan holda turistlik tarmoqning ustuvor rivojlanishini ta’minlash;
- kelgusida turizmning yanada rivojlanishiga ko‘maklashadigan qonun hujjatlari va boshqa me’yoriy hujjatlarni tayyorlash;
- tarmoqning tashkiliy tuzilishini, uni boshqarish va faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish;
- turizmning rivojlangan infrastrukturasini yaratish;
- turistlik-rekreatsion zonalar, hududlar va turistlik markazlarni o‘zlashtirish;
- axborot-reklama faoliyati yo‘nalishlarini belgilash, marketing va ekskursiya-uslubiy xizmatlarni tashkil qilish;
- imtiyozli ravishda mablag‘ bilan ta’minlash va kredit berish yo‘li bilan turistlik faoliyatni rag‘batlantirish;
- tarmoqning malakali kadrlar va ilmiy potensialini shakllantirish, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yaratish;
- tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni saqlash samarasini ta’minlash zaruratini hisobga olgan holda turistlik faoliyat olib borishning shakllari va mexanizmini ishlab chiqish.

Yuqorida ko‘rsatilgan vazifalarni bajarish, ziyyarat turizm faoliyatning samaradorligini oshirish, turizm infrastrukturasining mamlakatni iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy rivojlantirishning boshqa ustuvor sohalari bilan o‘zaro aloqasini mustahkamlashga imkon beradi.

O‘z xususiyatidan kelib chiqqan holda turistlik xo‘jalik ayni paytda turdosh tarmoqlarga yuqori talablar qo‘yar ekan, faqat texnologiyalarni takomillashtirish va mehnatni tashkil qilishni yaxshilashgagina emas, balki xo‘jalik yuritishning eng samarali shakllarini joriy qilishga, yangi ish joylarini yaratishga ham xizmat qilishi istiqbolli loyiha sifatida belgilanib kelmoqda.

Jumladan, turizm faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, turizmni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me'yor va standartlarni implementatsiya qilish; turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda maqbul va qulay turizm muhitini yaratish; transport logistikasini rivojlantirish, ichki va tashki yo'nalishlarni kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish; turizm bozorining turli segmentlariga yo'naltirilgan turizm maxsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish; respublika ichida turizm xizmatlariga bo'lган ehtiyojni qondirishga yo'naltirilgan turizm faoliyati sub'yektlarining faolligini rag'batlantirishni ta'minlovchi ichki turizmni rivojlantirish; O'zbekiston Respublikasi turizm maxsulotini xalqaro va ichki turizm bozorlarida targ'ib qilish, mamlakatning sayohat va dam olish uchun xavfsiz sifatidagi imidjini mustahkamlash; turizm tarmog'i uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish.

Turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilandi: turistik biznes sohasida me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan xalqaro me'yorlar va standartlarni joriy qilish; ushbu yo'nalishda milliy me'yoriyhuquqiy bazani xalqaro standartlar va normalarga muvofiqlashtirish, shuningdek, turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, iqtisodiy zaxiralarni ko'paytirish uchun samarali foydalanishni ta'minlash vazifasi qo'yildi; turistlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda respublikaning barcha hududlarida turistik infratuzilma rivojlantirish; turistik infratuzilmani xalqaro me'yorlarga muvofiq rivojlantirish, turoperator va boshqa turizm sub'ektlari sonini 860 dan 1676 donagacha, turar joylar bilan ta'minlash muassasalari sonini ko'paytirish hisobiga rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Har bir tashrifning o'rtacha davomiyligi 6,9 kechani, aksariyat sayyoohlarning tashrif buyurish vaqtiga (79 foiz) 1 dan 9 kechagacha, 19,8 foiz esa 10 dan 39 kechani tashkil etadi. Sayyoohlarning 2 foiz dan kamrog'i mamlakatda 40 kechadan ko'proq bo'lishadi. 2025 yilgacha bo'lган davrda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlariga

ko‘ra, O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy sayyoohlarning sonini 2025 yilda 9 089.3 ming kishiga yetkazish (2018 yilda 5 300.0 ming kishini tashkil etgan), turistik xizmatlar eksportinining hajmini 2018 yilgi 1 040.9 million AQSh dollardan 2025 yilda 2 232.8 million AQSh dollariga yetkazish ko‘zda tutilgan<sup>1</sup>.

### **3.2. Ziyorat ob’ektlari bo'yicha turistik marshrutlarni ishlab chiqish metodikasi**

Turistik marshrutlar turizmni tashkil etishning chiziqli shakllaridir. Turistik markazlar joylashgan turistik marshrutni turizmni tashkil etishning chiziqli-tugun shakli sifatida aniqlash mumkin. Har qanday sayohat va ekskursiyalar oldindan belgilangan marshrutlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Turistik marshrut – bu ma'lum bir hududga va maxsus ob'yektlarga bog'langan va turli darajadagi tafsilotlar bilan tasvirlangan, geografik jihatdan belgilangan yurish, sayohat marshrutidir. Turistik marshrut dasturda nazarda tutilgan xizmatlar va qo'shimcha turistik-ekskursiya xizmatlarini olish maqsadida turistlarning ma'lum vaqt oralig'ida oldindan rejalashtirilgan harakatlanish marshruti sifatida belgilanadi. Turistik marshrutlar turistlarga ko'rsatiladigan xizmatlarning asosiy turlaridan biridir.

Marshrut turistning marshrut bo'ylab to'xtashlar oralig'ida harakatlanishi uchun foydalilaniladigan transport turlarini ko'rsatuvchi, sayohat davomida ketma-ket tashrif buyurgan barcha geografik nuqtalar va joylar ro'yxati bilan ko'rsatilgan sayyohning bosib o'tadigan yo'li deb ta'riflanadi. Marshrutning boshlang'ich va tugash nuqtalari sayohatning boshlang'ich va tugash nuqtalari hisoblanadi. Marshrutning boshlanishi turistga shartnomada ko'rsatilgan birinchi turistik xizmatni ko'rsatish joyi, marshrutning oxiri esa oxirgi turistik xizmat ko'rsatish joyi hisoblanadi.

Marshrut bo'ylab harakatlanishiga ko‘ra turistik marshrutlarning chiziqli, aylana, radial va qo'shma turlari farqlanadi. Chiziqli marshrut – turli geografik

---

<sup>1</sup> Tourism in Uzbekistan 2018-2025

joylarda boshlanib, tugaydigan marshrut. Bu marshrutning eng keng tarqalgan turi. Turist o'zi joylashgan joydan bir kunlik ekskursiyalarini amalga oshirish bilan birga, belgilangan joyda ma'lum vaqt qoladi. Dam olishdan keyin turist doimiy yashash joyiga qaytadi. Bunday holda, chiziqli marshrutlarning bir xususiyatini hisobga olish kerak. Ularni tashkil qilishning ikkita varianti mavjud.

Birinchisi, marshrutning boshlang'ich va yakuniy nuqtalari mos kelmasligini taxmin qiladi. Masalan, Volga bo'ylab "Saratov - Samara - Ulyanovsk-Qozon" sayohati chiziqli turistik marshrutning klassik namunasidir. Safarning boshlang'ich nuqtasi Saratov, yakuniy nuqtasi esa Qozon. Biroq, bu erda bir narsa bor. Aytaylik, Qozonga yetib kelgan sayyoh o'sha kemada Saratovga qaytib keldi va Saratovdan Qozonga boradigan yo'lida bo'lgani kabi bir xil turistik markazlarga tashrif buyurdi. Bunday holda, ushbu variantni chiziqli turistik marshrut sifatida ham ko'rib chiqish kerak.

Agar sayyoh Qozonga qayiqda etib kelib, uyiga poezdda qaytsa, bu variant (ikkinchi) chiziqli marshrutning ta'rifiga to'g'ri kelmaydi, chunki uning yo'li aylanma yo'nalish bo'ylab tashkil etilgan. Ammo bu marshrut aylanma bo'ladi, agar turistik xizmat butun sayohat davomida davom etsa. Ko'pgina sayohatlar faqat bir tomonlama xizmatni o'z ichiga oladi. Uyga qaytish masalasini turist mustaqil ravishda va o'z mablag'lari hisobidan hal qiladi. Bunday holda, marshrut chiziqli bo'lib qoladi.

1. Turistik marshrutning chiziqli turi
2. Ring turi turistik marshrut
3. Turistik marshrutning radial turi
4. Turistik marshrutning birlashtirilgan turi

Radial yo'nalish – boshi va oxiri turistning boshqa turish punktlariga boradigan, sayohatning kelib chiqish joyiga qaytganida joylashgan bitta geografik joylashuv punktida sodir bo'ladigan marshrut. Misol uchun, Volgogradlik sayyoohlар Peterburgga etib kelishdi va shaharda uch kunlik qolib, oldindan band qilingan mehmonxona xonalarini tark etib, Novgorod, Pskov va Pushkinskiye Gori shaharlariga bir necha bor sayohat qilishdi. Radial marshrutni amalgalashishda turistik marshrutning chiziqli turi qo'shiladi.

oshirishning asosiy sharti boshqa turistik markazlarga sayohatlar amalga oshiriladigan turistik markazning mehmonxonasida bronning saqlanishi hisoblanadi. Pskov va Novgorodning statsionar turar joylarida tunashning mavjudligi, harakatlarning radial xususiyatini saqlab qolgan holda, vazifani biroz murakkablashtiradi.

Ring marshruti – bir xil geografik joylashuvda boshlanuvchi va tugaydigan marshrut. Ushbu turdag'i marshrutlarning klassik namunasi bu quyidagi shaharlar orqali o'tadigan "Rossiyaning Oltin halqasi" gastrol marshrutidir: Moskva - Vladimir - Suzdal - Rostov - Yaroslavl - Kostroma - Ples - Ivanovo - Moskva. Belgilangan joyga etib kelish joyi quyidagilar bo'lishi mumkin: lekin) o'zgarmagan sayyohlar sayyohlik yo'nalishiga kelganda atigi 1-2 tranzit shahardan o'tadi. Bunday shaharlar "shlyuzlar" deb ataladi. Rossiyada shlyuzlar Sankt-Peterburg va Moskvadir. Ko'pincha shlyuzlar yirik aeroportlari yoki poezd stantsiyalari bo'lgan shaharlardir - masalan, Chikago, Frankfurt-Mayn, Gonkong, London, Dublin va boshqalar.

Birlashtirilgan marshrut – ba'zi kombinatsiyadagi ikkita yoki uchta boshqa marshrut turlarining elementlarini o'z ichiga olgan marshrut. Masalan, Rostov, Vladimir, Semenov, Yelabuga, Ivanovo va boshqalar kabi Volganing asosiy kanalidan uzoqda joylashgan sayyohlik markazlariga avtobusda o'tkazishni tashkil qilish bilan siz Volga bo'ylab daryo kruizini qilishingiz mumkin. Turistik yo'nalishlar mavsumiyligiga qarab quyidagilarga bo'linadi: yil davomida, ya'ni yil davomida amal qiladi va mavsumiy har qanday mavsumda ishlaydi.

Dam olish yo'llari aniq bog'langan davlat bayramlari. Sayohat davomiyligi bo'yicha marshrutlar quyidagilarga bo'linadi ko'p kunlik(ta'til) va hafta oxiri marshrutlari (hafta oxiri sayohatlari). Turistik marshrutlar ham foydalaniladigan transport turlariga qarab tasniflanishi kerak. Aviatsiya, temir yo'l, avtobus, avtomobil, daryo, dengiz va estrodiol turistik yo'nalishlarni ajrating.

Aviatsiya turistik marshrutlari. Asosiy havo transporti sifatida foydalanishga qisqartiriladi va ikki shaklda amalga oshiriladi: a) muntazam havo yo'llari va b) havo yo'llari. charter reyslari(tartibsiz, tayinlash bo'yicha). Havo yo'nalishlarining

davomiyligi juda xilma-xil bo'lishi mumkin, garchi havo tashishning haqiqiy jarayoni juda qisqa - 10-12 soatdan oshmaydi.

Temir yo'l turistik marshrutlari foydalanishni tavsiya eting temir yo'l transporti ikkita asosiy shaklda: a) muntazam turistik marshrutlar va b) maxsus turistik-ekskursiya (charter) poyezdlari. Temir yo'l sayohatlarining davomiyligi, qoida tariqasida, juda katta - bir haftadan ikki haftagacha yoki undan ko'p.

Avtobus turistik marshrutlar yemoq tashkillashtirilgan sayohat turistlar turistik avtobuslardan foydalanadilar. Avtobus sayohatlari muntazam va tartibsiz bo'lishi mumkin. Avtobus yo'nalishlarining davomiyligi juda katta farq qilishi mumkin - bir soatlik ekskursiyadan uch haftagacha. avtobuslar sayohatlari butun Yevropa Avtobusdan farqli o'laroq avtomobil sayyohlik marshrutlari uyushmagan turistlar guruhining mustaqil va ijaraga olingan avtomashinalarda sayohatini o'z ichiga oladi. Bunday sayohatlarning davomiyligi sayyoohlар tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi va juda katta farq qilishi mumkin - bir kundan olti oygacha.

Daryo va dengiz sayyohlik marshrutlari asosiy transport turlari sifatida dengiz va daryo transportini jalb qilgan holda turistlarning uyushgan guruhlarining sayohatiga asoslanadi. Bilan sayohat qilish suv turlari transport uch shaklda amalga oshiriladi: a) dengiz va daryo sayohatlari; b) diqqatga sazovor joylarga sayohatlar va qiziqarli sayohatlar; c) yaxtachilik va individual sayohat. Suv sayohatining davomiyligi juda boshqacha bo'lishi mumkin - bir kundan (ekskursiya va zavqli parvozlar) olti oygacha (qimmat sayohatlar).

Birlashtirilgan turistik marshrutlar turli kombinatsiyalarda ikki yoki undan ortiq transport turlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Multimodal transport turizm biznesi amaliyotida keng tarqaldi, chunki u tur tarkibini va uni amalgalashishga sarflangan vaqtini optimallashtirish imkonini beradi. Turistik marshrutlarning fazoviy tashkil etilishini hisobga olgan holda shuni ta'kidlash kerakki, aynan ular tizimining to'liqligi turistik hududlarni va ayniqsa, mikrorayonlarni ajratib ko'rsatishga yordam beruvchi omil hisoblanadi. To'liq marshrutlar tizimiga ega bo'lgan hududni konturlashda aslida elementar hududiy turizm tizimi yaratiladi.

Tizim turistik marshrutlar tarmog'idan tashqari talabni shakllantirish joylari sifatida aholi punktlarini, shuningdek, belgilangan manzil va talab paydo bo'ladigan joy o'rta sidagi aloqa vositasi sifatida transport kommunikatsiyalarini ham o'z ichiga oladi.

Transport vositalarini turistik diqqatga sazovor joylar sifatida turli jismoniy xususiyatlariga ko'ra ajratiladi, ammo qiziq bo'linish xususiyati shundagiki, u namoyish etadigan turistik tajribaning tabiatiga asoslangan bo'lib tuyuladi. Bazi shahar va mamlakatlarda transport vositalari turistik qiziqish ob'ekti sifatida qabul qilinib, ular turistik hudud qiyofasining ramzi hisoblanadi.

Turistik sayohatlarda muayyan transport vositalarining ulushi, shu jumladan ularning ahamiyati ham har bir joyda turli xil darajaga ega. Turizm maqsadidagi xalqaro sayohatlar haqida gap ketganda, jahon turizm tashkiloti tomonidan olingan ma'lumotlarga ko'ra havo qatnovining ulushi 2000-yildagi 46 foizdan 2019-yilda 59 foizga oshdi, yer usti transporti shu davrda 49 foizdan 35 foizga kamaydi.

Havo transportiga bo'lgan talabning oshishiga sabab bugungi kunda qit'alararo sayohat havo yo'lovchi tashishning eng tez rivojlanayotgan segmentidir, bu o'sish jahon savdosining rivojlanishi va aholi farovonligining oshishi bilan bog'liq bo'ladi. Shuningdek mutazam tashishlarni amalga oshiradigan kompaniyalar mashhur sayyohlik joylarida turli xil charter dasturlarini ishlab chiqishgan. Fuqaro aviatsiyasi korxonalarining (FK) daromadlari turdosh tarmoqlarda (aviatsiya, yoqilg'i ta'minoti, turizm va aholiga xizmat ko'rsatish va boshqalar) qo'shimcha tovar aylanmasini keltirib chiqaradi.

Transport vositasini tanlash quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- Sayohat manzilini tanlash bilan;
- turistik manzilning davomiyligi;
- sayohat destinatsiyasini tanlash;
- sayohatni tashkil etilganligi;
- turistik manzilning davomiyligi;

- turistlar uchun zarur bo'lgan axborotlarning mavjudlik darajasi;
- transport haqidagi ma'lumotlar turlariga bo'lgan tanlov;
- transport turlariga bo'lgan tanlov;
- sayohatchilarning xarid qilish qobiliyati;
- transportning narxi bilan.

Kombinatsiyalangan marshrut - u yoki bu kombinatsiyadagi chiziqli, aylana va radial yo'naliшning barcha elementlarini o'z ichiga olgan marshrut. Masalan, "O'zbekiston Oltin halqasi" ekskursiyasiga O'zbekiston turistik marshrutga kiritilgan qadimiy shaharlariga - Samarand, Buxoro, Xiva va boshqalarga tashrif buyurishingiz mumkin.

Mavsumiyligi bo'yicha turistik marshrutlar quyidagilarga bo'linadi: yil bo'yi, ular yil bo'yi jadval mavjud bo'lgan barcha turdag'i sayohat marshrutlarini o'z ichiga oladi, ularning ishlashi mavsumiy bo'lib, istalgan fasl yoki fasllarda ishlaydi. Sayohat davomiyligi bo'yicha marshrutlar ko'p kunlik (bayram) va dam olish kunlariga bo'linadi. Turistik xizmat ko'rsatish texnologiyasi;

Marshrutlarni ishlab chiqish, turlar va turli ekskursiya dasturlarini shakllantirish, asosiy va qo'shimcha xizmatlar turistik xizmat ko'rsatish texnologiyasini tashkil etadi, ya'ni turistik xizmatga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun mo'ljallangan aniq turistik mahsulotni ishlab chiqarish. Umuman olganda, turistik xizmatni loyihalash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

Xizmatning normalangan xarakteristikalarini belgilash;

Turistlarga xizmat ko'rsatish jarayoni texnologiyasini yo'lga qo'yish;

Texnologik hujjalarni ishlab chiqish;

Sifatni nazorat qilish usullarini belgilash;

Yo'naliшni ishlab chiqish bosqichlari.

Yo'naliшni ishlab chiqish quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Taklif etilayotgan marshrut bo'ylab turistik resurslarni o'rganish;

Buning uchun turizm xizmatlari bozori marketing marshrut marshruti;

Marshrut turini aniqlash;

Marshrutning eskiz modelini qurish;

Marshrutni hayotni qo'llab-quvvatlash punktlari bilan bog'lash;

Marshrutda xavfsizlik sxemasini ishlab chiqish;

Yo'naliш pasportini ishlab chiqish, pasportni tegishli xizmatlar bilan kelishish;

Marshrutni sinovdan o'tkazish va kerakli o'zgartirishlarni kiritish;

Marshrut ishlab chiqilgach, tashuvchilar bilan shartnomalar (shartnomalar) tuziladi. Bu aviakompaniyalar, temir yo'llar, avtotransport kompaniyalari va yuk tashish bilan shartnomalar bo'lishi mumkin.

### **3.3. Ziyorat turizmining 2025 yilgacha bo'lган rivojlanishi prognozi**

O'zbekistonning turizm sohasidagi besh yillik institutsional islohotlarining o'sish dinamikasi va pandemik inqirozni bartaraf etishda strategik yo'naliшlaridan biri bo'lib, u hududlarning jadal rivojlanishini ta'minlay oladi. Dunyo bo'y lab har o'n kishi turizmga aloqador sohalarda faoliyat olib borgan.

Aytib o'tish joizki, koronavirus pandemiyasi fonida joriy etilgan cheklovlar va ularning natijasida yuzaga kelgan global inqiroz oqibatlari tufayli turizm sohasi katta talofatlarga yuz tutdi. Xususan, 2020 yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan chet ellik sayyoohlarning soni 96% foizga kamayib, 1,5 mln. nafarga tushib ketdi.<sup>1</sup> Ko'rsatilgan sayyoqliк xizmatlarining hajmi esa 261 mln. dollarni tashkil etdi.

Pandemiyaning boshlanish nuqtasi 2019 yilda ko'rsatilgan turistik xizmatlarning umumiyligi hajmi 1,5 mlrd. dollardan oshgan bo'lsa, eksport ko'rsatkichlari 1,3 milliardga yetib, umumiyligi xizmatlar eksportining 38,2 foizini tashkil etdi (3.3.1-rasm).

Turizm sohasining qayta tiklanishi Koronavirus pandemiyasi sababli yuzaga kelgan vaziyatni hisobga olgan holda, ("O'zbekiston. Xavfsiz sayohat kafolatlangan") loyihasi ishlab chiqilgan. Loyiha sayyoohlarga mo'ljallangan bo'lib, jahon standartlariga asoslangan sanitariya-epidemiologik xavfsizlikning

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoevning «2022–2024 yillarda O'zbekistonning ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-98-son qarori

yangi tizimi hisoblanadi. Turizm ob'yektlari va tegishli infratuzilmani, turistik xizmatlarni yangi sanitariya-gigiyena talablari asosida sertifikatlash quyidagilar uchun majburiy bo'ldi:



**3.3.1-rasm. O’zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy sayyoqlar soni, yillar kesimida<sup>1</sup>**

- barcha davlat chegara punktlari;
- havo, temir yo’l va avtobus bekatlari;
- moddiy-madaniy meros ob'yektlari, muzeylar, teatrlar va boshqalar.

<sup>1</sup> «Uzbekistan Safe travel» guaranteed

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.06.2020 yildagi №4755-sonli Qarori bilan Xavfsiz turizm jamg‘armasi Moliya vazirligi huzuridagi Inqirozga qarshi kurashish jamg‘armasining 20 milliard so‘m miqdordagi dastlabki to’lovi, tizimi doirasida joriy etilayotgan ixtiyoriy sertifikatlashtirishdan o‘tish uchun to‘lanadigan bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdoridagi to‘lov hisobidan shakllantirildi. Koronavirus pandemiyasining salbiy ta’sirini kamaytirish uchun O’zbekiston turizm sohasi ishtirokchilari bir qator imtiyoz va imtiyozlarga ega bo’ldi.

Turoperatorlar, turagentlar va joylashtirish vositalarining daromadlaridan olinadigan belgilangan soliq stavkasi 50%ga kamaytirildi. Turoperator, turagentlar va joylashtirish vositalari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig’i va mol-mulk solig’ini to’lashdan ozod etiladi. Ijtimoiy soliq stavkasi 1% miqdorida belgilandi. Turoperatorlar, turagentlar, shuningdek, joylashtirish vositalari uchun turistik faoliyat bilan shug’ullanganlik yig’imini hisoblash va to’lash vaqtinchalik to’xtatildi. Joylashtirish vositalarini qurish uchun tijorat banklaridan ilgari berilgan kreditlar bo'yicha turistik tashkilotlarning foiz xarajatlari qisman qoplandi.

Mehmonxonalarini tasniflash yoki modernizatsiya qilish uchun moddiy- texnik bazani yangilash, rekonstruksiya qilish va mustahkamlash xarajatlari qisman qoplandi. Ziyorat turizm 2022 yilda chop etilgan Global musulmon turizmi indeksi hisobotiga ko’ra, 2022 yilda ziyorat maqsadlarida safar qilgan musulmonlarning soni 140 million kishini tashkil qilgan va 2026 yilga kelib bu raqam 230 millionga yetishi kutilmoqda<sup>1</sup>. O’tkan davr mobaynida O’zbekistonda turizmning Ziyorat turini rivojlantirish va uning turistik xizmatlar eksportidagi ulushini oshirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi.

Buxoro viloyatida 34 mamlakatdan tashrif buyurgan 120 xorijiy mehmonlar ishtirokida birinchi Ziyorat turizmi Forumi o’tkazildi. Ziyorat turizmi mehmonxonalarda yangi talablar joriy etildi, respublika hududidagi masjidlarning

---

<sup>1</sup> «Uzbekistan. Safe travel GUARANTEED»

xaritasi ishlab chiqilib, mobil dasturga joylashtirildi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida O'zbekiston 10 pog'onaga ko'tarilib 22-o'rinni egalladi<sup>1</sup>.

Tibbiy turizm. Texas universiteti professori Hamid Beladi tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, tibbiy turizmdan olingan daromadlarning 1%ga o'sishi real YaIMning yillik o'sish sur'atlarini 0,0019%ga oshiradi. Tailand va Malayziya misollarida Naranong, Klijs kabi ko'plab boshqa tadqiqotchilar tibbiy turizmnинг qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotiga bevosita ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi<sup>2</sup>.

O'zbekistonda tibbiy turizmni rivojlantirish va tibbiyat maskanlariga ko'proq sayyoohlarni jalb qilish bo'yicha turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatning eng yirik davlat va xususiy tibbiyat muassasalari bilan hamkorlikda konferensiylar, o'quv seminarlari o'tkazilmoqda. Bunda, sayyoohlarga tibbiy xizmat ko'rsatishda xususiy tibbiy klinikalarning o'rni katta. Ma'lumotlarga ko'ra, 2021-2022 yillarda O'zbekistonga tibbiy maqsadlarda tashrif buyurgan chet ellik fuqarolar soni 150 mingdan oshgan<sup>3</sup> (3.3.2-rasm).

Aslini olganda bu raqam bir necha barobar ko'proq bo'lishi mumkin, chunki xususiy tibbiyat klinikalariga tashrif buyuradigan sayyoohlar sonini aniqlash hali hanuz mukammal vazifa sifatida qolmoqda. 10 dan ortiq nufuzli xorijiy nashrlar O'zbekistonni eng jozibador sayyoohlilik yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etdi.


O'zbekistonda turizmni iqtisodiyotning strategik sohalaridan biriga aylantirish bo'yicha qilingan ishlar turli reyting va nominatsiyalarda ham o'z aksini topdi. O'zbekistonning turizm imkoniyatlarini «davolashda» katta ahamiyat kasb etadi. Globallashuv sharoitida turizm tarmog'ini boshqarishning ilmiynazariy asoslarini o'rganish o'ziga xos hususiyatlarga ega. Chunki globallashuv tushunchasi keng ma'noni anglatadi. O'zbek tilining izohli lug'atida globallashuv deganda “Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va

<sup>1</sup> «CrescentRating» Global musulmon turizmi indeksi

<sup>2</sup> <http://old.muslim.uz/index.php/english/yangiliklar-2022/uzbekistan/item/30477-zbekiston-zijoratchilarni-zhalb-etish-b-jicha-etakchi-davlatga-ajlanmo-da>

<sup>3</sup> Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolda). DSc. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -S.: SamISI, 2022. -265 b

madaniy sohasida o'zaro yaqinlashuvi, birlashuvi; voqeal-hodisalarining bir mamlakat doirasidan chiqib, umuminsoniy miqyosga ega bo'lishi, butun yer sharini qamrab olishi" tushuniladi. Hozirgi paytda dunyo miqyosida turizm industriyasiga ta'sir etuvchi umuminsoniy miqyosga ega bo'lgan omillar ta'sirida iqtisodiyotning shakllanish va rivojlanish jarayonlari o'zgarib bormoqda. Bu esa jahonda yuz berayotgan innovatsion bilimlar ta'sirida ishlab chiqarishda yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish zaruratini keltirib chiqarmoqda.



### 3.3.2-rasm. 2022-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyoohlар<sup>1</sup>

Buning natijasida ommaviy turizmdan individual turizmga o'tish zarurati yuzaga kelmoqda. Global tendentsiyalarning bunday sharoitida turizm korxonalarini boshqarishga bo'lgan ta'sirini kompleks o'rganish, turizm korxonalari faoliyatini miqdor va sifat jihatidan tizimli tahlil etish, bu jarayonda internet tizimidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va iqtisodiy matematik usullardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

<sup>1</sup> Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendentsiyalari (Samarqand viloyati misolida). DSc. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -S.: SamISI, 2022. -265 b

Hozirgi paytda mahalliy va xalqaro turizm xizmatlar bozorida yaratilayotgan tovarlar va xizmatlarni tahlil etish hamda ularning turizm industriyasini rivojlantirishga ko'rsatayotgan ta'sirini ilmiy jihatdan chuqur o'rganishni taqozo qiladi. Bunga erishish uchun birinchi navbatda, turizm xizmatlari bozorini tahlil qilishning marketing strategiyasini, ya'ni bozorning talab va taklif darajasiga qarab ishlab chiqilayotgan turizm mahsulotlari va xizmatlarini boshqarish tizimini chuqur tadqiqot ob'ektiga aylantirish lozim bo'ladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonning turizm xizmatlar bozorida turizm faoliyati bilan shug'ullanayotgan turistik firma va kompaniyalarning asosiy qismi Toshkent shahri, Samarqand va Buxoro viloyatlariga to'g'ri kelayotgan bo'lsa, Namangan, Sirdaryo, Navoiy, Jizzax viloyatlarida ushbu ko'rsatkich juda past darajada saqlanib qolmoqda.

O'zbekistonda turizm xizmatlari sifati va samaradorligini oshirish, uning eksport salohiyatini mustahkamlash uchun soha jozibadorligi va raqobatbardoshligini oshirishga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Turizm xizmatlarining rivojlantirishning ahamiyati katta. Chunki u an'anaviy milliy hunarmandchilik va xalq badiiy ijodi, iste'mol tovarlari va tashqi savdoni kengaytirish, bozor infratuzilmasini takomillashtirishga zamin yaratadi. Shu tufayli mazkur sohani jadal rivojlantirish uchun samarali rivojlanishga to'sqinlik qilayotgan barcha zaif tomonlarni aniqlab, ularni bartaraf qilish bo'yicha tegishli choratadbirlarni ishlab chiqish zarur bo'ladi.

Turizm xizmatlar bozorida turmahsulotni samarali amalga oshirish uchun birinchi navbatda uning mavqeい katta ahamiyatga ega. Turmahsulot mavqeiga ta'sir qiluvchi omillar esa quyidagilardan iborat: murakkab ekologik sharoitlar, siyosiy vaziyatlar, aholi o'rtasidagi tili, dini, millati bo'yicha ziddiyatlar, past darajadagi xizmat turlari, qiziq bo'limgan me'moriy qurilishlar va boshqalar. Aytish joizki, turizm industriyasida o'z ta'sirini o'tkazuvchi eng katta omil–bu turizmning mavsumiyligidir.

Mavsum bo'lмаган ваqtida turizm talablarining oqimlarini tebranishini turg'un holatda saqlab qolish uchun quyidagi masalalarga alohida e'tiborni qaratish lozim, deb hisoblaymiz: yoshlarbop tadbirlar, rok-kontsertlar, o'ziga xos festivallarni doimiy ravishda o'tkazish va ular haqida ma'lumotlarni keng tarqatish; mavsumga bog'liq bo'lмаган ziyorat turizmiga yanada ko'proq e'tiborni qaratish, tegishli infratuzilmalarni yaratish; turistik mavsum bo'lмаган paytlarda ma'lum bir sohalar bo'yicha olimlar va tadqiqotchi ekspertlar uchun ilmiy-amaliy anjumanlar, turli forumlar, madaniy tadbirlar tashkil etish; milliy madaniyatimizni tarannum etuvchi jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan san'atimizni, fol'klorni, milliy maqom va cholg'u asboblari bo'yicha maxsus ko'rik tanlovlar, tasviriy san'at ko'rgazmalari, "Navro'z" sayillari va hosil bayramlarini yanada kengroq miqyosda tashkil etish va h.k.

O'zbekiston turizm industriyasi barqaror rivojlanishiga erishish uchun barcha omillar ta'sirini inobatga olgan holda tarmoq salohiyatidan to'la foydalanib, turistik xizmatlarni ko'rsatishning samaradorligini oshirishga erishish zarur. Bunda jahon turizm xizmatlari bozorida raqobat kurashining avj olganligini hisobga olib, xorijiy mijozlar uchun turizm mahsulotlari jozibadorligini differentsiatsiyalash va diversifikatsiya qilish zaruratidan kelib chiqqan holda ish ko'rishni taqozo qiladi.

Chunki, turizm industriyasi korxonalarini yangi innovatsion yondashuvlar asosida boshqarish ob'ektiv zaruratga aylanib bormoqda. Globallashuv sharoitida jahon turizm xizmatlari bozorining rivojlanish tendentsiyasi, turizm industriyasining rivojlanishiga ta'sir etadi. Bugungi kunda turizm sohasining umumlashgan tavsifi, ko'pchilik holatlarda turizmning mintaqaviy iqtisodiyotdagi va milliy iqtisodiyotdagi ulushi yetarli darajada baholanmasligiga olib kelmoqda. Turizm sohasi turli tarmoqlarning (mehmonxona xo'jaligi, transport, kommunikatsiya, qurilish, qishloq xo'jaligi, chakana savdo, ishlab chiqarish, suvenirlar savdosi va boshqalar) rivojlanishiga ta'sir etgan holda, iqtisodiyot sohalari rivojlanishining katalizatori hisoblanadi.

Turizm sohasi strategik sektor sifatida o'zining rivojlanish tendentsiyasiga ega. Buni O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishning 2019-2025 yillarga mo'ljallangan Kontseptsiyasida keltirilgan prognoz ko'rsatkichlarida ham ko'rish mumkin. Kelajakda turizm xizmatlari eksporti keskin rivojlanish tendentsiyasiga ega bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini rivojlantirish Kontseptsiyasida mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalari sonining o'sish sur'ati, 2025 yilda 2018 yilga nisbatan 329,0 %ga oshirilishi ( $2994,0 * 100 / 910$ ) ko'zda tutilgan<sup>1</sup>. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishning 2019-2025 yillarga mo'ljallangan Kontseptsiyasida belgilangan vazifalarni to'liq bajarish uchun tegishli imkoniyatlar yaratilmoqda.

### **III-bob yuzasidan xulosa**

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekistonda turizm infratuzilmasining rivojlanishi haqida gapirar ekanmiz, mamlakatning asosiy turizm rayonlariga bo'linishi xususida to'xtalib o'tish muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda Respublikada to'rtta asosiy turistik mintaqalari mavjud bo'lib, ular Farg'ona, Samarqand-Buxoro, Toshkent va Xorazm turizm mintaqalaridir. Farg'ona turizm mintaqasi Farg'ona vodiysini o'z ichiga qamrab oladi.

Uning turistik resurslari arxeologik qazilmalar va me'morchilik obidalari, qulay tabiiy sharoitlar, an'anaviy xalq hunarmandchiligi va san'ati mahsulotlari, sanoat va agrar komplekslardan iborat. Bu yerda avtomobil va temir yo'llarning keng tarmog'ini mavjudligi ham Farg'ona mintaqasidan turizm maqsadlarida foydalanishga, uning butun hududida turizm bazalari va dam olish maskanlarini joylashtirishga imkoniyat yaratadi. Toshkent turizm mintaqasi kelgusida turizmning barcha turlarini rivojlantirish uchun universal imkoniyatlarga egadir. Mazkur turizm rayonidagi madaniyat yodgorliklari, poytaxt viloyatining bugungi hayoti, qurilishlar, yangi shahar va qishloqlar, zamonaviy madaniyat, mintaqaning tabiat, boy landshafti, rang-barang o'simlik va hayvonot dunyosi uning diqqatga sazovor bo'lishiga sabab bo'ladigan muhim omildir.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishning 2019-2025 yillarga mo'ljallangan Kontseptsiyasi

Turistik marshrutlarni rekreatsiya va ekologik turizm talablari asosida ishlab chiqilganda ham bu ikkala turning biri-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligini hisobga olishi kerak. Ekologik turizm resurslari bu-tabiatning betakror ko'rinishlari, biologik xilma-xillik, biologik resurs lar, tabiiy mintqalarning o'ziga xos iqlim sharoitlariga qiziqish hisoblani shi turizm sohasidagi mutxassisliklarga ham, ekoturizmga qiziquvchilarga ham ma'lum turistik tur hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ko'plab iqtisodiy faoliyat turlarini, jumladan turizmni infratuzilma bilan ta'minlashni sezilarli darajada o'zgartiradi. Raqamli iqtisodiyotning asosi katta hajmdagi axborotni qayta ishlash ekanligini hisobga olsak, axborotni saqlash, qayta ishlash va uzatishning yuqori texnologiyali tizimi alohida ahamiyatga ega. Potensial sayyoohlarga qulaylik yaratish maqsadida aviachiptalarni xarid qilish, mehmonxonalarini bron qilish, hudud bo'y lab sayohat qilish, diqqatga sazovor joylar, madaniy va tarixiy meros haqida ma'lumot, reytinglarni taqdim etish kabi keng funksiyalarini ta'minlovchi mobil texnologiyalar faol rivojlanishini kutishimiz kerak.

Raqamli iqtisodiyot turizm korxonalarining potentsial yangi shakllarini yaratish imkoniyatini yaratadi. Kadrlar infratuzilmasi sohasida ham jiddiy o'zgarishlar bo'ladi. Ijtimoiy hayotimiz va sayyoohlilik faoliyatimiz tobora texnologik tus olmoqda, jahon turizmi sohasida yangi yagona axborot makonini shakllantirmoqda, axborot bilan ta'minlash va turizmni boshqarish tizimi ishlab chiqilmoqda.

## XULOSA

Globallashuv sharoitida ziyorat turizmi boshqarishning marketing strategiyasini ilmiy-nazariy va amaliy masalalarini tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi va takliflar ishlab chiqildi:

1. Ziyorat turizm industriyasining iqtisodiy samaradorligini oshirish yuzasidan miqdoriy tahlil usullaridan foydalanish zarurati asoslandi va ushbu usulni xizmatlar eksportining o'zgarishiga ta'sir etuvchi tashrif buyuruvchi turistlar soni va har bir turistdan olinadigan o'rtacha daromad hajmining ta'sirini aniqlash usuli ishlab chiqildi.

2. Hozirgi jadal rivojlanayotgan jahon xo'jaligining globallashuvi sharoitida O'zbekistonda turizm industriyasining samarali faoliyat olib borishini ta'minlash va milliy turistik mahsulotning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishning marketing strategiyasini takomillash-tirish masalalariga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

3. Mamlakatimizda mavjud ziyorat turizm infratuzilmasi hamda turistik oqim hajmining iqtisodiy o'sishini jadallashtiruvchi omillar ta'sirini baholashning ahamiyatidan kelib chiqib, turizmni YaIMdag'i ulushini oshirish choralarini tadqiq etildi va ularni rivojlantirishning uzoq muddatli, yani 2019-2025 yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlari ishlab chiqildi.

4. Turistik korxonalar mahsulotining jahon bozoridagi xaridorgirligini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi segmentatsiya va narx siyosatini takomillashtirish bilan bog'liq omillar o'rganildi va ushbu omillar bilan bog'liq ichki imkoniyatlar aniqlanib, tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish yo'llari ko'rsatib berildi.

Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy hamda amaliy tavsiyalarning amaliyatga joriy qilinishi bugungi globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasini takomillashtirish imkonini beradi, turizm sohasi uchun tayyorlanayotgan kadrlar malakasi va ko'nikmasini oshirish evaziga soha samaradorligini oshirish bilan birga 2017-2021 yillarga mo'ljallangan mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga bag'ishlangan harakatlar

strategiyasidagi turizm bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirishga ham xizmat qiladi.

## **AMALIY TAVSIYALAR**

1. Yurtimizda ziyorat turizmini jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish, an’anaviy madaniy-tarixiy turizmni rivojlantirish hisobiga hududlarda yangi turizm yo‘nalishlarini tashkil etish, ularni pasportlashtirish, turizm yo‘nalishlari va turizm ob’ektlari bo‘yicha yagona milliy reystrlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni muvofiqlashtirish;

2. Xorijiy turdosh hamkor tashkilotlar bilan ziyorat turizmi sohasida manfaatli hamkorlik aloqalarini o‘rnatish, yetakchi xorijiy tashkilotlar delegatsiyalarini yurtimizga tashriflarini muvofiqlashtirish;

3. O‘zbekistonda ziyorat turizmini yanada rivojlantirish, ushbu yo‘nalishda mamlakatimiz jozibadorligini oshirish va xalqaro reytinglardagi o‘rnini ko‘tarishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish, xalqaro reyting agentliklari bilan amaliy hamkorlik o‘rnatish.

4. Turizm tarmog‘i uchun, ayniqsa menejment va marketing sohasida malakali kadrlarni sifatli tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, gidlar (ekskursiya yetakchilari) tayyorlash, turizm faoliyati sub’ektlari xodimlarini muntazam ravishda qayta tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi tegishli yo‘nalishi faoliyatini muvofiqlashtirish.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar**

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2019 yil 18 iyuldag'i "Turizm to'g'risida" gi Qonuni. - <https://www.lex.uz/docs/4428097>
- 1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari tog'risida"gi Qarori, 07.02.2018 yildagi PQ-3514-son.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash choratadbirlari to'g'risida" 2018 yil 7 fevraldag'i PQ-3514-sonli Qarori
- 1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning "2022–2024 yillarda O'zbekistonning ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida" PQ- 98-son qarori <https://www.lex.uz/>
- 1.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"
- 1.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni, 03.02.2018 yildagi PF-5326-son. Lex.uz.
- 1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-sonli farmoni. "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Lex.uz.
- 1.8. 2021 yil 9 fevraldag'i PF-6165-son "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori. Lex.uz.
- 1.9. 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljalangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, Lex.uz.
- 1.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/ru/lists/view/3324> [24.01.2020].

## **II. Foydalanilgan asosiy adabiyotlar to'plamlari**

- 2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-fevraldag'i PQ-3509-soni  
"Kirish turizmini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori. //  
[www.lex.uz](http://www.lex.uz)
- 2.2. Pardaev A.X., Norchaev A.N., Rabbimov E.N. Ekologik turizm. -O'quv  
qo'llanma. – T.: TDIU, 2011-84-116-145 b
- 2.3. Ibadullaev N.E., Abduxamidov S.A. Mintaqaviy turizm. O'quvuslubiy  
majmua. Samarqand: SamISI. – 2015. – 169 b.
- 2.4. Pardaev O.M. Menejment. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2019.  
–248 b.; Abduvohidov A.M. Turizmda elektron biznes. O'quv qo'llanma. – T.:  
TDIU. Iqtisodiyot, 2020. -189 b.;
- 2.5. Pardaev M.Q., Atabaev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash.  
Samarqand: SamISI, 2016. -137 b.;
- 2.6. Tuxliev N., Abdullaeva T. Menedjment i organizatsiya biznesa v turizme  
Uzbekistana. – T.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. -2021. -367 s.;
- 2.7. Aslanova D.X. Modeli formirovaniya turistskogo klastera za rubejom.  
//Servis, 2013. - №1. - S: 4-9;

## **III. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar**

- 3.1. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va  
tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida). DSc. ilmiy darajasini olish uchun  
yozilgan dissertatsiya. -S.: SamISI, 2017. -265 b.;
- 3.2. Narchaev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va  
rivojlanish tendensiyalari DSc. ilmiy darajasini olish uchun yoziqan dissertatsiya.  
T.: TDIU, 2021 - 246 b.
- 3.3. M.T. Alieva. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari  
sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari: iqt. fan. dok. diss. avtoref. – S.:  
SamISI, 2019. -77 b; Ibadullaev N.E. Turistik resurslardan foydalanish

samaradorligini oshirish imkoniyatlari (Samarqand viloyati misolida). – iqt. fan. nom. diss. avtoref. – Samarqand, 2010.

3.4. Turaev B.X. Razvitie organizatsionno-ekonomicheskix mexanizmov funkcionirovaniya regionalnogo turizma: -dok. diss. avtoref., 2011.– 38 s.;

3.5. Pardaev M.Q., Atabaev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. - Samarqand: SamISI, 2016. -137

3.6 Safarov B.Sh. Milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – S.: SamISI, 2016. -254 b.;

3.7. Z.N. Turayev Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiyasi –Tashkent-2022 .

3.8. Alieva. M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari: iqt. fan. dok. diss. avtoref. – S.: SamISI, 2019. -77 b;

3.9 Eshtaev A.A. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'i misolida). DSc. dissertatsiya avtoreferati – Samarqand. 2019.

3.10 Gulyamov S.S, Jumaev N.X., Raxmanov D.A. Toshxodjaev M.M. Ijtimoiy sohada investitsiyalarning samaradorligi. Monografiya. – T.: IQTISODIYOT, 2019. –203 b

3.11. Pardaev A.X., Norchaev A.N., Rabbimov E.N. Ziyorat turizm. -O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2011. –84 b Narchaev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari DSc. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: TDIU, 2021

3.12 Turizmda elektron biznes. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU. Iqtisodiyot, 2020. - 189 b.; Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida). DSc. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -S.: SamISI, 2017. -265 b.;

313. Z.N. Turayev Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan DISSYERTASIYASI –Tashkent-2022.
314. Сенинью Б.С. Организация международного туризма. –М; Финансы и статистика 2014 й. 379 с,
- 3.15. Чудновский. А.Д. Управлений индустрией туризма России в современных условиях; учебное пособие. –Ростов н Д; Феникс, 2018.-503 с

#### **IV. Internet tarmog'i veb-saytlari va manzillari**

- 4.1. <https://uzbektourism.uz/news/view?id=2261>
- 4.2. [www.crescentrating.com](http://www.crescentrating.com) (global-muslim-travel-index-2019)
- 4.3. [www.e-unwto.org](http://www.e-unwto.org)
- 4.4. [www.kun.uz](http://www.kun.uz)
- 4.5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
- 4.6. [www.meros.uz](http://www.meros.uz)
- 4.7. [www.stat.uz/uz](http://www.stat.uz/uz)
- 4.8. [www.unwto.org](http://www.unwto.org)
- 4.9. [www.uzbektourism.uz](http://www.uzbektourism.uz)
- 4.10. [uzbekistan-geneva.ch](http://uzbekistan-geneva.ch)
- 4.11. [uzlidep.uz](http://uzlidep.uz)

## Ilovalar.

### 2.2.1-ilova

#### Respublikamizga tashrif buyuradigan, xorijiy ziyoratchlar turistik marshrutlarga kiritilgan ziyoratgohlar nomi va tafsifi<sup>1</sup>.

Nº	Obyektlar nomi	Obidalar haqida ma'lumot
<b>Buxoro viloyati</b>		
1	<b>Ismoil Somoniy maqbarasi</b>	Maqbara IX-X asrlarga oid. Bu yerga dafn qilingan Ismoil Somoniy Buxoroda Somoniylar davlatiga asos solgan yirik siyosiy arbob hisoblanadi. U 848 yil Buxoro shahrida tug'ilgan. 874 yilda Buxoro hokimiga noib, 888 yildan esa butun Movarounnahrga hokim bo'lgan. Ismoil Somoniy markaziy hokimiyatni mustahkamlash siyosatini olib borib, turli yerlardan ulamolar, adiblar, usta va hunarmandlarni Buxoroga to'plagan. Madaniyat rivojiga katta hissa qo'shgan. Bag'dod xalifalaridan ibrat olib, o'ziga ulkan maqbara qurdirgan.
2	<b>Minorai Kalon</b>	XII asr. 1127 yil Qoraxoniylar davlati amiri Arslonxon tomonidan qurilgan bo'lib, pishiq g'ishtdan naqshdor shakllar uslubida ishlangan. Balandligi 50 metr, aylanma eni 9 metr. Minoraning salsa shaklidagi yuqori qismi g'isht o'ymakorligi bilan bezatilib, karniz holiga keltirilgan. O'qsimon tirkak o'rtasida Arslonxonning nomi hamda binokor ustaning ismi Baqo bitilgan. Minora ichida g'ishtin aylanma zinapoya bo'lib, mezanaga olib chiqadi. Minora azon chaqirish uchun masjid va madrasalar yonida yoki ularga tutash qilib qurilgan. Minorai Kalon mezanasining qubbasi va devorlari muazzin ovozini yanada kuchaytirib berishga xizmat qilgan.
3	<b>Vobkent minorasi</b>	XII asr oxiri. Minora 1197-1198 yillarda bino qilingan. Buxoro sadri Burxoniddin Abdulaziz II ning nomi bitilganidan minorani u qurdirganligi bilinadi. Minoraning tepe qismiga devoniylari xatida "Minora 595 hijriy yilda qurib bitkazildi", deb yozilgan. "Kimki masjid qursa, o'ziga jannatdan makon qurban bo'ladi", degan hadis ham bitilgan. O'sha davrda minoraga yondosh bir masjid va bir Madrasai sadriya mavjud bo'lib, u Movarounnahrdagi eng yirik bilim maskani bo'lgan. Minoraning balandligi 38,7 metrdir.
4	<b>Mag'oki Attori masjidi</b>	XII - XVI asr. Bu masjid XII asrda otashparast-majusiyilar ibodatxonasi o'mnida bino qilingan. Ibodatxona atrofga nisbatan bir muncha pastroqqa joylashgan. Forscha "Mag'oki" (chuqurlik) nomi ham shundan olingan. Vaqt o'tishi bilan masjid ko'milib ketgan. Masjidning sharqiy peshtoqidagi yozuvlarga ko'ra, 1547 yilda Abdulaziz ibn Abdulloh masjidni buzdirib, o'rniiga yangi masjid qurdirmoqchi bo'ladi. Ammo naqshbandiya tariqatining o'sha davrdagi peshvosi va xonning murshidi Maxdumi A'zam bunga yo'l qo'yaydi. Ushbu masjid minbarida Abduxoliq G'ijduvoniq,

<sup>1</sup> Ibadullaev N.E. Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari – Samarqand, 2020

		Bahouddin Naqshband kabi pirlar xutba o'qiganlari ham ta'kidlangan. Murshidning so'zlariga itoat qilgan Abdulazizzon masjidning g'arbiy tomoniga chambarchas qilib yangi masjid qurdirgan.
5	<b>Namozgoh masjidi</b>	XII, XIV, XVI asrlar. Bu masjid Buxoroning janubida 1119 yili qurilgan bo'lib, ikkita ulug' hayit kunlari shahar tashqarisiga chiqib, ulkan izdihom bilan namoz o'qishga mo'ljallangan. XV asrda Amir Temur buyrug'i bilan butun mehrob atrofidagi devor va bitiklar ta'mirlangan. XVI asrda Abdullaxon ibn Iskandar (1551-1598 y.) tarafidan ham jiddiy ta'mir ishlari amalga oshirilgan. Masjidning minbaridan zamonning mashhur ulamolari xutbalar o'qishgan. Naqshbandiya tariqatining peshvolari Xoja Muhammad Porso, Maxdumi A'zam, Xoja Islom Jo'yboriy kabi allomalar mav'iza qilishgani tarixdan ma'lum. Namozgoh masjidi o'z davrida ko'pgina mojarolarda sulh tuzish vazifasini ham bajargan.
6	<b>Bo'yonqulixon maqbarasi</b>	XIV asrning ikkinchi yarmi. Bo'yonqulixon Surg'atu o'g'li Chig'atoy o'g'li (1346-1358 y.). Chig'atoylarning davlat ishlarini aslida uning nomidan amir Qazag'on boshqargan. Bo'yonqulixon Chig'atoy xonlaridan birinchilar qatorida Islomni qabul qilgan xondir. Bo'yonqulixon maqbarasi XIV asr o'rtasida Buxorodagi Shayxul olam Sayfiddin Boharziy qabri yaqinida qurilgan. Maqbara binosi mayda naqsh va sirkor koshinlar bilan bezalgan ziyyoratxona va kichik xilxonadan iborat.
7	<b>Chashmai Ayyub maqbarasi</b>	XIV - XVI asrlar. Chashmai Ayyub maqbarasi qadimiy va mashhur mozor o'rnila Ayyub payg'ambarning ramziy qabri ustiga bunyod etilgan. Buxoroning o'ziga xos obidalaridan biri. Taxmin qilinishicha, qadimiy qismining tarixi XII asrga borib taqaladi. Maqbara xilxonalari devorlariga o'yilgan yozuvlarga ko'ra, Amir Temur davrida (mil. 1378-1379 y.) saltanatning Buxorodagi vakili Amir Xujjoj tomonidan qurdirilgan. Rivoyat qilinishicha, Ayyub alayhissalom bu suvsiz joydan o'taturib hassasi bilan yerga urgan va chashma hosil bo'lgan.
8	<b>Ulug'bek madrasasi</b>	XV asr. Amir Temurning nevarasi, Movarounnahr hukmdori Mirzo Ulug'bek tomonidan 1417 yili qurib bitkazilgan. Uning peshtoqida Amir Temur davrida Erondan keltirilgan ustaning avlodni Ismoil ibn Tohir ibn Isfahoniyl al-Bannoyning nomi saqlanib qolgan. Madrasa Abdullaxon II davrida Xo'ja Sa'd Jo'yboriy tomonidan (1586 yilda) butunlay qayta tiklangan. U o'rta asrlarda yirik madaniyat va ma'rifik maskani vazifasini o'tagan
9	<b>Abduxoliq G'ijduvoniy maqbarasi</b>	XV asr. 1103 yilda G'ijduvon shahrida tavallud topgan buyuk tasavvuf va so'fiylik tariqati shayxi Abduxoliq G'ijduvoniy hazratlari sharafiga bag'ishlab 1433 yilda Mirzo Ulug'bek tomonidan Hazrat qabrlarining qibla tomonida muhtasham madrasa qurdirilgan. Madrasanining tashqari qismida, hazrat maqbarasi yonida quduq, chillaxona va minora ham bunyod etilgan. Hazrat xalq orasida "Xojai jahon" nomi bilan mashhur, tasavvufga oid bir qancha asarlar

		muallifidir. O'zbekiston Prezidentining tashabbuslari bilan 1993 yili Abduxoliq G'ijduvoniy tavalludining 890 yilligi keng nishonlandi.
10	<b>Qo'shmadrasa majmuasi</b>	XVI asr. Qo'shmadrasa bir-biriga qarama-qarshi joylashgan Modari Abdullaxon (Abdullaxon onasi) va Abdullaxon madrasalaridir. Gumbaz va devorlarida saqlangan yozuvlarga ko'ra, Modari Abdullaxon madrasasi Abdullaxon tomonidan onasiga atab 1566-1567 yillari qurdirilgan. O'zining nomidagi madrasa esa 1588-1590 yillarda barpo etilgan. Oradagi farq chorak asrga teng bo'lib, aynan shu 25 yil ichida Buxoro me'morligi kuchli rivojlangan. Abdullaxon madrasalar, masjid, darvishlar xonaqohi, ko'priklar, rabotu karvonsaroylar qurilishida behad matonat ko'rsatib, Buxoroning iqtisodiy rivojlanishiga oid ko'p islohotlar o'tkazgan.
11	<b>Baland masjid</b>	XVI asr. Baland masjidning shimol va sharq tomonlari naqshinkor shiftli ayvon bilan o'ralgan. Mehrobning atrofi sirkor sopolchalar bilan bezatilgan, ularga oltin suvi yuritilgan. Uning yon tomonlari va tepasiga to'g'ri burchakli sopolchalardan suls xati bilan yozuvlar bitilgan. Yozuvlar tepasiga, shiftga yaqinroq joyga muqarnaslar ishlangan, ularga ham oltin suvi yuritilgan. Shifti ham naqshlar bilan qoplangan. Keyingi davrlardagi me'morlar Baland masjidning bezaklaridan namuna ko'chirganlar.
12	<b>Xo'ja Zayniddin masjidi</b>	XVI asr. Qadimiy Buxoroning durdonalaridan bo'lgan Xo'ja Zayniddin masjidi eski mahalla ichida joylashgan. Masjid Xo'ja Zayniddin hazratlarining tashabbuslari bilan Imom al-Buxoriy hazratlari sharafiga Buxorodagi eng qadimiy hovuz bo'yiga, usta Mir Dustumbiy tomonidan qurilgan. Xo'ja Zayniddin 1465-1480 yillari Buxoroda qozi kalon lavozimida ishlagan. Masjid Abdulaziz ibn Ubaydullaxon davrida ta'mirlangan. Keyingi ta'mirlash ishlari 1904 yilda Ahadxon ibn Muzaffarxon (1885-1910 y.) buyrug'i bilan amalga oshirilgan.
13	<b>Bahouddin Naqshband majmuasi</b>	XVI asr. Bahouddin Naqshband 1318 yili Buxoro yaqinidagi Qasri Hinduvon qishlog'ida tug'ilgan. Bahouddin Said Amir Kulol, Qusam shayx, Xalil ota kabi o'sha davrning eng yirik turkigo'y va forsigo'y mutasavvif olimlari qo'lida ta'lim olgan. O'zidan oldin o'tgan Yusuf Hamadoniy (XI - XII asrlar), Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy (XII asr) tomonidan yaratilgan xojagon tariqatini tadrijiy davom ettirib, XIV asr shart-sharoitlariga moslagan holda "naqshbandiya" tariqatini yaratdi. Qisqa muddat ichida bu tariqat avval Movarounnahrga yoyildi, undan qo'shni Islom mamlakatlariga o'tdi. Hozirgi Kogon tumanining Qasri Orifon qishlog'ida dafn etilgan Bahouddin Naqshband qabrining ustiga 1544 yili Buxoro xoni Abdulaziz I maqbara qurdirgan. Majmu mustaqillik yillarida qayta ta'mirlandi. 1993 yilda Xoja Bahouddin Naqshband hazratlarining 675 yillik yubiley tantanalari keng nishonlandi.
14	<b>Mir Arab madrasasi</b>	XVI asr. Shayx Said Abdulloh al-Yamaniy tomonidan Buxoro xoni Ubaydullaxon 1533-1539 yillari in'om qilgan mablag' hisobiga qurilgan. Mazkur madrasada boshqa madrasalardan farqli o'laroq, xilxona ham mavjud. Shayx Said Abdulloh al-Yamaniy

		Movarounnahrda tasavvufda ulkan martabalarga erishgan. Mahalliy xalq uni "Arab amiri" ma'nosida "Miri Arab", deb ulug'lagan. Buxoro amiri Ubaydullaxonning o'zi ham shu maqbaraga dafn etilgan. Madrasada XX asrlargacha vaqf mollari saqlangan bo'lib, undan mudarris, talaba va imomlarga maosh tariqasida foydalanishgan. Bugungi kunda madrasada O'zbekiston musulmonlari idorasiga qarashli Mir Arab Islom o'rta-maxsus bilim yurti faoliyat ko'rsatmoqda.
15	<b>Chor Bakr me'moriy majmuasi</b>	XVI- XX asrlar. Nufuzli Xojagon urug'ining boshlig'i Xoja Ismoil tomonidan Buxoroning tashqarisidagi Sumitxon qishlog'ida "Chor Bakr" (to'rt Bakr) nomi bilan mashhur bo'lgan qabristonga asos solindi. Unda asosan (Imom Bakri Sa'd, Imom Bakri Tarxon, Imom Bakri Homid va Imom Bakri Ishoq) oilaviy qabrlarning ihotalari va ularning ortida dafn etilganlarning sag'analari mavjud. 1560-1563 yillari umumiy uyg'unlikdagi uchta imoratdan iborat majmua qurilgan. Xonaqoh va masjidning old tomonlari deyarli bir xil peshtoqlar bilan ajralib turadi. Lekin ularning rejasi va hajmdor qurilishi bir-biridan farq qiladi.
16	<b>Ko'kaldosh madrasasi</b>	Ko'kaldosh madrasasi - Buxoro shahridagi Labihovuz ansambliga kiruvchi arxitektura yodgorliklaridan biri, 1568-1569 yillari qurilgan. Buxoro amirining vaziri Qulbobo Ko'kaldosh qurdirgan ikki qavatlari imorat. Madrasada 160 ta hujra bo'lib, ularda nafaqat Buxoro amirligi, balki butun O'rta Osiyo, Orenburg, Qozon, hatto Qrimdan kelgan talabalar tahsil olganlar. Minoraning dekorativ gumbazlari noyob silliqlangan g'ishtdan "o'rgimchak inisimon" qilib terilgan. Bu gumbazlarni Buxoro maktabi uslubida ishlangan eng yaxshi monumental san'at namunalari, deyish mumkin. Qulbobo Ko'kaldosh Amir Abdullaxon Shayboniy bilan birga sut emishganligi uchun Ko'kaldosh, ya'ni ko'krakdosh deb atalgan.
17	<b>Nodir Devonbegi xonaqohi</b>	XVII asr. Nodir Devonbegi xonaqohi avval karvonsaroy sifatida qurilgan. Qurilish nihoyasiga yetkazilganidan so'ng Buxoro hukmdori Imomqulixon qarori bilan masjidga aylantirilgan. Xonaqoh 1914-1916 yillarda Buxoroning oxirgi amiri Sayyid Olimxon tomonidan ta'mirlangan.
18	<b>Abdulazizzon madrasasi</b>	XVII asr. Buxorodagi Ulug'bek madrasasiga ro'para qilib bunyod etilgan oxirgi eng yirik madrasadir. An'anaviy uslubda qurilgan Abdulazizzon madrasasida xonaqoh, gumbaz, hujra va yo'laklarning joylashuvi Ulug'bek madrasasi kabi oddiy va qulay bo'lgan. Biroq binoni ganch va jilvirkorlik bilan bezashda iroqiy, shuningdek, sharqiy va hind uslublarining mujassamlashib ketgani uni rang-barang va o'z davri uchun o'ziga xos qilib turadi.
<b>Samarqand viloyati</b>		
19	<b>Shohizinda maqbaralar</b>	XI - XI asrlar. Samarqandning Afrosiyob tepaligi janubida barpo qilingan bu majmuaga yigirmadan ziyod maqbara, masjid, xonaqoh va chillaxonalar kiradi. Ularning ichida eng qadimiysi - Muhammad

	<b>majmuasi</b>	(s.a.v.) ning amakivachchalari Qusam ibn Abbosning maqbarasi. Inshootlarning aksari XIV - XV asrlarga mansub. Majmua tarkibida sohibqiron Amir Temurning singlisi Shirinbeka oqa, opasi Turkan oqa va xotini Tuman oqalarning maqbaralari ham mavjud.
20	<b>Xoja Abdu Darun maqbarasi</b>	XII asr, XV asrning birinchi yarmi. Samarqand qal'a devorining sharqiy tomonida (darun - ichkari) joylashgan qadimgi ziyoratgoh. Markazida eng yirik bino - xonaqoh (XV asr) ko'zga tashlanadi. Uning peshtoqi, gumbazi va devorining bezaklari Ulug'bek davri me'morligi mahsuli ekanidan darak beradi. Xonaqohning ichida IX asrda yashagan avliyo, alloma Abdu Ma'ziddinning qabri bor. Xoja Abdu Darun padari buzrukvorlarining nomi Xoja Abduqodir as-Said (Xoja Abdu Berun) bo'lib, Samarqandda hokimlik qilgan. Xoja Abdu Darunni Xojai Kunj, deb ham ataganlar. Xoja 247 hijriy yilning zulqa'da oyida (mil.861 yil may oyi) vafot etgan.
21	<b>Bibixonim masjidi</b>	XIV - XV asrlar. Amir Temur 1399-1404 yillari qurdirgan. Zilzilalar ta'sirida masjidning ko'p qismi yemirilib, faqat shimoliy-g'arbiy minoraning pastki qismi saqlanib qolgan. Amir Temurning katta xotini Bibixonim Chig'atoy ulusi xoni - Qozonxonning qizidir. U barcha malikalardan ulug' hisoblanib, "Katta xonim" yoki "Bibixonim", degan unvonga loyiq bo'lgan. Bibixonim zamonasining yuksak idrokli, tadbirli, maslahatgo'y, yetuk aql-zakovatli ayollaridan edi. Ilm-ma'rifatga alohida e'tibor berib, tolibi ilmlarga homiylik qilgan, shaxsiy mablag'i hisobidan ulkan madrasa qurdirgan.
22	<b>Go'ri Amir maqbarasi</b>	XV asr. Amir Temur nabirasi Muhammad Sultonning fojiali o'limidan so'ng 1403 yili ushbu maqbarani qurishga farmon bergan. Temuriylar sulolasiga mansub kishilar - avvalo Sohibqironning o'zi, uning piri Said Baraka, o'g'llari Umarshayx, Mironshoh va Shohruh, nabiralari Muhammad Sulton, Ulug'bek va boshqalar dafn etilganlar. Maqbara 1991-1996 yillari katta ta'mir qilindi. .
23	<b>Xoja Ahror Valiy (1404-1490) majmuasi</b>	XV asrga mansub me'moriy yodgorliklardan biri. U madrasa, masjid va minora hamda hovuzdan iborat. Madrasa 1630-1631 yillarda Nodir Devonbegi mablag'i hisobiga qurilgan. Xoja Ahror Valiy o'z zamonlarida butun Movarounnahr va Xurosonda mashhur shaxs bo'lgan. Juda katta yer-suv, mol-mulkka ega bo'lib, butun umri, kuchg'ayrati va bor mol-mulkini yurt tinchligi, obodligi yo'lida sarflagan. Natijada mamlakatning ichki va tashqi siyosiy hayotida yetakchi o'rincutgan. Xoja Ahror Valiyni oddiy fuqaro ham, akobir ham o'zlariga birday pushtipanoh deb bilar edi. Xalqparvar, din va siyosat arbobi Xoja Ahror Valiy 1404 yili qadim Shoshning (Toshkent) Bog'iston qishlog'ida tug'ilib, 1490 yili Samarqandda vafot qilgan. Tasavvufga oid bir qancha asarlar yozgan. Uning "Risolayi validiya" asari xalq ichida mashhur bo'lgan
24	<b>Maxdumi A'zam maqbarasi</b>	XVI asr. Ko'hna Samarqand shahrining shimoliy-g'arbiy tarafida, Oqdaryo va Qoradaryo oralig'ida joylashgan Dahbed qishlog'ida XVI asrda yashab, ijod etgan mutasavvif va olim Maxdumi A'zam qabri

		bor. Mavarounnahrlik yirik diniy arbob, naqshbandiya tariqatining rahnamosi va nazariyotchilaridan biri Maxdumi A'zam (to'liq ismi Said Ahmad Xojagiy ibn Said Jaloliddin Kosoniy Dahbediy) Farg'ona vodiysining Koson shahrida tavallud topgan. Tasavvuf ta'lomitiga oid fikrlari naqshbandiya nazariyasiga asoslangan. Undan boy ilmiy meros qolgan. 30 dan ortiq risolalari O'zFA Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanmoqda.
25	<b>Xoja Abdu Berun majmuasi</b>	XVII asr. Xoja Abdu Berun xonaqohi Samarqand qal'a devorining janubida joylashgan. XVII asr tarixiy yodgorligi. Ko'hna qabr yoniga toqu ravoqli xonaqoh-masjid, o'rtasiga jamoatxona, atrof burchaklariga hujra va zinalar qurilgan. Qo'shqavat sirkor gumbaz, poygumbaz va devorlar sirkor g'ishtlar va koshinkor naqshlar bilan bezatilgan. Jamoatxonaning uch tomonidan eshiklar ochilgan. Mehrob oddiy, xonaqoh ham xushbichim, sodda va fayzlidir. Uning yonboshida avliyo Xoja Abdu Berun qabri bor. Katta hovli sahnida supa, hovuz va darvozaxona ko'zga tashlanadi.
26	<b>Sherdor madrasasi</b>	XVII asr. Sherdor madrasasi Registon majmuasiga kiradigan obida bo'lib, u Samarqand hokimi Yalangto'sh Bahodir tomonidan 1619-1636 yillari Mirzo Ulug'bek xonaqohi o'rniga qurdirligani. Sherdor madrasasi Ulug'bek madrasasining ro'parasida bir o'q chizig'i bo'y lab joylashgan. O'rta Osiyo me'morligida ko'p uchraydigan qo'sh uslubdan foydalanilgan. Peshtoq ravog'i tepasi diqqatga sazovor: qizg'sh zarhal sherni oq ohuni quvmoqda. Quyosh bodomqovoq, qiyiq ko'zli yuz shaklida tasvirlanib, zarhal tusli yog'du bilan hoshiyalangan. Madrasa peshtoqiga Yalangto'sh Bahodirni ulug'lovchi she'r bitilgan. Sherdor so'zi «Sher aksi bor », degan ma'noni anglatadi.
27	<b>Tillaqori madrasasi</b>	XVII asr. Samarqand Registonida eng keyingi qurilgan nihoyatda xushbichim va o'ziga xos madrasadir. Ulug'bek davrida qurilgan Mirzoyi karvonsaroyi o'rniga 1646-1647 yillari Samarqand hokimi Yalangto'sh Bahodir farmoyishiga ko'ra, madrasaga va jome masjidga mo'ljallab qurilgan. Registon majmuidagi Ulug'bek va Sherdor madrasalariga uyg'unlashib ketgan. Tillaqori madrasasining masjidi ichiga boshqa bir katta obida qurishga yetadigan miqdorda oltin sarflangan. Shuning uchun ham madrasa «Tillaqori », ya'ni «tilladan ishlov berilgan», deb ataladi. Podshohlikdan ko'ra binokorlik ishlarini afzal ko'rgan Yalangto'sh Bahodir 1656 yili vafot qildi. Vasiyatiga ko'ra, uni Dahbeddag'i Maxdumi A'zam ziyyaratgohiga 85tro etishadi.
28	<b>Hazrati Xizr masjidi</b>	XVIII – XIX asrlar. Bu masjid Samarqanddagi Shohizinda majmuasi qarshisidagi tepalikda joylashgan bo'lib, Muhammad ibn Vase' Ohanin darvozasi yaqinida, so'g'diyilar ibodatxonasi o'rniga qurilgan. Rivoyatlarda Hazrati Xizr suv va o'tloqlarning homiysi sifatida ta'riflanadi.
29	<b>Imom al-Buxoriy</b>	Samarqand viloyati Xartang qishlog'idagi Imom Buxoriy ziyyaratgohiga 70-yillar boshida O'rta Osiyo va Qozog'iston

	<b>yodgorlik majmuasi</b>	musulmonlari idorasi tomonidan qabr toshi qo'yilgan bo'lib, 70-yillar o'rtalarida qabr ustiga gumbazli ayvon qurilgan. 1998 yilda Imom Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy hisobda 1225 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoyishiga muvofiq qisqa fursatda muhtasham yodgorlik majmua bunyod etildi. «Hadis ilmida Amirul al-mo'miniyn», degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan alloma hijriy 194 yil shavvol oyining 13 kuni (milodiy 810 yil 20 iyul) Buxoro shahrida tavallud topgan. 10 yoshidan boshlab Movarounnahrdagi turli roviylardan eshitgan hadislarni yodlay boshlagan, shuningdek, Abdulloh ibn al-Muborak va Vakiy kabi olimlarning hadis to'plamlarini mutolaa qilib yod olgan. 825 yili Imom Buxoriy validai muhtaramasi va inisi Ahmad bilan Makkai Mukarramaga safar qilib, u yerda 6 yil yashagan. Hayotining ko'p qismini xorijiy mamlakatlarda musofirlilikda o'tkazib, ko'plab olimlardan ta'lim olgan. Xorijdan qaytgach, Buxoroda ko'plab shogirdlarga hadis ilmidan saboq bergan. Imom Buxoriy avlodlarga 20 dan ortiq meros qoldirgan. Ulardan «Al-Jome' as-sahih», «Al-Adab al-mufrad», «At-Tarix as-sag'ir» kabilar mashhurdir.
30	<b>Imom al-Moturidiy maqbarasi</b>	Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan maqbara 2000 yilda Samarqandning Chokardiza qabristonida bunyod etilgan. Buyuk vatandoshimiz Abu Mansur al-Moturidiy ilmiy-diniy merosining xalqimiz ma'naviy-ruhiy hayotidagi o'rni beqiyosdir. U Islom olamida "Imom al-huda" (Hidoyatga boshlovchi imom) va "Imom al-mutakallimin" (Kalom olimlarining imomi) degan sharaflı unvonlar bilan mashhur bo'lgan. Ismlari Muhammad, "Moturidiy" taxallusini Samarqandning Moturid qishlog'ida tavallud topganliklari uchun olganlar. Manbalarning dalolat berishicha, Al-Moturidiy fiqh va kalom ilmi bilan yoshlikdanoq qiziqib, hanafiy mazhabi olimlaridan tahsil olgan. Ko'plab mashhur faqih va muhaddislar bilan muloqotda bo'lgan, butun umri davomida shu sohaga oid ko'plab asarlar yozib qoldirgan. Kitob-tavhid", Kitob maqomat", "Tavilot ahl as-sunna "asarlari shular jumlasidandir.
31	<b>Imom ad-Doramiy maqbarasi</b>	Maqbara 2000 yil bino qilingan. Hadis ilmining sultonı Imom al-Buxoriyning ustozlaridan biri Imom Abdurahmon ad-Doramiy as-Samarqandiy hijriy 181 (mil. 798) yili Samarqandning qadimiy Doram mavze'ida tavallud topgan. Yoshligidanoq Islom fiqhshunosligi va hadisshunosligi bilan mashg'ul bo'lgan. 86 tro, Madina, Misr, Shom, Bag'dod, Xuroson kabi yurtlarda turli olimlardan saboq olgan. Imom ad-Doramiy ko'plab asarlar yozgan. Uni dunyoga mashhur etgan asari esa "Musnad" (Sunan) nomli hadislar to'plamidir. Mazkur kitobni «Musnadi Doramiy» yoki «Doramiy sunnatlari», deb ham atashadi. Imom ad-Doramiy hijriy 255 (mil. 869) yilda vafot etgan. Mustaqillik yillari qabri atrofi obod etilib, ziyyaratgohga aylantirildi.
<b>Xorazm viloyati</b>		
32	<b>Sherg'ozixon madrasasi</b>	VIII asrning birinchi yarmi. Bu madrasa Xorazmdagi o'quv muassasalari orasida eng ko'hnasidir. Uni Xiva xoni Sherg'ozixon 1719 yili Mashhadga muvaffaqiyatli safar qilgandan so'ng ana shu g'olibona safar sharafiga qurdirgan. Madrasa binosi bizning davrimizgacha asl holicha to'la yetib kelmagan. Yillar mobaynida

		nurab, yaroqsiz holga kelib qolgan. Mazkur madrasa o'z davrida yirik bilim o'chog'i bo'lib, unda ko'plab tolibi ilmlar tahsil olganlar. Jumladan, turkman xalqining mutasavvif shoiri Maxtumquli ham mana shu bilim dargohida ta'lif olgan.
33	<b>Yusuf Hamadoniy maqbarasi</b>	Imom Yusuf Hamadoniy XII asrda yashagan, go'zal axloqi, yuksak maqomati va karomati bilan mashhur bo'lgan ulug' mutasavvif. Bag'dod, Isfahon va Samarqand kabi ko'hna shaharlarning ilmiy majlislarida ishtirok etgan. Yusuf Hamadoniy "xojagon"lar tariqatining asoschilaridan biri hisoblanadi. Tariqat ilmining yorqin namoyandalari Abduxoliq G'ijduvoni va Ahmad Yassaviylarga ustozlik qilgan. Tasavvufga oid asarlar muallifi.
34	<b>Shayx Muxtor Valiy maqbarasi</b>	XVIII, XIX asrlar. X asrda Xorazmga kelgan arab sayyohi Al-Maqdisiyning yozishicha, Juma masjidi X - XI asrlarda bunyod etilgan. Masjidning dastlabki binosi asrlar davomida nurab yo'q bo'lib ketgan va o'rniga 1788 yilda xuddi avvalgi uslubda yangi masjid qurishgan. Ichan qal'aning qoq markazida qad rostlagan bu tarixiy obidaning o'ziga xos tomoni shundaki, uni o'yma naqshi ustunlar ko'rgazmasi, desa bo'ladi. Chunki bu yerda jami 212 ta ustun bo'lgan. Hozirda ulardan 25 tasi saqlanib qolgan. Juma masjidi necha zamonlar kishilarga ilm-ma'rifat tarqatish o'chogi vazifasini o'tagan.
35	<b>Said Alouddin maqbarasi</b>	XIV - XVIII asrlar. Bu maqbara XIV asrda so'fiy Amir Kulol tomonidan ustozi Shayx Alouddin qabri ustiga qurdirilgan. Zamonlar o'tib, maqbara atrofida turli qabrular ko'payishi tufayli u ko'milib ketgan. Ilmiy qazilmalar natijasida mazkur yodgorlikning dastlabki ko'rinishiga doir ma'lumotlar aniqlandi. Maqbara ziyoratxona va daxmadan iborat. Daxma va sag'analar o'ymakor naqshlar bilan bezatilgan. Ularning birida Said Alouddinning vafoti sanasi 1303 yil 18 mart, deb yozilgan. Maqbarani 1825 yili me'mor Hibbiqulixo'ja o'g'li Hamidxo'ja ta'mirlagan
36	<b>Juma masjidi</b>	XVIII, XIX asrlar. X asrda Xorazmga kelgan arab sayyohi Al-Maqdisiyning yozishicha, Juma masjidi X - XI asrlarda bunyod etilgan. Masjidning dastlabki binosi asrlar davomida nurab yo'q bo'lib ketgan va o'rniga 1788 yilda xuddi avvalgi uslubda yangi masjid qurishgan. Ichan qal'aning qoq markazida qad rostlagan bu tarixiy obidaning o'ziga xos tomoni shundaki, uni o'yma naqshi ustunlar ko'rgazmasi, desa bo'ladi. Chunki bu yerda jami 212 ta ustun bo'lgan. Hozirda ulardan 25 tasi saqlanib qolgan. Juma masjidi necha zamonlar kishilarga ilm-ma'rifat tarqatish o'chogi vazifasini o'tagan.
37	<b>Pahlavon Mahmud maqbarasi va majmuasi</b>	XVIII - XIX asrlar. Bu maqbara 14-asrda yashab o'tgan ulug' mutafakkir shoir, faylasuf olim, kuragi yerga tegmagan pahlavon, mohir po'stindo'z va telpakdo'z usta Pahlavon Maxmud sharafiga bunyod etilgan. Bu majmua Xivada "Hazrati Pahlavon Pir" nomi bilan ham mashlurdir. Pahlavon Mahmud 1247 yili tug'ilib, 1326 yili vafot etgan. Uni Xorazmda "Piryor valiy", "Polvonpir" deb ham atashadi. Shoir va mutafakkir Pahlavon Mahmud asli ko'hna Urganchdan bo'lib, Xivada yashagan.
38	<b>Said Magrumjon maqbarasi</b>	XIX asrning ikkinchi yarmi. Ichan qal'a majmuasi tarkibiga kirgan Sircali arig'i bo'yidagi Cho'pon Eshon qabristonida joylashgan. Bu mukammal madaniy-me'moriy majmuaga mahobatli uchta obida kiradi. Ularning eng yirigi to'g'ri to'rtburchakli bo'lib, turli

		kattalikdagi uchta madrasadan iborat. Kattasi uzunasiga janubiy-sharqqa cho'zilgan, ikkita kichkina madrasa g'arb tomondan unga birikkan bo'lib, g'arb-sharq tomonga cho'zilgan. Hovli ichkarisida g'arb tomondan markazga ozgina siljigan holda Shayx Said Magrumjon maqbarasi joylashgan. Uning tepasiga katta gumbaz qurilgan. Said Magrumjon zamonasining yetuk allomalaridan hisoblangan. Xalqqa ma'rifat tarqatishda katta xizmat qilgan.
39	<b>Olloqulixon madrasasi</b>	XIX asrning bиринчи ярми. Xивадаги Olloqulixon мадрасасиning qurilishi Ichan qal'анинг yaxlit majmua bo'lib shakllanishi tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Madrasa qаршиидаги Xo'jamberdibiy мадрасасига o'xshatib ishlangan. Natijada O'rta Osiyo me'morligida keng tarqalgan usulda qо'shmadrassa hosil bo'lган. XIX asrdan yodgorlik bo'lган bu madrasani Xiva xoni Muhammad Rahimxonning o'g'li Olloqulixon 1834 yili qurdirgan. Olloqulixon mamlakatda bунyodkorlik ishlariga katta ahamiyat bergen. Uning davrida karvonsaroy, 88 kb, toshhovli, Oqmasjid, Saidboy masjidi kabi inshootlar barpo etilgan.
40	<b>Muhammad Aminxon madrasasi</b>	XIX asr. Xorazm me'morligining yorqin namunalaridan hisoblangan, 1851-1855 yillari qurilgan bu madrasaning tashabbuskori Xiva xoni Muhammad Aminxon edi. Madrasada 125 ta hujra bo'lган. XVIII asrning 60-yillarida Xiva xonligida hokimiyatni qо'ng'irotlar qabilasidan bo'lган inoqlar asta-sekin qо'llariga ola boshladilar. Ular badavlat shaharliklar va ruhoniylarning qо'llab-quvvatlashiga erishdilar. Ana shu davrda hukmronlik qilgan Inoq Muhammad Aminxon (1763-1790 y.) qishloq xo'jaligi va savdo ishlari rivojiga keng yo'l ochib berdi. Bu davrda dehqончилик va hunarmандчиллик asta-sekin tiklana boshladi
41	<b>Muhammad Rahimxon madrasasi</b>	XIX asrning ikkinchi yarmi. Xивадаги me'moriy yodgorliklardan biri bo'lган bu madrasa 1871 yilda Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (Feruz) tomonidan qurilgan. Muhammad Rahimxon II 1844-1910 yillarda yashab o'tgan. U mamlakat madaniyati va iqtisodiy hayotini ko'tarishda ilg'or tadbirlarni amalga oishrdi. Madaniyat va fan arboblariga homiylik qildi. O'zi ham Feruz taxallusi bilan ijod qilgan. Muhammad Rahimxon ulamolarga, shoиру adiblarga, umuman, turli sohaning fazilatli kishilariga homiylik ko'rsatgan xondir. She'riyatda Ogaxiyni va iyomon-ye'tiqod, dinu diyonat hamda shariatdaadolatpeshaligi bilan mashhur bo'lган qozikalon, shayxul islom Salimoxun Matnona o'g'lini ustoz va pir tutdi. El-ulusning iqtisodiy-madaniy darajasini ko'tarish choralarini ko'rди. U Turkiston xonliklarida birinchilar qatorida toshbosmaxona va suratxona qurdirgan.
42	<b>Islomxo'ja madrasasi va minorasi</b>	XX asr boshlarida qurilgan Islomxo'ja madrasasi va minorasi Xivaning dovrug'ini olamga taratgan. Uni yaratish tashabbuskori va homiysi Asfandiyorxonning bosh vaziri Islomxo'ja bo'lган. Minorasi Xivaning faxridir. Islomxo'ja o'z davrining fan, madaniyat, texnika yangiliklariga g'oyat qiziquvchi davlat arbobi edi. U Xorazmni

		dunyoning eng rivojlangan davlatlari qatorida ko'rishni istar, Vatanii tashqi dunyo bilan bog'lashga intilar, ilg'or g'oyalar bilan to'lib-toshgan inson edi. U Xiva qadimiy obidalarini saqlash, ta'mirlash ishlariga ham katta g'amxo'rlik ko'rsatgan. Xonlikni idora etishdagi xizmatlari uchun "Vaziri 89kbar" unvoni berilgan. U Xivada pochta va telegraf binosi, Nurullaboy saroyi, maktab va kasalxona qurdirgan.
43	<b>Mahmud az-Zamaxshariy ziyoratgohi</b>	Maqbara o'zi ko'hna Urganchda – hozirgi Turkmaniston hududida joylashgan. Abul qosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy hijriy 467 yili qadimiy Zamaxshar qishlog'ida tug'ildi. Urganchda zamonasining ulug' allomalari qo'lida ta'lim oldi. Ilohiyoshunoslik sohasida bilim va malakasini oshirish maqsadida Makkai mukarramaga bordi. U yerda alloma tafsir ilmi sohasida ulug' kashfiyat sanalgan "Al-Kashshof" asarini yaratdi. Ka'batullohda uzoq vaqt turib qolganidan unga "Jorulloh" (Allohning qo'shnisi) unvonini berdilar. Allomaning tafsir va hadis, sarf va nahv, ilmi adabga doir 50 dan ziyod asarlari ilm olamida yuksak qadrlanadi. "Al-Kashshof" tafsiri necha zamonlardan beri musulmon olamidagi oliy o'quv muassasalarida darslik sifatida o'qitib kelinmoqda. Buyuk allomaning lug'ashunoslik, nazm, xalq, og'zaki ijodi, jo'g'rofiya va boshqa sohalarga doir asarlari ham bizgacha yetib kelgan. 1995 yilda bu ulug' alloma sharafiga Xorazmda majmua barpo etilib, tavalludining 920 yilligi xalqimiz tomonidan keng nishonlandi.
<b>Surxondaryo viloyati</b>		
44	<b>Hakim at-Termiziy yodgorlik majmuasi</b>	X-XIV asrlar. Bu me'moriy obida Eski Termiz qal'asining shimoliy-g'arbida barpo etilgan. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan ibn Bashir al-Hakim at-Termiziy qator diniy-falsafiy asarlar muallifi, din arbobi, yirik mutasavvif va mashhur olimdir. Hakim at-Termiziy maqbarasi qadimgi xonaqoh hujralaridan biri bo'lib, alloma shu yerda faoliyat yuritgan: muridlari, shogirdlari va boshqa darvishlarni qabul qilgan, ular bilan suhbatlashgan. Shu xonaqohda dafn etilgan. Qabr ustiga Amir Temur o'g'li Shohruh Mirzo zamonida katta qabrtosh o'rnatilgan. Qabrtosh Temuriylar davridagi toshtaroshlik, o'ymakorlik va bezakchilik san'atidan dalolatdir. Hakim at-Termiziy 880 yil Termizda vafot etgan. Hayoti davomida to'rt yuzdan ortiq asar yozgan. Shulardan o'ndan ziyodrog'i bizning zamonamizgacha yetib kelgan. Hadis ilmiga bag'ishlangan "Jome' al-usul" nomli qo'lyozma asari O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanmoqda.
45	<b>Sulton Saodat majmuasi</b>	XI asr. Sulton Saodat sayyidlar sulolasining maqbarasidir. Bu me'moriy majmua oilaviy maqbaralar va marosim xonalaridan iborat bo'lib, asrlar davomida tashkil topgan yaxlit inshootdir. Birinchi maqbarada IX asrning ikkinchi yarmida vafot etgan Hasan al-Amir ismli sayyidning xoki yotibdi. U shu atrofdagi yerlarning egasi, Payg'ambarimiz avlodlaridan hisoblanadi. Sulton Saodat mo'g'ullar istilosi paytida vayron qilingan edi. Termizning sharqiy tomoniga joylashgan bu ziyoratgoh yangidan bunyod etilgan. Qariyb yetti asr (X - XVII) davomida shakllangan bu me'moriy majmua jami yigirmaga yaqin qabrni o'z ichiga oladi.
46	<b>Abu Iso at-Termiziy</b>	Hozirgi Sherobod tumani hududida joylashgan ushbu maqbara XI-XII asrlar me'moriy yodgorliklaridan hisoblanadi. At-Termiziy hijriy

	<b>maqbarasi</b>	209 yilda (mil. 824-825 y.) tavallud topgan. Hofiz az-Zahabiy "Miyzon al-ye'tidol "kitobida Termiziyning hijriy 279 yilda vafot etganini zikr qilib, "Vafot etgan vaqtlarida 70 yoshda edilar", deydi. Ismu nasablari - Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn az-Zahhok as-Sulamiy al-Bug'iy at-Termiziy. Alloma to'plagan hadislar ishonchiligi va mo'tabarligi jihatidan "Sihohi sitta" (oltita eng sahih hadislar to'plami) ning biri sanaladi. Yoshliklarida ko'p yillar davomida Iroq, Hijoz kabi arab o'lkkalarida hadis o'rganib, ularni jamlagan. 250 hijriy yilda Termizga qaytganlar. Shu yili Nishopurda Imom al-Buxoriy bilan uchrashib ko'p hadislar xususida mubohasalar olib borganlar. Bu buyuk vatandoshimizdan "Al-Jome' as-Sahih" ("Sunani Termiziy"), "Ash-Shamoil" ("Shamoili Muhammadiya"), "Al-Hol", "At-Tarix", "Az-Zuhd", "Al-Asmou val-kunya" ("Ismlar va kunyalar") kabi asarlar bizgacha yetib kelgan.
47	<b>Jarqo'rg'on minorasi</b>	XII asr boshi. Hozirgi Jarqo'rg'on tumanining Alisher Navoiy nomidagi jamoa xo'jaligida joylashgan. O'rta Osiyoning shu turdag'i minoralari orasida o'zining jimjimador o'n olti tutamlik yarim ustuni bilan ajralib turadi. Bu ustunlar qavariq, (qovurg'a) shaklida bo'lib, yuzasi yotiqli kesimda ko'p yaproqli gulga o'xshaydi. Quyiga tusha borgan sari qavariqlar go'yo yig'ilib ketganday tuyuladi. Yuqori qismida esa ular ravoqchalar zanjiri va enli epigrafik hoshiya bilan jipslashgan. Minora asosi baland sakkiz qirrali kursiga o'rnatilgan. Har bir qirraning markazida xushbichim ravoqli tahmonlar bor. Ana shu tahmonlardan bittasi janubiy-g'arbiy qirrada minora ichki aylana zinasiga olib chiqadi.
<b>Qashqadaryo viloyati</b>		
48	<b>Oqsaroy</b>	XIV asr. 1378-1379 yillarda Amir Temur Xorazmdagi barcha usta va hunarmandlarni Keshga keltirib, shaharda ulkan obodonlashtirshi ishlarini olib borgan va o'z davri uchun tengi bo'limgan Oqsaroyni qurdirgan. Oqsaroy poydevoriga qo'yilgan dastlabki g'ishtlar oltin qumdan tayyorlangan. Saroy bezaklari orasiga Alloh taologa hamdu sanolar va Amir Temurga maqtov so'zları bitilgan.
49	<b>Hazrati Imom maqbarasi</b>	XIV asr. 1384 yilda Amir Temur avliyo Muhammad Shayboniyning xokini keltirib Dorussiyodatga, o'g'li Jahongir qabri oldiga dafn ettirgan. Amir Temur ko'rsatmasi bilan xorazmlik ustalar baland bino barpo etganlar. Muhammad Shayboniy musulmon olamida "Hazrati Imomi Bag'dodiy "nomi bilan mashhur bo'lgan. Majmuaga Amir Temur o'zi uchun katta xilxona qurdirgan. Majmuaning ulkan ark va devorlari, o'n olti qirrali asosga qurilgan gumbazlari qimmatbaho tosh va shishalardan ishlangan naqshinkor bezaklar bilan bezatilgan.
50	<b>Shayx Shamsiddin Kulol maqbarasi</b>	XIV asr. Shayx Shamsiddin Kulol (yoki Kulol Faxuriy) Amir Temur va uning otasi Amir Tarag'ayning ustozasi, o'z davrida ulkan hurmat va e'tiborga ega bo'lgan ulamolardan. Mil. 1370 yilda Shayx dafn etilgan joyga Amir Temur maqbara qurdirgan. 1373 yilda olamdan o'tgan Amir Tarag'ay ham o'zining vasiyatiga binoan ustozasi Shamsiddin Kulol qabrining oyoq tomoniga dafn etildi. Maqbara to'g'ri to'rtburchak shaklda qurilgan bo'lib, kirish qismiga ulkan gumbaz ishlangan, dastlabki qo'yilgan ikkita katta ustun va asosiy poydevor bugungi kungacha saqlangan, devor va gumbazlar Amir Temur davriga xos o'ymakor g'ishtdan bezak va jilva bilan bezatilgan.
51	<b>Xo'ja Jarroh</b>	Majmua XIV asrga oid bo'lib, hozirgi Qarshi shahrining Xudoyzod mahallasida joylashgan. Rivoyatlarga ko'ra, Sohibqiron Amir Temur

	<b>yodgorlik majmuasi</b>	XIV asr oxirlarida Shom va Iordaniya yerlarini zabit etgan paytda ulug' sahabalardan biri Abu Ubayda Omir ibn Abdumoh ibn al-Jarroh qabri xokidan keltirib, Qarshi shahrida dafn ettirgan va u yerga maqbara qurdirgan. Al-Jarroh bиринчи bo'lib "amirlarning amiri ", degan laqab olgan.
52	<b>Husam ota majmuasi</b>	XIV, XVI, XIX asrlar. Hazrat Husam ota asli Makkadan Movarounnahrga hijrat qilgan din arbobi bo'lib, Tedyon va Pedyon qishloqlariga asos solgan hamda yerli aholi orasida Islom dinini targ'ib qilgan. U 1090-1091 yillarda olamdan o'tgan. Husam ota va avlodlari dafn etilgan qabr ustiga uning muridlari tomonidan maqbara va majmua barpo etilgan. Maqbarada mo'g'ul xonlaridan Oqatoy va Masratoy ismlari ko'rsatilgan qabr toshlarining mavjudligi bu yerga XIII - XIV asrlarda mo'g'ullar ham dafn etilganini ko'rsatadi.
53	<b>Gumbazi Sayyidin maqbarasi</b>	XV asr. 1437-1438 yillarda bunyod etilgan Gumbazi Sayyidon maqbarasi o'ziga xos maqbaralar majmuasini tashkil etadi. Gumbazlariga naqshinkor bezaklar tushirilgan. Undagi yozuvlarga asoslanib Mirzo Ulug'bek avlodlariga oid, degan taxminlar qilinadi. XV - XVII asrlarda maqbara ichiga Termiz sayyidlari ismlari ko'rsatilgan bir necha qabrtoshlar olib kirilgan. Bu keyinchalik maqbaraning Gumbazi Sayyidon, deb atalishiga olib kelgan. Binoning asosi katta bir xonaqoh, gumbaz hamda unga ulanib ketgan mayda xonalardan iborat.
54	<b>Langar ota majmuasi</b>	XV- XVI asrlar. Langar ota me'moriy majmuasi hozirgi Qamashi tumanining Langar qishlog'ida XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida juda katta obro'-ye'tibor va salohiyatga ega bo'lган Kattalangar shayxlari tomonidan qurilgan. Maqbarada «Langar ota » nomi bilan tanilgan Shayx Muhammad Sodiq (1460-1545), otasi shayx Abul Hasan va avlodlari 91 afn etilganlar. Maqbarada Amir Temur avlodidan bo'lган ismi ko'rsatilmagan bir shahzodaning ham qabr toshi mavjud.
<b>Toshkent viloyati</b>		
55	<b>Shayx Zayniddin buva maqbarasi</b>	XIII, XIX asrning bиринчи yarmi. Shayx Zayniddin me'moriy maqbarasi mil. 1214 yilda tug'ilgan Shayx Zayniddin Ko'yи Orifon nomiga qurilgan. Otalari asli bag'dodlik, so'fiylarning yo'lboshchisi, "shayxlарshng shayxi" va tariqat asoschisi hisoblangan. Bu maqbara Amir Temur davrida bino qilingan.
56	<b>Shayx Xovandi Taxur maqbarasi</b>	XIV - XV asrlar. Shayx Xovandi Taxur ilohiyot va tariqat ilmining yirik namoyandası. Tasavvufga oid bir qancha asarlar muallifi va shoir. Yassaviya tariqatining izdoshi. Bu maqbara Toshkent shahrida Xoja Ahror Valiy tomonidan XV asr boshlarida bunyod etilgan. Qabr oldiga o'g'llari va ayollari dafn etilgan. Hozirgi mavjud yodgorlik XV asrda bunyod etilgan ko'hna maqbara poydevori ustiga XVIII - XIX asrlarda qurilgan ikki xonali bo'yama maqbaradan iborat.
57	<b>Zangi ota yodgorlik majmuasi</b>	XIV asr oxiri - XV asr boshi. Tug'ilgan yillari noma'lum. O'rta osiyolik avliyo yoki "podachilar piri ". Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, Zangi ota Toshkent shahrida tug'ilgan va yashagan. Zangi otaning asli ismlari Oyxo'ja ibn Toshxo'ja bo'lgan. Ahmad Yassaviyning ustozasi Arslonbob Eshonning avlod (yevvarasi) hisoblanadi. O'ta qora tanli bo'lganligi uchun zangi (zanji), deyishgan. Tasavvuf ilmining targ'ibotchisi, Zangi ota turk-Islom olamidagi ulug mutafakkir va mutasavvif donishmandlardan biri bo'lib, uning nomi faqat Movarounnahrdha emas, balki Xuroson xalqlari orasida ham ma'lum

		va mashhurdir.
58	<b>Anbarbibi maqbarasi</b>	XIV asr oxiri - XV asr boshi. Tug'ilgan yillari noma'lum. O'rtalosiyolik avliyo yoki "podachilar piri". Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, Zangi ota Toshkent shahrida tug'ilgan va yashagan. Zangi otaning asli ismlari Oyxo'ja ibn Toshxo'ja bo'lgan. Ahmad Yassaviyning ustozasi Arslonbob Eshonning avlodni (yevarasi) hisoblanadi. O'ta qora tanli bo'lganligi uchun zangi (zanji), deyishgan. Tasavvuf ilmining targ'ibotchisi, Zangi ota turk-Islom olamidagi ulug mutafakkir va mutasavvif donishmandlardan biri bo'lib, uning nomi faqat Movarounnahrda emas, balki Xuroson xalqlari orasida ham ma'lum va mashhurdir.
59	<b>Muhammad Qaffol Shoshiy maqbarasi</b>	XVI asr. Hazrati Imom (Hastimom) nomi bilan mashhur bo'lgan Imom Abu Bakr Muhammad ibn Ismoil Qaffol Shoshiyning qadimgi kichkina maqbarasi o'rnila barpo etilgan. Hijriy 291-366 yillarda yashab o'tgan bu zot o'z davrining buyuk allomasi - fiqhshunos, muhaddis, tilshunos, mufassir va shoir bo'lgan. Qaffol Shoshiy qonunshunoslik, mantiq kabi sohalarda ham ko'p asarlar yozgan. Mashhur asarlari "Al-jadal al-Hasan", "Javomi' al-kalim", "Adab al-qoziy", "Ilm al-jadal", "Mahosin ash-shari'a" va boshqalardir. Dastlab eski Modarxon mahallasidagi Hastimom qabristoni majmuasi bo'lgan. Maqbaraning o'rtadagi katta xonasi ikki qavatli gumbaz bilan yopilgan. To'rdagi xonada sag'ana bor. Maqbara eshigi tepasidagi bitikda binoning qurilgan yili (1541-1542 y.), me'mori (G'ulom Husayn) va xattotning (Qudrat) ismlari yozilgan. Maqbara 1960 yilda ta'mir qilingan.
60	<b>Yunusxon maqbarasi</b>	XVI asr. Yunusxon Zahiriddin Muhammad Boburning onasi Qutlug' Nigorxonimning otasi bo'lib, o'sha davrda Toshkent shahriga hokimlik qilgan. "Boburnoma"da aytilishicha, Yunusxon Chig'atoy naslidandir. Maqbara Yunusxon vafotidan so'ng Shayxontoxur qabristonida Yunusxon o'g'li Ahmadxon Olachaxon tomonidan qurdirilgan.
61	<b>Baroqxon madrasasi</b>	XVI asr. Baroqxon (asli ismi - Navro'z Ahmadxon), tug'ilgan yili noma'lum. Shayboniy Abulxayrxonning nevarasi, Suyunchxo'jaxonning kenja o'g'li, Toshkent hokimi Navro'z Ahmadxon 1551-1556 yillarda Movarounnahrni Baroqxon nomi bilan idora qilgan. Toshkentda madrasa qurdirib, o'z nomidan pul zarb ettirgan. Movarounnahrning ko'p shaharlarida uning nomi xutbaga qo'shib o'qilgan. U Darg'om soyiga yaqin Raboti Xoja degan joyda 1556 yili to'satdan vafot etgan. Aslida Baroqxon madrasasining bir qismi noma'lum bir shaxsning maqbarasi sifatida qurilgan. So'ngra (1530 y.) shayboniyalar sulolasining Toshkentdag'i hokimi Suyunchxo'jaxon (vafoti 1525 y.) maqbarasi qo'shilgan. Majmuuning uchinchi bosqichini XVI asr o'rtalarida Baroqxon qurdirgan.
62	<b>Ko'kaldosh madrasasi</b>	XVI asr. Madrasa binosi 1523 yili Baroqxon (Navro'z Ahmadxon) ning o'rtancha o'g'li Darveshxonning vaziri Ko'kaldosh tomonidan an'anaviy me'morlik uslubida qurilgan. Ko'kaldosh madrasasi O'zbekistondagi eng noyob me'moriy obidalar turkumiga kiradi. Madrasa Markaziy Osiyo mamlakatlarida, ayniqsa, Movarounnahr hududida ma'rifat va ma'naviyatning yuksalishida, iymon va e'tiqodning xalq orasida shakllanishida, din va davlat arboblari, shoir u yozuvchilar, olimu fazillarni tayyorlashda muhim tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan maskandir. Hozir ham O'zbekiston musulmonlari

		idorasiga qarashli Islom o’rtta-maxsus bilim yurti sifatida o’zining tom vazifasini ado etib kelmoqda.
63	<b>Xo’ja Alambardor maqbarasi</b>	XIX asr. Bu maqbara Islom dini arboblaridan Xo’ja Abdul Aziz Alambardor nomi bilan bog’liqdir. Islom fotihlari hijriy 135-145 yillar oralig’ida qadimgi Choch (Shosh - hozirgi Toshkent) shahriga kelganida lashkarning bayroq ko’taruvchisi - alambardori Abdul Aziz Samarqand darvoza tashqarisiga Islom tug’ini qadagan. O’sha joy hozirgi Xo’ja Alambardor qabristonining o’rtasi bo’lib, keyinroq bu yerda bir sag’ana qurilgan. Xo’ja Alambardor Abdul Aziz umrining oxirgi yillarini Isfijob (Sayram)da o’tkazadi va o’sha yerda vafot etadi. Keyinroq uning qabri yon atrofiga Ahmad Yassaviyning ota-onalari ham qo’ylgan. Demak, mazkur maqbarada Xo’ja Alambardorning o’zi yo’q. Ammo ichida katta-kichik beshta qabr mavjud. Maqbara bir necha marta qayta tiklangan. Ichida o’sha vaqtida qo’ylgan Islom bayrog’i tug’i hamon saqlanadi. Tug’dan “Alloh” va “Muhammad” so’zlari yozilgan.
64	<b>Xoja Ahror Valiy masjidi</b>	Xoja Ahror Valiy masjidi 1451 yilda ulug’ alloma, zamonasinnig yetuk olimi, davlat arbobi, xalqparvar inson Xoja Ahror Valiy tomonidan qurdirligan. Toshkent shahridagi eng katta masjid bo’lganligi uchun shahar ulamolari, qozilar shu yerda ish yuritishgan. Oddiy xalq masjidni “Majjome’ ” deb atardi. Vaqt o’tishi bilan masjid binosi juda ayanchli holatga kelib qoldi. Istiqlol yillarida yangi zamonaviy sharqona uslubdagi masjid qad rostladi. Shaharning ko’rki, gultoji bo’lgan bu bino Sharqning go’zal me’moriy san’atini o’zida mujassam etadi
65	<b>Tillo Shayx masjidi</b>	Masjid 1890 yilda iymon-ye’tiqodli, taqvodor Tillo Shayx ota ismli savdogar tomonidan qurdirligan. U Xitoydan qo’ylar olib kelib sotish bilan shug’ullanib, bir yillik foydasidan ushbu masjidni qurdirib, mo’min-musulmonlarga in’om qilgan ekan. Ro’baro’da Baroqxon madrasasi joyleshgan bo’lib, bu ikki yodgorlik sal shimolroqda qurilgan Qaffoli Shoshiy maqbarasi bilan birgalikda ko’p zamonlar Hazrati Imom (Hastimom) mahallasining guzari va eng ko’rkam joyi hisoblangan.
<b>Navoiy viloyati</b>		
66	<b>Mirsaid Bahrom maqbarasi</b>	Maqbara XI asrda hozirgi Karmana shahri hududida bino etilgan. Uning sohibi mashhur savdogar, islomiy ilmlar bilimdoni Mirsaid Bahrom bo’lib, Karmanadan o’tgan Buyuk ipak yo’li orqali Afg’on, Eron, Arab davlatlariga borib, savdo-sotiqlig bilan shug’ullangan. Orttirgan mol-dunyosidan ko’plab xayr-yehsonlar qilib, katta obro’-ye’tiborga sazovor bo’lgan. U fiqh, tarix ilmlarini puxta bilgan. Umrining oxirlarida tasavvuf yo’liga o’tib, sohibi karomat darajasiga yetgan.
67	<b>Qosim Shayx Azizon maqbarasi</b>	XVI asr. Buxoro xoni Abdullaxon davrida mashhur bo’lgan piri murshid Qosim Shayx Azizon dafn qilingan dahma, xonning farmoyishiga muvofiq XVI asrning 80- yillarida bunyod etilgan. Abdullaxon hukmronlik qilgan davrda (1583-1595 y.) Qosim Shayx Azizon uning ma’naviy rahnamosi va piri edi. Hofiz Tanish al-Buxoriyning “Abdullahnama”, Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob”, Muhammad Tohir al-Xorazmiyning “Tarix al-avliyo” kabi asarlarida Qosim Shayx hazratlari XVI asr boshlarida taxminan 1503-1504 yillarda tug’ilganlar, deyilgan. Qosim Shayx Azizon tasavvufning jahriyya (zohiriyy zikr) sulukiga mansub bo’lib, ma’naviy

		ruhoniylarini Xoja Ahmad Yassaviyga borib taqaladi. Ularning oliv shan xonaqohi "Bu yerga kirgan kishi omonlik topgay", degan hadis kamolidan mujda berib, zamon ahlining tinchlik va omonlik uyiga aylangan. Qosim Shayx Aziz 1581 yili 78 yoshlarida vafot etganlar.
--	--	--

#### **Qoraqalpog'iston Respublikasi**

68	<b>Norinjonbobo maqbarasi</b>	XIV asrga mansub me'moriy majmua. Norinjonboboning tug'ilgan yili ma'lum emas. O'zi XIII- XIV asrlar orasida yashab o'tgan. Hijriy 712 (mil. 1312) yili vafot etgan. Shaxsi haqida aniq ma'lumotlar saqlanmagan. Qabri ustiga o'rnatilgan toshga "Bu oqil, obid, Alloh yo'lida doimiy ro'zador, Alloh karomatini yerda paydo etuvchi mashhur Muhammad ibn Muso ibn Dovud Abu Abdulloh an-Norinjoniyning qabridur. Allohnning unga va uning do'stlariga rahmati bo'lsin. 712 yil", deb yozilgan. Bu bitiklar Norinjonboboning sohibi karomat, aziz avliyolardan ekaniga shohidlik beradi.
69	<b>Sulton Uvays bobo maqbarasi</b>	XVII - XIX asrlar. Sulton Uvays asl ismi Suhayl ibn Omir ibn Rumon ibn Nohiya ibn Qaran ibn Murod. U Yaman mamlakatining Qaran qishlog'i Murodiy qabilasida milodning 625 yili tug'ilgan. 657 yili (hijriy 37 yili 17 shavvol kuni) Hazrati Ali va Muoviya askarlari o'rtasida yuz bergen Siffin jangida 32 yoshida shahid bo'lgan. Payg'ambar (a.s.) bu bo'lg'usi avliyo zot haqida xabar bergenlar. Sulton Uvays Bobo maqbarasida u kishining jasadlari yo'q. O'sha davr odatiga ko'ra, avliyoning izdosh-muxlislari XVII asrda ramziy qabr yasab, bir ziyoratgoh bunyod etishgan. So'ngra keyingi asrda Xiva xonining o'g'li Olloqulixon Peterburg safaridan qaytib kelayotganida o'sha joyda tunaydi. Avliyolar Sultoni Uvays Qaraniy uning tushiga kirib, yaqinda xon bo'lishi haqida bashorat qiladi. Shu bashorat ro'yobga chiqqach, uning suyunchisiga Olloqulixon shayxga katta masjid va alohida o'nta chillaxona qudiradi.

#### **Namangan viloyati**

70	<b>Xo'ja Amin maqbarasi</b>	XVIII asr. Xo'ja Amin maqbarasi XVIII asrning ikkinchi yarmida bunyod etilgan. Maqbarani bezashda XIV asr boshida o'rtal osiyolik me'morlar foydalangan rang-barang sirkor qoplamadan siqib chiqqargan o'yma sopol qo'llanshgan. Tarixiy manbalarda yozilishicha, XVI asrning oxirlarida Shayx Xovandi Tahir avlodlaridan bo'lgan Iminxo'ja Eshon Toshkentdan Namanganga kelib o'rashib qoladi. Unga ixlos qiluvchi kishilar ko'payib ketadi. Iminxo'ja Eshon qaynotasidan meros qolgan boyliklar evaziga Ibrohimxo'ja xotiralari uchun taxminan XVII asr oxiri - XVIII asr boshlarida Ibrohimxo'ja qabrining oldi tarafiga maqbara bunyod etadi. Maqbara qurilishiga o'sha davrning mohir me'morlari jalb qilinib, u juda nozik did bilan qurilgan.
71	<b>Mullo Bozor Oxund (Mulla qirgiz) maqbarasi</b>	XX asr boshi. Mullo Bozor Oxund (Mulla qirgiz) XVII asrning birinchi yarmida dunyoga kelgan. Ilmga tashnalik uni Turkistonning ilmu fan markazi bo'lmish Buxoroga olib kelgan. Uzoq yillar madrasada o'qish bilan birga donishmand olim Mirzo Bahodir Buxoriydan ta'lim olib, u zotdan irshod xatini - pirning yorlig'ini olgach, Buxorodan chiqib, O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlariiga sayohat qilgan. Qashqarning Xo'tan, Yorkent va boshqa shaharlarida bo'lgan. Mullo Bozor Oxund fiqh, hadis, faroiz, jo'g'rofiya, ilmi hisob, tarix, adabiyot, tasavvuf va boshqa ilmlarni yaxshi egallagan yirik olim edi.

<b>Farg'ona viloyati</b>		
72	<b>Ahmad al-Farg'oniy majmuasi</b>	Majmua mustaqillik davrida - 1998 yilda bunyod etilgan. Abul Abbas ibn Muhammad ibn Kasir Ahmad al-Farg'oniy 797 yili Farg'ona vodiysining Qubo (Quva) qishlog'ida tug'ilgan. Xalifa Horun ar-Rashidning sharqiy yerlaridagi muovini, o'g'li Ma'munning Marvdagi olimlari doirasiga kirgan. Ahmad al-Farg'oniy nihoyatda mashhur olim bo'lib, asarlarining tarjimasi bir necha asrlar davomida hatto Yevropa universitetlarida ham asosiy darslik sifatida qo'llanilgan. Manbalarda Ahmad al-Farg'oniy va uning 861 yilgi ixtirolari haqida ko'p gapiriladi. U ixtiro qilgan "Miqyos an-Nil" (Nil daryosi suvini o'lchash) hozirgi kunda ham Misrning Qohira shahrida saqlanib qolgan. Vafoti taxminan 865-866 yillar, deb qabul qilingan.
73	<b>Burxoniddin Marg'inoniy (ramziy) maqbarasi</b>	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov sa'y-harakatlari bilan allomaning ramziy maqbarasi 2000 yilda Rishton shahrida bunyod qilindi. Buyuk faqih Abul Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al-Farg'oniy ar-Rishtoniy al-Marg'inoniy 1123 yilning 23 sentyabrida tug'ilgan. U Qur'on, hadis va fiqh ilmini benihoya chuqur va mukammal egallagani va bu sohada beqiyos durdonalar yaratgani tufayli "Burhon ad-din val-milla" (Din va ummatning hujjati) degan nom olgan. 1178 yili yozgan "Al-Hidoya" asari fiqh bo'yicha eng aniq, izchil, mukammal asar sifatida butun Islom olamida hanafiy mazhabining fiqh masalalaridagi asosiy qo'llanmasiga aylangan.